

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



# **MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI**

**Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va  
huquq ta'lifi ta'lifi metodikasi**

## **MODULI BO'YICHA O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



**TOSHKENT**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchilar:**      **s.f.n., prof. X.S.Jumaniyozov**  
                              **f.f.n., dots. M.A.Sobirova**

**Taqrizchilar:**      **f.f.n., dots. S.X.Xudaynazarov** – O‘zbekiston milliy universiteti.

**p.f.b., PhD., dost. N.M.Akayeva** - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti.

**Xorijiy ekspert:**      **f.f.d., prof. A.X.Pulotov** – akademik Bobojon Gafurov nomidagi Xo‘jand davlat universiteti

**O‘quv-uslubiy majmua Toshkent davlat pedagogika universiteti kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
( “30”-noyabr 2024-yildagi 4-sonli bayonoma)**

## **MUNDARIJA**

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>10</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR .....</b>	<b>27</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR .....</b>	<b>97</b>
<b>V. KEYSALAR BANKI.....</b>	<b>110</b>
<b>VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI.....</b>	<b>112</b>
<b>VII. GLOSSARIY .....</b>	<b>114</b>
<b>VIII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>117</b>

## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28- yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarini o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

### Modulning maqsadi va vazifalari

**Modulning maqsadi:** qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini innovatsion ta’lim muhiti sharoitida milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarga oid yangi bilimlar, ko‘nikmalar hamda malakalarini tarkib toptirishdan iborat.

#### Modulning vazifalari:

- milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar zaruratini asoslash;
- milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarni aniqlash;
- milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda yangicha yondashuv va innovatsiyalardan foydalanish borasidagi mavjud muammolar va yechimlarni tahlil qilish;
- milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitish jarayonini takomillashtirish yo‘llarini aniqlash;
- milliy g‘oya va ma’naviyat asoslарини о‘qitishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish;
- tinglovchilarda milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitish

jarayonini takomillashtirishning pedagogik-psixologik troyektoriyalarini ishlab chiqish va amalda qo'llash ko'nikmasi va malakalarini shakllantirish.

### **Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:**

“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” ta'limi metodikasi” modulini o'zlashtirish jarayonida:

#### **Tinglovchi:**

- oliy ta'lim tizimida milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi sohasidagi kadrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar;
- milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishda yangicha yondashuv va innovatsiyalar;
- milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlariga oid innovatsiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish;
- darslarda talabalarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol ta'lim shakllari, metodlari va vositalaridan samarali qo'llash;
- milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg'or tajribalardan foydalanish;
- ta'lim jarayonida tinglovchilarning bilimlarini obyektiv baholash mexanizmlari, reyting nazoratda qo'llashga qaratilgan didaktik vositalar: standart va nostandart o'quv va test topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish;
- ta'lim jarayonida tinglovchilarda mustaqil ravishda bilimlarni yanada orttirib borishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, zamonaviy yondashuvlar asosida mustaqil ish va ijodiy izlanishlarini tashkil etish, ularga rahbarlik qilish haqidagi **bilimlarga ega bo'lishi**;
- milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishning eng so'nggi texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash;
- darslarda talabalarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan zamonaviy interfaol ta'lim shakllari, metodlari va vositalaridan samarali foydalanish;
- milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitish bo'yicha axborotlarni jamlash va qayta ishlash;
- ta'lim-tarbiya jarayonida kutilayotgan natijalarni bashorat qilish, identiv o'quv maqsadlarini shakllantirish;
- milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlariga oid manbalarni axborot texnologiyalari vositasida tahlil etish;
- milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishda talabalarda mustaqil dunyoqarashni shakllantirish;
- zamonaviy yondashuvlar asosida mustaqil ish va ijodiy izlanishlarini tashkil etish, ularga rahbarlik qilish **ko'nikma va malakalarini egallashi**;
- milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarning zamonaviy yo'nalishlariga oid nazariy qarashlar, yetakchi konsepsiylarini pedagogik faoliyatda qo'llay olish;

- moderator o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish asosida o‘zining pedagogik faoliyatini takomillashtirish, kasbiy sifatlarini rivojlantirish;
- mashg‘ulotlarda innovatsion va axborot texnologiyalar, tinglovchilar o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo‘llash;
- ta’lim jarayonida tinglovchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol ta’lim shakllari, metodlari va vositalaridan pedagogik amaliyotda samarali foydalanish;
- rivojlangan mamlakatlarda g‘oyaviy fanlarni o‘qitish metodikasidagi ilg‘or tajribalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga modernizatsiya qilgan holda qo‘llash;
- milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitish jarayonida talabalarning bilimlarini xolisona baholash mexanizmlarini, bilimlarni baholashda qo‘llashga qaratilgan didaktik vositalar: standart va nostandard testlar hamda o‘quv topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish;
- milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarning mustaqil ish va ijodiy izlanishlarini tashkil etish, ularga rahbarlik qilish **kompetensiyalarini egallashi lozim.**

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” ta’limi metodikasi” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi, shuningdek, ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, blitz-so‘rovlardan, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” ta’limi metodikasi” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, “Kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” hamda “Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

### **Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Asosiy qismda (ma’ruza) modulning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo‘yicha tinglovchilarga yetkazilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar to‘la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo‘yiladigan talab mavzularning dolzarbliji, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi,

mamlakatimizda bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o‘zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalardagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so‘ngti yutuqlari e’tiborga olinishi tavsiya etiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim va tarbiya jarayonlarini normativ-huquqiy asoslarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

### **Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti**

<b>Nº</b>	<b>O‘quv moduli nomi</b>	<b>Jami</b>	<b>jumladan</b>	
			<b>nazariy</b>	<b>amaliy</b>
1.	Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitishga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar.	4	2	2
2.	Milliy g‘oya va ma’naviyat turkumiga kiruvchi fanlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish	6	2	4
3.	Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishning turli shakl, metod, vositalari, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo’llari.	6	2	4
4.	Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg‘or tajribalar	4	2	2
5.	Inklyuziv ta’lim konsepsiysi, modellari va strategiyalari	4	2	2
<b>JAMI</b>		<b>24</b>	<b>10</b>	<b>14</b>

### **NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

#### **1-mavzu: Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitishga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar.**

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishning o‘ziga xosliklari. Bugungi kunda dunyoda kechayotgan mafkuraviy jarayonlar, ayovsiz raqobat muhitida milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitishga

qo‘yilayotgan talablar. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarning zamonaviy yo‘nalishlariga oid nazariy qarashlar, yetakchi konsepsiylar.

## **2-mavzu: Milliy g‘oya va ma’naviyat turkumiga kiruvchi fanlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish.**

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv, kompetensiya tushunchasi. Kommunikativlik va mafkuraviy kompetentlik. Milliy va ma’naviyat turkumiga kiruvchi fanlar o‘qituvchisining kommunikativligi va mafkuraviy kompetentligi.

## **3-mavzu: Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishning turli shakl, metod, vositalari, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari.**

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalari hamda xususiy metodikalar. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda turli shakl, metod va vositalardan foydalanish. Yangicha yondashuv va innovatsiyalarni joriy qilish orqali ta’lim jarayonini takomillashtirish.

## **4-mavzu: Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg‘or tajribalar.**

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda xorij tajribasidan foydalanishning o‘ziga xosliklari. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda g‘oya targ‘ibotining institutsional tizimi, uning ijobjiy jihatlaridan ta’lim jarayonida foydalanish. Rivojlangan mamlakatlarda g‘oyaviy fanlarni o‘qitish metodikasidagi ilg‘or tajribalar.

## **5-mavzu: Inklyuziv ta’lim konsepsiysi, modellari va strategiyalari**

Inklyuziv ta’limning mohiyati. Yangilanayotgan O‘zbekistonda inklyuziv ta’limga yangicha munosabat.

Inklyuziv ta’lim konsepsiysi, modellari va strategiyalari: oliy ta’lim tashkilotlarida turfa xil ta’lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlashni shakli, metodi va vositalari.

# **AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI**

## **1-amaliy mashg‘ulot: Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitishga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar.**

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishning o‘ziga xosliklari. Bugungi kunda dunyoda kechayotgan mafkuraviy jarayonlar, ayovsiz raqobat muhitida milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitishga qo‘yilayotgan talablar. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarning zamonaviy yo‘nalishlariga oid nazariy qarashlar, yetakchi konsepsiylar.

## **2-amaliy mashg‘ulot: Milliy g‘oya va ma’naviyat turkumiga kiruvchi fanlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish.**

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv, kompetensiya tushunchasi. Kommunikativlik va mafkuraviy kompetentlik. Milliy va ma’naviyat turkumiga kiruvchi fanlar o‘qituvchisining kommunikativligi va mafkuraviy kompetentligi.

## **3-amaliy mashg‘ulot: Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishning turli shakl, metod, vositalari, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari.**

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalari hamda xususiy metodikalar. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda turli shakl, metod va vositalardan foydalanish. Yangicha yondashuv va innovatsiyalarni joriy qilish orqali ta’lim jarayonini takomillashtirish.

## **4-amaliy mashg‘ulot: Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg‘or tajribalar.**

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda xorij tajribasidan foydalanishning o‘ziga xosliklari. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda g‘oya targ‘ibotining institutsional tizimi, uning ijobiylaridan ta’lim jarayonida foydalanish. Rivojlangan mamlakatlarda g‘oyaviy fanlarni o‘qitish metodikasidagi ilg‘or tajribalar.

## **5-amaliy mashg‘ulot: Inklyuziv ta’lim konsepsiysi, modellari va strategiyalari**

Inklyuziv ta’limning mohiyati. Yangilanayotgan O‘zbekistonda inklyuziv ta’limga yangicha munosabat.

Inklyuziv ta’lim konsepsiysi, modellari va strategiyalari: oliy ta’lim tashkilotlarida turfa xil ta’lim oluvchilarini qo’llab-quvvatlashni shakli, metodi va vositalari.

### **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI**

Sir emaski, bugungi kunda o‘qitishning zamonaviy metodlari ta’lim jarayonida keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahsmunozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlar interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham ataladi.

**Interfaol metodlar** deganda ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Interfaol o‘qitishda o‘qituvchi o‘quv faoliyatninig faol tashkilotchisi bo‘lib, talaba bu faoliyatning subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Interfaol usullar talabalardan axborotlarni o‘zlashtirish jarayonidagi faollikni, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, o‘qitish maqsadlarining to‘laqonli amalgalashiga yordam beradi.

Bugungi kunda o‘qitish tizimidagi eng samarali interfaol o‘qitish metodlari va texnikalariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin bo‘ladi: “Sinkveyn”, “Klaster”, “Charxpalak”, “Aqliy hujum”, “Skrabey”, “Ikki qismli kundalik”, “Venn Diagrammasi”, “Tushunchalar tahlili”, “Debatlar”, “6-3-5”, “Akvarium”, “Davra suhbati”, “Insert”, “Assesment”, “Fidbeyk”, “Pinbord”, “Juftliklarda ishslash”, “Beshinchisi ortiqcha”, “Chorraha” texnikasi va h.k.

Shu o‘rinda milliy g‘oya fanini o‘qitishda yuksak pedagogik mahorat assosida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo‘llariga qisqacha to‘xtalib o‘tishga harakat qilamiz.

### **“AQLIY HUJUM” METODI**

Bu metod orqali talabalarga savollarni berish bilan o‘qituvchi avvalo o‘tgan darslarni mustahkamlaydi, yangi mavzuni oydinlashtiradi, mavzulararo bog‘lanishga erishadi, talabalarda erkin fikr, mustaqil dunyoqarashni shakllantirib, fikrlarni zudlik bilan jamlash, tez, aniq va lo‘nda javob berish, vaziyatni to‘g‘ri baholash kabi ko‘nikmalarni uyg‘otadi.

Dars jarayonida “Aqliy hujum”dan maqsadli foydalanish ijodiy, andozasiz tafakkurlashni rivojlantirish manbai hisoblanadi. “Aqliy hujum”ni

uyushtirish sodda bo‘lib, undan ta’lim mazmunini o‘zgartirish jarayonida, ishlab chiqarish mammolari yechimini topishda ham foydalanish mumkin. Dastlab guruh yig‘ilib, ular oldiga muammo qo‘yiladi. Bu muammo yechimi to‘g‘risida ishtirokchilar o‘z fikrlarini bildirishadi. Bu bosqichda hech kimning o‘zgalar g‘oyasiga “hujum” qilishi yoki baholashiga haqqi yo‘q. Demak, “Aqliy hujum”da qisqa vaqtda o‘nlab g‘oyalarning yuzaga kelishi imkoniyatlari mavjud bo‘ladi. Aslida, g‘oyalar soni maqsad emas, ular muammo yechimi uchungina asos bo‘ladi. Bu metod shartlaridn biri qatnashuvchilarning har biri tashqi ta’sirsiz faol ishtirokchi bo‘lishi kerak.

“Aqliy hujum” qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- olg‘a surilgan g‘oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, saniga e’tibor qaratiladi, g‘oyalar qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi;
- istalgan g‘oyani mumkin qadar mukammallashtirish va rivojlantirish mumkin;

- muammo yechimidan g‘oya lar ham qo‘llab quvvatlanadi;
- barcha g‘oyalarning asosiy mavzulari(farazlari) yozib olinadi;
- “hujum” vaqtி aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- savollarga qisqacha(asoslanmagan) javoblar berish ko‘zda tutiladi.

“Aqliy hujum” metodi qiyin vaziyatdan qutulish choralarini topishga, muammoni chegarasini kengaytirishga, fikrlar xilma-xilligiga erishishga va tafakkur doirasini kengaytirishga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni yechish jarayonida ijodiy hamkorlik kuchayib, guruh(auditoriya yoki auditoriya) yanada jipslashadi.

“Aqliy hujum” metodi qo‘llanish maqsadiga ko‘ra, universal hisoblanib, ilmiy izlanishlar jarayonida yangi muammoni yechishga imkon yaratadi, o‘qitish jarayonida o‘quv materiallarini tezkor o‘zlashtirishga yordam beradi, fikrni mustahkamlashda asqotadi, ya’ni talabada o‘z-o‘zini boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantiradi.

“Aqliy hujum” metodini quyidagicha tartibda qo‘llash mumkin. Mazkur metodning ishtirokchilari muammo mulohaza-takliflarni bildirishlari mumkin, aytilgan fikrlar yozib olinadi. Metod samarasi fikrlar xilma- xilligi bilan tavsiflanadi va ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. “Aqliy hujum” tugagach, eng yaxshi takliflar birlashtirilib, muammoning yechimi uchun zarur bo‘lganlari tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” bu metodi amerikacha “Aqliy hujum” metodi bo‘lib, bugungi kunda ta’lim tizimida ancha ommalashdi. Talabalarning mustaqil dunyoqarashi, erkin tafakkurini rivojlantirish maqsadida dars jarayonlarida ushbu metodni foydalanish kutilgan samarani berishi shubhasiz.

“Aqliy hujum” metodi bo‘yicha talabalar mustaqil o‘qib, izlanishlari va muayyan ma’noda bilim va tasavvurlarga ega bo‘lishlari uchun o‘tgan darslarda ular mazkur mavzu yuzasidan kerakli adabiyotlar yoki o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan tayanch ma’ruza matni bilan ta’minlanishlari zarur.

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi darslarda qo‘llaniladigan metodlardan yana biri “Ajurli arra” metodi bo‘lib, bu metod tuzilishi jihatdan o‘zida quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Topshiriqlarni bo‘lish: “Topshiriq va matnli materiallar bir nechta asosiy qismlarga (yoki mavzular)ga qirqiladi”.
2. Birlamchi guruhlari: “Har bir guruh a’zolari qirqilgan mavzuni oladilar va ekspertga aylanadilar”.
3. Ekspert guruhlari: “Qo‘lida bir mavzuga oid o‘quv topshiriqlari mavjud bo‘lgan talabalar mavzuni muhokama qilish, boshqalarga o‘rgatish rejasini egallash uchun ekspert guruhlarga birlashadilar”.
4. Birlamchi guruhlar: “Talabalar o‘zlarining birlamchi guruhlariga qaytadilar va ekspert guruhlarda o‘rganganlarini o‘qitishadi”.

Izoh: “Ajurli arra” mohiyatiga aniqlik kiritish uchun ba’zi bir tavsiyalarni yoritish lozim.

1. O‘qitish jarayonida bu tarzda yondashilganda talabalarning hamkorlikda ishlashga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni o‘zlashtirishga imkon tug‘iladi.
2. U yoki bu faoliyatni darsda amalga oshirish uchun talabalarga boshlang‘ich axborotlarni uzatish zarurati tug‘ilsa, ma’ruza o‘rnini bosa oladigan samarali instrumentariy hisoblanadi.
3. O‘qituvchi murakkab mazmunli mavzular bo‘yicha talabalarni darsga tayyorlash uchun oldindan ularning har biriga mo‘ljallangan alohida axborotli paket tayyorlaydi. Unda darslikdan, qo‘sishimcha tarzda gazeta, jurnal, maqolalardan materiallar bo‘lishi kerak.
4. Har bir talaba 2 guruh tarkibida ishtirok etadi: dastlab “o‘z uyi” (birlamchi) guruhiga birlashib, o‘quv elementlarini mustaqil o‘rganishadi. Ekspert guruhini tezda tashkil etish uchun talabalar olgan axborotli paketlarda har bir mavzuga oid materiallar bir hil rangdagi qog‘ozlarga yozilgan yoki rangli qalam bilan qog‘ozning biror bir burchagi bo‘yalgani ma’qul.
5. Har bir guruhda 3 tadan 5 tagacha kishi talaba soniga qarab bo‘lishi mumkin. Har bir talaba “o‘z yo‘l”dagilarni va qayta uchrashish joyini aniqlab olish kerak.
6. O‘qituvchi talabalarga “rangli” topshiriqlar asosida guruhga birlashishini taklif etadi va ular alohida mavzular bo‘yicha ekspertga aylanadi. Misol uchun, “qizil” larni honasi oxirida, “ko‘k”larni esa auditoriya yo‘lakchasida uchrashishi belgilanadi. Har bir ekspert guruhda 3tadan kam talaba bo‘imasligi kerak.
7. Guruhlarga axborotli paket tarqatiladi. Har qaysi guruh turli hil materiallar to‘plamini olishlari va ularni o‘qishi, muhokama qilishi, aynan shu axborotlar bo‘yicha ekspertga aylanishi lozim. O‘quv materiallari bo‘yicha “ekspert” bo‘lishi uchun talabalarga vaqt yetarli bo‘lishi kerak. Bu uchun agar materiallar murakkab va katta bo‘lsa, ehtimol bir dars to‘liq talab qilinadi.
8. Talabalarga quyidagicha topshiriqlar beriladi:
  - paketdagi materiallarni qunt bilan o‘rganing va muhokama qiling;

- bir-biringizdan so‘rang va o‘quv materiallarini har biringiz tushinib olganingizga ishonch hosil qiling;

- o‘z uyingiz guruhini o‘qitish zarurligini hisobga olib materiallarning muhim o‘quv elementlariga e’tiborni qarating.

9. Talabalar o‘z uylariga qaytishlarini iltimos qiling. Har biri o‘z “uyi” – guruhiga axborot beradi. Shaksiz, “uy” guruhida ekspert guruhlaridan bittadan talaba bo‘lishi shart. Talaba o‘rganib kelgan materiallarni o‘z guruhi talabalariga o‘rgatish javobgarligini bo‘yniga olish lozim. Bu jarayon o‘quv materiallarining o‘zlashtirish zarurligiga qarab yana bir soat davom etishi mumkin.

10. Talabalar bir-birlaridan axborotlarni o‘rganishib bo‘lishgach, o‘qituvchi oldindan rejalashtirgan faoliyat turini o‘tkazishi mumkin.

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi darslarda qo‘llaniladigan metodlardan yana biri munozara metodidir. Bu metod yordamida talabalarga muayyan muammo bo‘yicha to‘liq axborotlar yetkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni talabalar ayovsiz “shturm” qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli ma’lumotlarni atroflicha o‘rganalidar.

Munozarani o‘tkazish metodikasi:

1. Munozara olib boruvchi-boshlovchi (o‘qituvchi, jurnalist, boshliq va hokazo) mavzuni oldindan tanlaydi va ishtirokchilarni taklif etadi.

2. Boshlovchi ishtirokchilarga “aqliy hujum” topshirig‘ini beradi va uning qoidalarini tushuntiradi:

- “hujum”dan maqsad – muammo yechimiga oid variantlarni mumkin qadar ko‘proq taklif etish;


- o‘z aql-idrokingizni markazlashtirishga harakat qiling va diqqatni muammo yechimiga qaratgan holda fikrlar bildiring. Bildirilgan g‘oyalar umumiyl fikrga zid bo‘lsada, hech biri rad etilmaydi;

- boshqa ishtirokchilar g‘oyalari ham rivojlantiriladi va hk.

## “KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI

Bu ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy is bo‘lib, ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishslash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- o‘qitish mazmunining yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtini tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

### **“DAVRA SUHBATI” METODI**

Bu aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida “Davra suhbati” metodining tuzilmasi keltirilgan.

### **DAVRA STOLI TUZILMASI**

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.


#### **“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta’lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta’lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta’lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta’lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.



Ushbu metod orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni obyektiv baholashi mumkin.

### “BAHS-MUNOZARA” METODI

Bu biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ✓ barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;

- ✓ “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- ✓ fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- ✓ bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- ✓ bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan.



#### **Metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

#### **“TARMOQLAR” METODI**

Talabani mantiqiy fikrlash, umumiyl fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, bu metod ijtimoiy siyosatning mezonlarini yoritishda ahamiyatlidir. Bu usulning ma’nosи – fikrlarning tarmoqlanishi. Yana shuningdek,

“Tarmoqlar” metodi – pedagogik strategiya bo‘lib, u talaba yoshlarni ushbu mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam beradi. Talaba yoshlarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzbek bog‘langan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi. Bu usul biron mavzuni chuqur o‘rganishdan avval talaba yoshlarning fikrlash

faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda talaba yoshlarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

### XULOSALASH (REZYUME) METODI

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

Ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



Mashg‘ulotning maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiyligiga muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



Har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroficha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



Navbatdagi bosqichda barcha guruhlardan o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, o‘qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlrl bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.



**Namuna:**

<b>Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlardan Davlat ta’lim standarti</b>
--

<b>Sobiq standart</b>		<b>Yangi standart</b>	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

**Xulosa:****“SWOT-TAHLIL” METODI**

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



**Namuna:** An’anaviy va zamonaviy ta’lim shakllarini “SWOT-tahlil” metodida tahlil qiling.

<b>S</b>	Oddiy darsda o‘qituvchi, tinglovchilarga ko‘p ma’lumot bera olmaydi	Zamonaviy darsda kamroq ma’lumot beriladi, biroq ular tinglovchilar ongiga singdirib beriladi
<b>W</b>	O‘qituvchi asosan a’lochi, qiziquvchi tinglovchilar bilan gaplashadi, ya’ni darsda oz sonli tinglovchilar qamrab olinadi	Zamonaviy ta’limda darsda ko‘p sonli tinglovchilar qamrab olinadi
<b>O</b>	Oddiy darsda faqat o‘qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma’lumotlari atrofida gaplashiladi	Zamonaviy darsda muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g‘oyalar tug‘ilishi mumkin
<b>T</b>	O‘qituvchi uchun asosiy to‘siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, tinglovchi uchun qiziqmasa ham	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, tinglovchilarni mavzudan chetga burishga

	o‘qituvchini eshitib o‘tirish majburiyati	intilishlari
--	--	--------------

### “INSERT” METODI

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

➤ o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;

➤ yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;

➤ ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgililar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“–” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

### “PINBORD” METODI

Pinbord (inglizchadan: pin – mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o‘quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat. Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashtirish (klassifikatsiya)ni amalga oshirishga, jamoa tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.

O‘qituvchi taklif etilgan muammo bo‘yicha o‘z nuqtai nazarini bayon qilishni so‘raydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag‘batlantiradi). Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so‘zdan ko‘p bo‘lmagan) sifatida alohida qog‘ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

O‘qituvchi bilan birgalikda flipchart (maxsus doska va maxsus qog‘oz yopishtrish imkonini beradigan skotch) yordamida fikrlar jamlanadi, klassifikatsiya qilinadi, muhokamada esa optimal yechimlar bo‘yicha aniqlanadi.

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

1) yaqqol xato bo‘lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;

2) bahsli bo‘lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;

3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo‘lgan belgilarini aniqlaydilar;

4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog‘oz va varaqlaridagi) guruhlarga ajratadilar;

5) ularning o‘zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko‘rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

### **Madaniyat**

<b>moddiy madaniyat</b>	<b>ma’naviy madaniyat</b>

### **“BLITS-O‘YIN” METODI**

Harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan predmeti asosida ko‘p, xilma-xil fikrlardan, ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda ijtimoiy siyosatning o‘rni va ahamiyatini yoritishda bu metoddan unumli foydalanish mumkin.

### **“TUSHUNCHALAR TAHLILI” METODI**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod Tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagи tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo’shimcha ma’lumot
G’oya		
G’oyaviy tarbiya		
Ma’naviyat		
Ma’naviy yuksaklik		
Ma’naviy tarbiya		
Ma’naviy yetuklik		
Ma’naviy tahdidlar		

**Izoh:** Ikkinci ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo’shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

### “MUAMMOLI VAZIYAT” METODI

“Muammoli vaziyat” metodi - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi, ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda ta’lim oluvchilarning o‘zlariga bo‘lgan ishonch yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



### **“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruahlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan bирgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

### **“VENN DIAGRAMMASI” STRATEGIYASI**

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)lar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

### **“HAMKORLIKDA O‘QITISH” METODI**

Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi – biror narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda o‘qish, o‘rganishdir!

Hamkorlikda o‘qitishning samaradorligi:

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o‘z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi. Bu ko‘nikmalar hamkorlikda o‘qiyotganlarda bir-biri bilan raqobat qilayotgan yoki individual o‘qiyotganlarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan. Xattoki, hamkorlikda bajarilgan yozma ishlar chuqr mazmunga egaligi bilan farqlanadi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Hamkorlikda o‘qiyotgan guruh a’zolari betakror g‘oyalarni ko‘proq ishlab chiqadi, turli maqsadlarga erishishda va dars jarayonida paydo bo‘lgan har xil o‘quv masalalarining yangi yechimlarini topishda ijodiy qobiliyatlar rivojlanib boradi.

3. Bir vaziyatda olingen bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi. Bugun guruh bajargan topshiriqni ertaga har tinglovchi mustaqil bajara olishi mumkin.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi. Hamkorlik bilimlarga ko'proq qiziqish uchun ham sharoitlar yaratadi. Mashg'ulot o'tkazish usuli qanchalik takomillashgan bo'lsa, tinglovchilarning o'rganilayotgan masalaga qiziqishi va faoli ortib boradi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarflanadi. Hamkorlikda o'qiyotganlar topshiriqlarni bajarish uchun raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga nisbatan ko'proq vaqt sarflaydilar.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy afzalliklari:

- hamkorlikda o'qiyotgan tinglovchilar bir-birining muvaffaqiyatiga ko'maklashadi;

- yordam va madad beradilar va yordamni qabul qiladilar, gap faqat o'qish to'g'risida emas, balki insoniy, do'stona munosabat to'g'risida ketayapti;

- axborot va "moddiy resurslar", ya'ni topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lган barcha narsalar bilan almashadi;

- o'rtoqlari bergan ma'lumotlarni o'zlashtiradi va qo'llashga harakat qiladilar. Og'zaki tushuntirishlar, axborotni o'ylab ko'rish va umumlashtirish, o'z bilimlari va ko'nikmalarini boshqalarga uzatish – bularning hammasi bilimlarni tartibga solish, ularni yaxshiroq anglab o'zlashtirish va umumiyy maqsadga erishishga shaxsiy ulushini qo'shishga olib keladi;

- tinglovchilar bir-biri bilan muzokara olib borishga va dalillar keltirishga o'rganadi. Intellektual maydonligi zidliklar qiziquvchanlikni rivojlantiradi, bilimlarni o'zlashtirish va ularni qayta anglash, o'rganilayotgan muammoga chuqurroq kirishishga undaydi hamda boshqa ko'p foydali sifat va ko'nikmalarni shakllantiradi;

- tinglovchilar yaxshiroq o'qishga intilishda bir-biriga ko'maklashadi. O'qishda o'rtoqlariga yordam berayotgan tinglovchi o'zi ham sezilarli darajada yaxshiroq o'qiydi;

- bir-biriga ta'sir etadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari o'rtoqlariga ta'sir etishning har qanday imkoniyatidan foydalanadilar va o'z navbatida ta'sir uchun ochiqlar;

- aniq ifodolangan motivatsiyaga ega. Bilimlarni o'zlashtirishga intilish umumiyy maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi mehnat tufayli kuchayadi;

- o'zaro ishonch sharoitini yaratadi va talablarni yuqori darajada ushlab turadi. Guruh a'zolari o'z o'rtoqlariga ishonadilar va o'zlarini o'rtoqlari ishonchini qozonadigan tarzda tutadilar, bu katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratadi. O'zaro ishonch – har birining yuqori yutuqlari uchun yaxshi asos.

Hamkorlikdagi o'qish tamoyillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- guruhga bitta topshiriq;

- bitta rag'bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiyl natijaga erishish uchun barcha guruh a'zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig'indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya'ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog'liq;
- har birining o'z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a'zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas'uliyati;
- hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o'zaro yordam berish kabi o'zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;
- muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o'qiyotgan o'z shaxsiy yutug'ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o'qishga berilgan bo'lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

### **Guruhda ishslash qoidalari:**

Har kim o'z hamkasblari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;

Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashishi zarur;

Har kim yordamga muhtoj bo'lganda uni so'rashi zarur;

Har kimdan yordam so'ralsa, yordam qilishi zarur;

Har kim guruh ishini natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur.

- Boshqalarga yordam berib, o'zimiz tushunamiz!

- Biz bitta kemadamiz: yoki birga suzib chiqamiz, yoki birga cho'kib ketamiz!

### **Guruhda topshiriqni bajarish yo'riqnomasi:**

1. Guruh liderini saylang.
2. Topshiriq bilan tanishing va uni qanday qilib bajarishingizni muhokama qiling.
3. Topshiriqni bajaring.
4. Taqdimotga tayyorlaning.
5. Taqdimot o'tkazing.
6. Guruh ishini baholang.

#### **1-bosqich**

Guruh ish joyini tayyorlash – stol va o'rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda ta'lim beruvchi auditoriyada erkin harakatlana olsin, har bir guruh a'zosi bir joyda bo'lishlari va bir-birlarini ko'rishlari va eshitishlari kerak, zarur o'quv qo'llanmalar barchaga yetarli bo'lishi kerak.

#### **2-Asosiy bosqich**

**1.** Ta'lim oluvchilarni guruhlarga taqsimlash – tanlangan kichik guruhlarga birlashtirish yo'li asosida ta'lim oluvchilarni guruhlarga bo'ladi.

**2.** O'quv topshiriqlarini tarqatish – muammoli vaziyatni taklif qiladi, ta'lim oluvchilar bilan birgalikda uni echish yo'li va tartibini muhokama qiladi,

guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma'lum qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.

**3.** O'quv topshiriqlarni bajarish bo'yicha yo'riqnomani tushuntirish. Guruhlar bo'yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni baajarishda qanday qo'shimcha materiallaridan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishslash qoidalarini eslatadi.

Doskada guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani yozadi yoki tarqatadi.

**4.** Ta'lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirish Ta'lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani muhokama qiladi; hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.

**5.** Guruhlarda o'quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish – o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha ishni boshlanishi haqida e'lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi. Guruh ishini rejalashtirish, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlash, vazifani bajarish bo'yicha yakka tartibda ishslash, yakka tartibda topilgan yechimlarni muhokama qilish, guruh uchun umumiylar yechimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni baajarish uchun zarur bo'lgan alohida bo'lib ishslashga, ko'nikmalarni shakllantirishga e'tiborini qaratadi. Ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq, va samimiy tanbeh qiladi.

**6.** Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish – bajarilgan ish natijalari to'g'risida ma'lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezoni va ko'rsatkichlarini eslatadi.

### 3-Nazorat –yakuniy bosqichi

Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o'tkazadi: guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi; Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.

### **Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi**

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi.
2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.
3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi.
4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.
5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarfini talab etadi.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

#### **1-mavzu: MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIYAT ASOSLARI TURKUMIDAGI FANLARNI O‘QITISHGA QO‘YILAYOTGAN ZAMONAVIY TALABLAR**

##### **Reja:**

1. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishning o‘ziga xosliklari.
2. Bugungi kunda dunyoda kechayotgan mafkuraviy jarayonlar, ayovsiz raqobat muhitida milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitishga qo‘yilayotgan talablar.
3. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarning zamonaviy yo‘nalishlariga oid nazariy qarashlar, yetakchi konsepsiylar.

**Tayanch tushunchalar:** Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlar, Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishning o‘ziga xosliklari, mafkuraviy jarayonlar, zamonaviy yo‘nalishlar, nazariy qarashlar, yetakchi konsepsiylar, madaniy-ma’rifiy yuksaklik, ijtimoiy-didaktik taraqqiyot, falsafiy-pedagogik o‘sish, iymon-e’tiqodning butunligi, milliy axloq-odob meyorlariga to‘la rioya qilish, ilm-ma’rifatli bo‘lish, insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, milliy qadriyatlarga muhabbat, fidoyilik, mardlik jasurlik tashabbuskorlik.

**1. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishning o‘ziga xosliklari.** Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Chunki, bu fanlar milliy g‘oyaning mazmun-mohiyatini fanning xususiyatlari nuqtai nazaridan chuqur va atroflicha o‘rgatadi. Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o‘sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitetni hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishni bamisoli yosh niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog‘bondek noziklik va mehr bilan, oqilona yo‘l bilan amalga oshirish lozim. Chunki “Xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat’i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas’uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an’analaramizga munosib bo‘lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da’vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir”.

Mamlakatimizda demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatni barpo etishda, bizga yot va begona mafkuralar tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish, g‘oyaviy bo‘shliq bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik va nihoyat, yurtning yuksak taraqqiyotini ta’minlash – milliy

g‘oya, ma’naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarni shakllantirish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Bu fanlarni o‘rganishni taqoza etadigan umumiylar va o‘ziga xos qonuniyatlar mavjud. Umumiylar qonuniyatlar turli xalqlar, mamlakatlar, jamiyatlar hayotida amal qiladigan umumiylar asosga ega bo‘lgan ichki zaruriy bog‘lanishlar bo‘lib, u jamiyat va mafkuralar (g‘oyalar)ning bir-birlari bilan uzviy bog‘liqligi qonunidir.

Jamiyat mafkurasiz, maqsadsiz yashay olmaydi. Demak:

birinchidan mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo‘lmasa, odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrar.

Ikkinchidan, qayerdaki mafkuraviy bo‘shliq vujudga kelsa, o‘sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin. Buni isboti uchun xoh tarixdan, xoh zamonamizdan ko‘plab misollar keltirish qiyin emas. U jamiyat oldidagi maqsadlar, uni amalga oshirish vositalaridir. Qolaversa, inson hayotida ma’naviy mezonlar ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Ma’naviyat – insoniyatning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir», degan edi. Binobarin, jamiyatning, insonlarning ma’naviy madaniyati qancha yuksak bo‘lsa, Vatanimiz O‘zbekiston shuncha tez mustahkamlanib boradi, boshqa ijtimoiy muammolarni hal qilish osonlashadi.

Misol uchun boshqa mamlakatlarga, xususan, Yaponiyaga nazar tashlasak, u qazilma boyliklari, yer-suvi bilan gullab yashayotgani yo‘q, Yaponiya ma’rifati, aqli, tarixi bilan XX asrda ustuvor bo‘lib turibdi. Ma’naviy qashshoq xalq qachon boy bo‘lmaydi. O‘z huquqini bilmagan, o‘z qonunlari kuchini anglab yetmagan va tushunishni istamagan insoning shon-shavkatni tuproq bilan tengdir.

A.Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida ma’naviyatni rivojlantirish masalalari, xususan, insonparvarlik, adolat, komillikkha erishish g‘oyalarini ilgari surib: “Sadoqat gulshani salomat, bo‘stoni najotdur. ...Sadoqat bir fayzi ma’naviydurki, u fayzdan hissasini olmak har bir kishining muqaddas vazifasidir, Adolat esa yaxshi xulqlarning foili, zulmning muqobilidur. Har bir millatning taraqqiy va taoliysi (yuksaklik, ko‘tarilish), davlat va hukumatlarning uzun yashamog‘i adolatga bog‘liqdur”<sup>1</sup>, deydi.

Milliy g‘oya va milliy o‘zlikni anglash, shaxslararo munosabatlarda millatning etnik birligini saqlashning muhim vositasi sifatida barcha davrlarda muhim ahamiyat kasb etgan. Etnik birlikni saqlash jarayonida millatlarning turli darajadagi bir-biridan farq qiluvchi urf-odatlari, an’analari shakllangan va ular asrlar davomida milliy ruhning ifodasi sifatida takomillashib borgan. Bu jarayondagi o‘zgarish millat manfaatlarini himoya qilishga yo‘nalgan g‘oyaning maqsadi va uning birlashtiruvchi kuch sifatidagi rolida o‘z ifodasini topgan. Chunki milliy g‘oya nafaqat manfaatlarini, shuning bilan birga milliy jijslikni vujudga keltiruvchi, millat manfaatlariga zid bo‘lgan turli tashqi va ichki salbiy ta’sirlardan himoya qiluvchi, uni o‘z maqsadlariga yo‘naltiruvchi omil hisoblanadi. Milliy g‘oya millatning o‘zligini anglashning nazariy asosi bo‘lib,

<sup>1</sup> Авлоний Абдулла. Туркий гулистан ёхуд ахлоқ. –Т.: Ўқитувчи, 1992, 38-бет.

unda millatning maqsadlari va taraqqiyot istiqbollari namoyon bo‘ladi va har bir davrda ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotning transformatsiyasi ta’sirida maqsadga erishishning yo‘nalishlari ham takomillashib boradi.

Milliy g‘oya takomili o‘z o‘rnida milliy mafkura taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitusiyasi 12-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatalishi mumkin emas”,<sup>2</sup> degan fikr muayyan ma’noda mafkura mutlaqlashtirilishining oldini olish maqsadini namoyon etadi. Zero, mafkura mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning umumiy muddaolarini ifodalovchi va ularning boshini biriktirib, jipslashtirib, bitta asosiy maqsadga, ya’ni davlatimiz mustaqilligini mustahkamlashga undaydigan milliy istiqlol haqidagi g‘oyalilar, bilimlar yig‘indissini tashkil etadi.

Shuni alohida qayd qilish kerakki, mafkura, undagi g‘oyalarning manfaatlashish xususiyati bilan, ya’ni g‘oyadagi shu g‘oya egasi yoki unga ergashgan konkret shaxs, guruh, millatning tub ehtiyoj – manfaatlari va ishonch – e’tiqodlari ifodalangan tugal mazmun bilan xarakterlanadi. Demak, mafkura – g‘oyaning manfaatlashgan mazmuni, shakli, qismi, tomoni, ko‘rinishi, qiyofasi va xarakteridir. Ayni paytda, mafkuraning amal qilishida odamlarning undagi g‘oyalarga bo‘lgan ishonch – e’tiqodi muhim o‘rin tutadi. Bu holda mafkurani tavsiflovchi asosiy omillar: a) kishilarning talab, ehtiyoj – manfaatlari va ularni qondirish usul – vosita, mexanizmlari; b) g‘oyalarga bo‘lgan ishonch – e’tiqodning namoyon bo‘lishidir<sup>3</sup>.

Bizning fikrimizcha, aynan mustaqillik o‘zlikni anglashning bosh omili sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 13-moddasida belgilab qo‘yilganidek, “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”<sup>4</sup>.

Ayni paytda shuni alohida ta’kidlash lozimki, o‘zlikni anglash Sharq va G‘arbda o‘zining rivojlanish tarixiga ega, masalan Sharq allomalari Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Aziziddin Nasafiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalar o‘zlikni anglashni inson ma’naviy kamoloti, mehnatga munosabati va Ollohga muhabbat bilan bog‘laydilar. Masalan, Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida yozishicha, odamlardagi ruhiy birlik, ya’ni odamlar orasidagi muayyan bog‘lanish, birinchidan, ular o‘rtasidagi mehr-oqibat kelishuviga asoslanadi, uning zamirida qabila, urug‘ munosabatlari yotadi, chunki ular bir ajdoddan tarqalgan<sup>5</sup>. Ikkinchidan, odamlar o‘rtasidagi ruhiy

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. –6-b.

<sup>3</sup> Мамашокиров С., Тогаев Ш. Эркин ва фаровон ҳаёт қурилишининг ғоявий-мафкуравий масалалари. –Тошкент: Маънавият, 2007. – 10-б.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. –6-b.

<sup>5</sup> Абӯ Наср Форобиј. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: А.Қодирӣ номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1993. –72-б.

bog‘lanish ularning xulq-atvori, tabiat, fe’li va tilining umumiyligiga tayanadi. Allomaning xalqlarning o‘ziga xos jihatlari haqidagi fikrlari muayyan xalqlardagi o‘ziga xos ruhiy xususiyatlarni va o‘zligini tushunib yetishga xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniy turli xalqlar urf-odati, marosimlari, e’tiqodini o‘rganishda qiyoslash metodidan foydalanadi. Natijada “xalqlarning milliy xususiyatlari-psixologiyasining shakllanishi tarixiy va tabiiy jarayondir”<sup>6</sup>, degan fikrga keladi.

Abu Ali ibn Sino alohida olingan inson yoki insonlar xulq-atvori, milliy xususiyati va shunga mos ruhiyatining shakllanish jarayonini tabiiy ruh, tabiiy quvvatlar bilan bog‘laydi. Tabiiy ruh, uningcha, yaxshi hidli narsalar tomon intiladi, ular bilan quvvatlanadi va ulardan oziqlanadi. Tabiiy quvvatlar esa, shubhasiz, tabiiy ruhdan kuch oladi<sup>7</sup>. Naqshbandiy “dil ba yoru, dast ba kor” deb mehnatni va Olloho ni ulug‘lagan, bu g‘oya esa, imon butligi vijdon sofligini ta’minlash vositasidir.

Yangi O‘zbekistonda milliy g‘oya va mafkura xalqni birlashtiruvchi kuch, yoshlar dunyoqarashida ertangi kunga ishonch ruhini shakllantiruvchi omil sifatida ijtimoiy-ma’naviy zaruratga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida qayd etilganidek, “...milliy o‘zligimizni anglash, vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, uni turli mafkuraviy qarashlardan xoli baholash, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani rivojlantirishimiz zarur”<sup>8</sup>.

**2. Bugungi kunda dunyoda kechayotgan mafkuraviy jarayonlar, ayovsiz raqobat muhitida milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitishga qo‘yilayotgan talablar.** O‘zbekistonning milliy g‘oyasi mustahkam, tubi asrlar qa’riga borib yetuvchi ma’naviyat asosiga quriladi. So‘nggi yillarda dunyoning turli mintaqasi va davlatlarida sodir bo‘layotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, internet tizimi, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko‘p hollarda ayrim buzg‘unchi kuchlar qo‘lida turli soxta, zararli g‘oya va mafkuralarni targ‘ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganligini ko‘rsatmoqda.

Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar yemirilishiga, zo‘ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas’uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayolik kabi illatlar ildiz otishiga, odamzotning o‘z tarixiy, diniy, milliy-ma’naviy ildizlaridan uzilib qolishiga sabab bo‘lmoqda va jahondagi ko‘plab davlatlarda umumiyligiga tendensiyaga aylanib bormoqda.

<sup>6</sup> Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1968. – 58-б.

<sup>7</sup> Абу Али ибн Сино. Тиббий рисолалар. –Тошкент: Фан, 1987. –322-б.

<sup>8</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга йўллаган мурожаатномаси://Халқ сўзи, 2018 йил, 29 декабрь

Bunday murakkab sharoitda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrash, mustaqillikni asrashday, mustahkamlashday, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashday muhimdir.

Inson mohiyati aqlida, aqlning mohiyati esa xarakterda namoyon bo'ladi, degan edi buyuk mutafakirlardan biri. Demak, insonning insonligini ifoda etuvchi yagona mezon aql-idrok, ong va tafakkur darajasi bo'lsa, ularning mohiyatini olib beruvchi, miqyosi va ko'lamiga baho beruvchi bosh mezon xatti-harakati, hayotga va atrof-muhitga munosabati, o'z-o'zini boshqarishdagi ichki qudratdir. Ana shu ichki qudratga tayangan xalq Sharqning diyonat, ornomus, sharm-hayo kabi fazilatlarni asrlar mobaynida oliy qadriyat sifatida avaylab-asrab kelmoqda. Ularni milliy istiqlol g'oyasi orqali yoshlar ongi va qalbiga singdirishning ahamiyati nechog'li ekanligini anglash muhim. Bu har bir yoshga o'ziga xos mas'uliyat yuklaydi hamda shularga o'xshagan va shunga harakat qilayotgan yoshlarning yangi avlodi yetishib chiqishiga olib keladi.

XXI asrni axborot asri, axborot texnologiyalari asri deb atash tobora rasm bo'lmoqda. Chunki asrimizda inson eshitayotgan, ko'rayotgan barcha-barcha narsalar uning istaklarini, didini o'zgartirishga, fikriga ta'sir qilishga yo'naltirilgan. Hozirgi davrda inson ongi va qalbini egallash uchun kurash borayotgani hech kimga sir emas. Shuning uchun yot mafkuraviy ta'sirlarga qarshi kurashda uzilishlarga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bunday sharoitda begona mafkuralarning qo'poruvchi ta'siriga qarshi doimiy va uzlusiz aksiltarg'ibotni tashkil etish muhim sanaladi. Chunki bunday mafkuraviy kurashni nafaqat mamlakatimiz ichkarisida, balki xalqaro maydonda ham olib borish talab etiladi.

Yoshlarda mehnatga ishtiyoq uyg'otish, tirishqoq va serg'ayrat shaxsni tarbiyalash, shaxsni o'zi ustida qunt bilan ishlashga o'rgatish, unda o'ziga ishonchni qaror toptirishdan jamiyat ham manfaatdor bo'ladi. Shuningdek, milliy g'ururi baland, mas'uliyat va burch hissiga ega, intizomli, demokratiyani hayot tarziga aylantirgan, kelajagi o'z qo'lida ekaniga ishongan mustaqil shaxsni tarbiyalashga ustuvorlik berish zarur. Inson mafkurani hayotdan uzulib qolgan, begona va mavhum narsa sifatida tushunmasligi kerak. Milliy g'oyani oddiy va yurakka yaqin g'oyalar orqali singdirish, ya'ni milliy g'oyaning inson ongidan o'rin olishi bilan qanoatlanmay, balki uning qalbiga jo qilish zarur. Bu sohada amalga oshiriladigan ishlar o'zining samarasini berishi shubhasiz.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarning o'qitilishini yanada takomillashtirish zarurligining sabablaridan biri, millat son jihatidan kattami yoki kichikmi bundan qat'i nazar, uning real subekt, ma'lum moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchisi, iste'molchisi, boshqalarda uchramaydigan, o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini va o'zining mustaqil o'rniga ega bo'lishi kabi omillarni, ya'ni chinakam millat sifatidagi maqomini tiklash hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarilgan edi. Uni hal etish millat va davlatning kelajagi uchun amaliy ahamiyatga egadir.

Ma'naviy-mafkuraviy ishlarni milliy taraqqiyot tamoyillari va manfaatlari asosida (g'oyaviy-nazariy darajada) sistemali tashkil qilish zarurati shundaki:

**Birinchidan:** ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir;

**Ikkinchidan:** jamiyatni ma’naviy yangilashdan bosh maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish va komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millataro totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi ko‘p-ko‘p muhim masalalardan iborat.

**Uchinchidan:** ma’naviyatni rivojlantirish millat va davlatning kelajagi uchun amaliy ahamiyatga ega;

**To‘rtinchidan:** mustaqilikning uch tayanchi: mustaqil milliy siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma’naviyati bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning o‘zaro uyg‘un rivoji ta’min etilsagina, O‘zbekiston buyuk yurt sifatida jahon hamjamiyatidan o‘z munosib o‘rnini egallay oladi.

Masalaning yana bir tomoni borki, jamiyatda ma’naviy komillik mezoniga javob beradigan qarashlar shakllansa, inson va jamiyat ma’naviy barkamollik hamda ijtimoiy-iqtisodiy yuksaklikka erishadi.

Nazarimizda, agar milliy o‘zlikni anglash, huquqiy madaniyat, qonunlarga itoatkorlik, davlat tuzumiga hurmat, demokratik qadriyatlarga sodiqlik, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faollik bir tomondan jamiyat ma'rifiy taraqqiyot yo‘lidan borishini ta‘minlaydigan omil bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa, shaxs ma’naviy kamolotini yuzaga chiqaruvchi asosiy mezon hisoblanadi<sup>9</sup>.

Ma’naviy rivojlanish oqsagan joyda, ijtimoiy yangilanish, ijtimoiy taraqqiyot yuz bermaydi. Hatto, jamiyat o‘zining ilgari erishgan taraqqiyot darajasini ham saqlab qola olmaydi. Inqirozga uchrab, keskin orqaga ketadi<sup>10</sup>, deydi faylasuf olim A.Erkayev.

**3. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarning zamonaviy yo‘nalishlariga oid nazariy qarashlar, yetakchi konsepsiylar.** Sir emaski, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlangan jamiyatimizdagi ma’naviy-axloqiy yuksalish ishlarini jadallashtirishga bugungi kunda ham zarurat sezilmoqda. Bugun milliy g‘oya ijtimoiy taraqqiyot rivojiga qarab takomillashib, yangilanib, dolzarblashib yanayam bormoqda. Davr talabi bilan o‘rtaga tashlangan muayyan qoidalar o‘z vazifasini o‘tab bo‘lib, o‘rnini dolzarbroq boshqa xususiyatlarga bo‘shatib bermoqda. Endilikda auditoriyada yoshlarni milliy g‘oya va ma’naviy yetuklik ruhida tarbiyalash kechagi kundan ko‘ra yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarning zamonaviy yo‘nalishlarini aniqlab olish zarurati tug‘ilmoqda. Jumladan:

milliy g‘oya va ma’naviy tarbiyaning tub negizini tashkil etiuvchi ta’lim-tarbiyani tubdan isloh etish va uni modernizatsiyalashtirish;

o‘qituvchining pedagogik jarayondagi boshqaruvchanlik faoliyatiga yangicha talablarga moslashishi;

<sup>9</sup>Zamonov Z. O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida ma’naviy-axloqiy institutlarning o‘rnini/ siyos.fan.b.fals.dok.ilmiy daraj. ... diss. –T.: –180 b. –B 48.

<sup>10</sup>Erkayev A. Milliy g‘oya va ma’naviyat. –T.: “Ma’naviyat”, 2002. –B 186.

talaba yoshlarda izlash, kerakli bilimlarni mustaqil qidirib topish, axborot to‘plash va ularni ishlata bilish qobiliyatlarini shakllantirish va hk.

Shu o‘rinda jamiyatda ham bu borada o‘ziga xos ilg‘or qarashlar, yetakchi konsepsiyalar ilgari surilayotganligini ham ta’kidlash zarur. Xususan bu borada

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 8 apreldagi “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-5465-son Farmoyishi asosida bir qator mamlakatimizning yetuk olimlari tomonidan ilgari surilgan “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiysi”ning loyihasiga alohida to‘xtalish zarur.

Unda O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida xalqimizni birlashtiruvchi, ulug‘vor maqsadlarga safarbar etuvchi g‘oyani “Milliy yuksalish g‘oyasi” deb atash taklifi o‘rtaga tashlandi.

Konsepsiya loyihasida Milliy yuksalish g‘oyasining asosiy tamoyillari bayon qilinib, jumladan qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarini eng oliv qadriyat darajasiga ko‘tarish; oshkoraliq va fikrlar xilma-xilligiga rioya etish; shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari hamda mas‘uliyati uyg‘unligiga erishish; farovon hayot barpo etishga qaratilgan iqtisodiy omillar samaradorligini oshirish; milliy yuksalish g‘oyasini umummilliylar harakatga aylantirish jamiyatni harakatga keltiruvchi asosiy tamoyillar sifatida berildi.

Shuningdek, asosiy g‘oyalar sifatida quyidagi tushunchalar ilgari surildi:

- “Yagona Vatan tuyg‘usi”,
- “Adolat - qonun ustuvorligida”,
- “Xalq roziligi”,
- “Jaholatga qarshi ma‘rifat”,
- “Innovatsion taraqqiyot” .

Milliy yuksalish g‘oyasi O‘zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash va uni buyuk davlatga aylantirish haqidagi siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, falsafiy, ilmiy, ekologik, diniy, demografik tarixiy qarashlar yig‘indisi bo‘lib, O‘zbekiston xalqini istiqbolga yuksak ishonch, iymon-e’tiqod ruhida tarbiyalovchi g‘oyat qudratli ma’naviy qurol, g‘oyaviy omil hisoblanadi. Ana shu sababdan ham mamlakatimiz hududini mafkuralar poligoniga aylanishiga yo‘l qo‘ymay, O‘zbekiston xalqining ongi, dunyoqarashi, hayotga ijtimoiy munosabati, hatti-harakatlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirib, milliy yuksalish mafkurasini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish, bugungi kundagi muhim vazifadir. Buning yo‘li - odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning iymon-e’tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash. Ularning tafakkurida o‘zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirishdir.

Milliy yuksalish g‘oyasida mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan O‘zbekiston jamiyatining bugungi kuni, yangi taraqqiyot bosqichining maqsad-muddaolarini yaqqol va yaxlit ifodalangan. Soha olimlari qayd etishayotganidek, “yuksalish” tushunchasi falsafiy ma’noda muayyan xalq yoki davlat o‘z

taraqqiyotining bir davridan ikkinchi davriga o‘tishi yoki jamiyatdagi umrini o‘tab bo‘lgan tushuncha va tamoyillar, amaliy faoliyat mezonlari, ba’zi tartib-qoidalar hamda eskirgan ijtimoiy munosabatlarning tayanch paradigmalarini zamonaviy talablar asosida isloh etish va rivojlanishning yangi bosqichiga erishish jarayonini ifodalaydi. Insoniyatning ko‘p asrlik tajribasiga ko‘ra, har bir mamlakatning bu jahbada tanlagan islohotlar strategiyasi o‘ziga xos bo‘lib, boshqa bir davlatning yuksalishi uchun aynan mos kelmaydi”.

“Ayni paytda, ushbu sohada ham umumiylar qonuniyatlar, asosiy paradigmalar va ustuvor tamoyillar shakllangan. Shu ma’noda qadimgi dunyoning dono faylasuflaridan biri Konfutsiyning “Yuksalish – ezgu maqsad, barqarorlik – unga erishishning shart-sharoiti, islohotlar esa uni ta’minalashning asosiy vositasidir” degan fikri har qanday yangi taraqqiyot davriga o‘tishning mazmun-mohiyatini lo‘nda ifodalaydi”<sup>11</sup>.

Xo‘sh, islohot o‘zi nima? Islohot – bu ijtimoiy hayotning biron-bir tomoni (tartiblar, idoralar, muassasalar)ni o‘zgartirish, qaytadan tuzishdir. Islohot rasman – har qanday mazmundagi yangilikni joriy etish hisoblansada, aslidai islohot deyilganda ko‘p yoki oz darajadagi ilg‘or qayta o‘zgartirish nazarda tutiladi. “Biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘yan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz”<sup>12</sup>, dedi mamlakatimiz Prezidenti o‘zining Oliy Majlisga yo‘llagan navbatdagi murojaatnomasida.

Har bir xalq qonida milliy mafkuraning ilk ildizlari yashaydi. El-u xalqni bir bayroq ostida birlashtiradigan g‘oya esa ana shu jon tomirlardan oziqlanadi.

Milliy tafakkur tirik ekan, jamiyatda oldinga siljish, o‘zaro birdamlik, mushtarak maqsad yo‘lida adolatli kurash ham bo‘ladi. Chunki umummilliy mafkuragini jamiyat a’zolarini birlashtirish vazifasini bajarishi allaqachon o‘z isbotini topgan.

Shu jihatdan olib qaraganda, bugun O‘zbekiston uyg‘onish ostonasida turibdi. Ortga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mustaqillik g‘oyasi, milliy mafkura bizga tog‘dek tayanch bo‘ldi. Xalqimiz o‘zining asriy orzusiga erishgach, endi o‘zining mustaqil taraqqiyot yo‘lini belgilab olishi o‘ta muhim ijtimoiy-siyosiy, o‘z navbatida ma’naviy zaruratga aylandi.

Biroq qanchalik achchiq bo‘lmasin, xalqimiz uzoq yillar faqat balandparvoz shiorlardan iborat g‘oyaviy hayotni ham yashab o‘tdi. Biz bong urgan baxtli va farovon jamiyat haqidagi orzularning ko‘pi muallaq qolgan edi. Pirovardida Istiqlolga yetib, buyuk dovondan o‘tgan xalq uchun yangi va munosib g‘oya juda zarur ekanligi oydinlashdi.

Bugungi kunda ayrimlar “xalqimizga milliy mafkura kerakmi?” degan nojoiz savolni juda ko‘p berishmoqda. Milliy g‘oya, milliy mafkura hamma vaqt, hamma davrda, har bir jamiyat uchun kerak bo‘lgan, bundan keyin ham

<sup>11</sup> Назаров К. Янги Ўзбекистон феномени:// <https://uzlidep.uz/news-of-party/5273>.

<sup>12</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ва халқига Мурожаатномаси. “Халқ сўзи” газетаси. 2020 йил 30 декабрь, №276(7778).

shunday bo‘ladi. Shu boisdan ham O‘zbekiston o‘zining bugungi va yaqin istiqboldagi hayoti uchun “Milliy yuksalishdan – milliy taraqqiyot sari” g‘oyasini tanlab, dadil odimlab bormoqda.

Dunyoda hech kimdan kam bo‘lмаган, kechagidan ulug‘vor maqsadlar bilan oldinga intilayotgan yurt odamlari o‘з taqdirini Vatan taqdiri bilan uyg‘un ko‘ra olishi, shaxsiy va umummilliy manfaatlarni birlashtira olishi milliy mafkuraning shakllanishida muhim va tayanch nuqtadir.

Shu o‘rinda, qariyb bir asrdan ortiq davr silsilalarini yodga oladigan bo‘lsak, ma’rifatparvar jadidlarimiz orzu qilgan, kurashib, intilib o‘tgan timsol aynan yangi O‘zbekiston g‘oyasi edi. Aslida “jadic” so‘zi “yangi” degan ma’noni anglatadi. Jadidchilik harakatining mohiyati milliy o‘zlik va milliy ma’rifat asosida bunyod etilgan yangi Vatan qurish, dunyoga ma’naviy-ma’rifiy porloq nigoh bilan qaraydigan yangi xalqni tarbiyalashdek ulug‘vor maqsadga qaratilgan edi. Bugun davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev boshlab bergen yangi O‘zbekistonni yaratish, yurt yelkasini ezib kelgan kechagi og‘riqlardan qutulib, butunlay yangicha hayot barpo etish maqsadi aynan jadidlarimizning ulug‘vor sa'y-harakatlari bilan mushtarak deb ayta olamiz. Zotan, jadidlarimiz boshlab bergen ulug‘ yo‘l bardavomdir, uni davom ettirishga har bir yosh, har bir yurtdoshimiz qodir bo‘lmog‘i kerak.

Bundan anglashiladiki, jadidlar o‘lмаган, ularning timsoli mayoq bo‘lib porlab turibdi, fidoyi zotlar boshlab qo‘ygan milliy mafkura davom etadi. Vatan va xalq birligiga, milliy taraqqiyotga asoslanga tamoyillarga qayta jon kirdi.

Bugun mamlakatda amalga oshirilgan izchil o‘zgarish va yangilanishlar, hayotbaxsh islohotlarni, ularning samarasidan bahramand bo‘lib yashayotgan yangi avlod ham, umuman, har bir vatandoshimiz ham jadic bo‘ladi, islohotlarga yelkadosh, suyanch bo‘ladi.

Milliy g‘oya mamlakat xalqining ma’naviy-ruhiy qudrati, g‘urur-iftixori, ezgu orzu-intilishlari, ulug‘vor manfaatlarini o‘zida aks ettiradigan va shu yo‘lda jamiyat a‘zolarini birlashtiradigan, buyuk ishlarga safarbar etadigan kuch-quvvat manbai ekan, u jamiyat tasavvurida millatning tarixi, bugungi kuni va kelajak taraqqiyotini uyg‘unlashtirib, muttasil rivojlanib boradigan eng muhim tushuncha va tamoyillar tizimi sifatida gavdalanadi. Sog‘lom fikrlaydigan har bir insonda o‘z eliga, millatiga jonkuyar bo‘lish, uning yutuqlaridan faxrlanish, muammolariga befarq bo‘lmaslikka chorlaydigan qudrat ham milliy g‘oya, demak.

Milliy g‘oya inson, xalq va jamiyat hayotiga chuqur kirib boradigan ta’sirchan omil sifatida jamiyatning bosh maqsadini ifoda etadi. Shu bois bugun mamlakatimiz va xorij olimlari tomonidan milliy goyaga oid nazariy qarashlar, konsepsiylar ilgari sorilmoqda.

Jumladan, “Milliy g‘oya” tushunchasiga mamlakatimiz faylasuf olimlari tomonidan tayyorlangan “Falsafa: qomusiy lug‘at”ida “millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va

maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g‘oya shakli”<sup>13</sup> degan ta’rif berilgan bo‘lsa, “Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati”da ushbu tushuncha “muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui. U millatning o’tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini, maqsadlarini ifodalaydi”<sup>14</sup> deb ta’riflangan. Shuningdek, “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” konsepsiyasida milliy g‘oyaga shunday ta’rif berilgan: “inson va jamiyat hayotiga ma’no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir”<sup>15</sup>. Keltirilgan har uchala manbada ushbu tushunchaga yuklangan ma’no mohiyatan bir-biriga yaqinligini ko‘rish mumkin. Ayni paytda bu yaqinlik mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini to‘laroq anglashimizda muayyan ma’noda qo‘l keladi ham.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, XX asr oxiri, XXI asr boshlaridan aksariyat xorij manbalarida, xususan, lug‘atlarida “milliy g‘oya” tushunchasiga alohida e’tibor qaratilishi ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Rossiyada nashr etilgan zamonaviy falsafiy lug‘atda “milliy g‘oya” tushunchasi “milliy o‘zlikni anglashning zamondan oldingi mavjudligida tizimli umumlashtirilishi” deb ta’riflanadi. Ushbu lug‘atda yuklanishicha, milliy g‘oya “Ko‘pincha ijtimoiy-falsafiy yoki ijtimoiy-siyosiy matnlar, san’at asarlari ko‘rinishida taqdim etiladi. Milliy g‘oyaning mohiyati xalq etnosining mavjudligi muammosini tashkil qiladi”<sup>16</sup>. Nazarimizda ushbu ta’rifda milliy g‘oyaning mazmun-mohiyati muayyan ma’noda ochib berilgan. Chunki, bizning fikrimizcha, milliy g‘oya har bir insonning o‘zini anglashi jarayonida shakllana boshlaydi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi esa uning o‘zini anglashidan boshlanadi.

Professor S.Otamuratovning fikricha, “Milliy g‘oya – milliy ongни уйғотувчи, millatning o‘zligini anglatuvchi, o‘ziga xoslikka, mentalitetga “qiyoғa” baxsh etuvchi, milliy ruhiyat, g‘urur, iftixor, e’tiqod va ma’sullik tuyg‘ularini shakllantiruvchi fikrdir”<sup>17</sup>. Xorijlik tadqiqotchilardan biri V. Y. Xotinetsning fikricha, milliy g‘oya “o‘z xalqiga tegishli odamlar birligini anglash”<sup>18</sup>ga yaqindan yordam beradi. Ushbu fikrlarga qo‘shilgan holda, “milliy g‘oya” tushunchasining ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan keng ma’noga ega ekanligini qayd etish lozim.

Professor I.Ergashev fikricha, “Milliy g‘oya jamiyatimiz o’tmishini bugungi kun va istiqbol bilan bog‘lab turadi, fuqarolarni mushtarak maqsad va manfaatlar yo‘lida bir-birlariga hamjihat, hamkor bo‘lib yashashga undaydi.

<sup>13</sup> Фалсафа: қомусий лугат. –Тошкент: “Шарқ” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004. –271-б.

<sup>14</sup> Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли лугати. – Тошкент: Faфур Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – 215-б.

<sup>15</sup> Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамоилилар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. –9-б.

<sup>16</sup> Каранг: Современный философский словарь / под ред. В. Е. Кемерова. Лондон Франкфурт-на-Майне-Париж-Люксембург-М.-Минск: Панпринт, 1998, с. 557. (таржима муаллифники).

<sup>17</sup> Отамуратов С. Миллий ривожланиш фалсафаси. –Тошкент: Академия, 2005. –24-б.

<sup>18</sup> Хотинец В. Ю. Этническое самосознание / В. Ю. Хотинец. СПб.: Алетейя, 2000. – с.17-18. (таржима муаллифники).

Ayrim shaxs, guruh manfaati va maqsadlari bilan birga ijtimoiy umummilliy manfaatlar va maqsadlar birligidan ogoh etadi”<sup>19</sup>.

Muayyan g‘oyaning milliy g‘oya sifatida maydonga chiqishi millatning mavjud holati bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki ana shu negizga tayangan holdagina u millatning qisqa yoki uzoq vaqtida erishishi lozim bo‘lgan maqsad-muddaolari va mo‘ljallarini to‘g‘ri ifodalay olishi mumkin.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarning o‘ziga xos xususiyatlarini izohlang.
2. Ma’naviy-mafkuraviy ishlarni milliy taraqqiyot tamoyillari va manfaatlari asosida (g‘oyaviy-nazariy darajada) sistemali tashkil qilish zaruratini siz qanday tushunasiz?
3. Madaniy-ma’rifiy yuksaklik deganda nimani tushunasiz?
4. Insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik tushunchalarining mohiyatini izohlab bering.
5. Milliy qadriyatlarga muhabbat deganda nimani tushunasiz?

### MAVZUNI MUSTAHKAMLASH BO‘YICHA SAVOLLAR: (savolga mos javobni aniqlang)

T/p	Savollar	Javoblar
<b>1</b>	... – mustaqil milliy siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma’naviyati.	<b>Mustaqilikning uch tayanchi</b>
<b>2</b>	... – insoniyatning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudrati.	<b>Ma’naviyat</b>
<b>3</b>	... – millatning o‘zligini anglashning nazariy asosi	<b>Milliy g‘oya</b>
<b>4</b>	... – ma’rifati, aqli, tarixi bilan XX asrda ustuvor bo‘lib turgan mamlakat.	<b>Yaponiya</b>
<b>5</b>	... – yoshlar dunyoqarashida ertangi kunga ishonch ruhini shakllantiruvchi omil	<b>Milliy g‘oya va mafkura</b>
<b>6</b>	... – jtimoiy hayotning biron-bir tomoni (tartiblar, idoralar, muassasalar)ni o‘zgartirish, qaytadan tuzish.	<b>Islohot</b>

### MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI

1. Abdulla .Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida “... bir fayzi ma’naviydurki, u fayzdan hissasini olmak har bir kishining muqaddas vazifasidir” deganida qaysi tushunchani nazarda tutadi?
  - A) Adolatni
  - V) Vatanparvarlikni

<sup>19</sup> Эргашев И. Ҳаётнинг ҳар они фалсафа. – Тошкент: Академия, 2011. –76-б.

- \*S) Sadoqatni
- D) Kamtarlikni

**2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo‘llagan qaysi murojaatnomasida milliy g‘oyani rivojlantirish masalasiga alohida to‘xtalib o‘tdi?**

- A) 2020 yil 29 dekabrdagi
- V) 2020 yil 24 yanvardagi
- S) 2017 yil 22 dekabrdagi
- \*D) 2018 yil 28 dekabrdagi

**3. Jumlanı to‘g‘ri davom ettiring... “Ma’naviyat insonga ...”**

- A) ona allasi, bobo-buvilarimiz o‘giti bilan singib kelgan
- \*V) ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan singib kelgan
- S) milliy an’ana va qadriyatlarimiz bilan singib kelgan
- D) ota-oná ibrati bilan singib kelgan

**4. Shaxslararo munosabatlarda millatning etnik birligini saqlashning muhim vositasi, bu ...**

- \*A) Milliy g‘oya va milliy o‘zlikni anglash
- V) Ma’naviyat
- S) Milliy an’ana va qadriyatlar
- D) Umuminsoniy qadriyatlar

**5. Qanday sharoitda inson va jamiyat ma’naviy barkamollik hamda ijtimoiy-iqtisodiy yuksaklikka erishadi?**

- A) jamiyatdaadolat qaror topsa
- V) jamiyatda tenghuquqlilik bo‘lsa
- \*S) jamiyatda ma’naviy komillik mezoniga javob beradigan qarashlar shakllansa
- D) jamiyatda milliy an’ana va qadriyatlar ustuvor bo‘lsa

**6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoyishi e’lon qilingan sana...**

- A) 2017 yil 7 fevral
- V) 2019 yil 3 may
- S) 2017 yil 28 iyul
- \*D) 2019 yil 8 aprel

**7. “Yuksalish – ezgu maqsad, barqarorlik – unga erishishning shart-sharoiti, islohotlar esa uni ta’minlashning asosiy vositasidir” – Ushbu fikr qaysi Sharq mutafakkiriga tegishli?**

- A) Alisher Navoiyga

\*Konfusiyga

S) Lao-sziga

D) Forobiyga

**8. Millatning o‘zligini anglashning nazariy asosi, bu –...**

\*A) milliy g‘oya

V) milliy yuksalish

S) ma’naviyat

D) ma’naviy yetuklik

**9. Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida odamlardagi ruhiy birlik, ya’ni odamlar orasidagi muayyan bog‘lanishning ilk asosini qaysi omil bilan bog‘laydi?**

A) ularning bir millatga mansubligi bilan

\*V) ularning bir ajdoddan tarqalganligi bilan

S) ularning bir hududda yashashi bilan

D) ularning ijtimoiy kelib chiqishi bilan

**10. Abu Rayhon Beruniy turli xalqlar urf-odati, marosimlari, e’tiqodini o‘rganishda qaysi metoddan foydalanadi?**

A) umumlashtirish metodidan

V) tahlil metodidan

\*S) qiyoslash metodidan

D) chog‘ishtirma metodidan

## **ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bochqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-son Qarori. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018-yil, 30-iyul.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. –6-b.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга йўллаган мурожаатномаси://Халқ сўзи, 2018 йил, 29 декабрь

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ва халқига Мурожаатномаси. “Халқ сўзи” газетаси. 2020 йил 30 декабрь, №276(7778).

5. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – 215-б.

6. Эргашев И. Ҳаётнинг ҳар они фалсафа. – Тошкент: Академия, 2011. –76-б.

7. Мамашокиров С., Тоғаев Ш. Эркин ва фаровон ҳаёт қурилишининг ғоявий-мафкуравий масалалари.

8. –Тошкент: Маънавият, 2007. – 10-б.

9. Отамуратов С. Миллий ривожланиш фалсафаси. –Тошкент: Академия, 2005. –24-б.
10. Фалсафа: қомусий луғат. –Тошкент: “Шарқ” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004. –271-б.
11. Erkayev A. Milliy g‘oya va ma’naviyat. –Т.: “Ma’naviyat”, 2002. –В 186.
12. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. –9-б.
13. Хотинец В. Ю. Этническое самосознание / В. Ю. Хотинец. СПб.: Алетейя, 2000. – с.17-18. (таржима муаллифники).
14. Современный философский словарь / под ред. В. Е. Кемерова. Лондон Франкфурт-на-Майне-Париж-Люксембург-М.-Минск: Панпринт, 1998, с. 557. (таржима муаллифники).
15. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. –72-б.
16. Авлоний Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. –Т.: Ўқитувчи, 1992, 38-бет.
17. Абу Али ибн Сино. Тиббий рисолалар. –Тошкент: Фан, 1987. –322-б.
18. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1968. – 58-б.
19. Назаров Қ. Янги Ўзбекистон феномени// <https://uzlidep.uz/news-of-party/5273>.
20. Zamonov Z. O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida ma’naviy-axloqiy institutlarning o‘rni/ siyos.fan.b.fals.dok.ilmiy daraj. ... diss. –Т.: –180 b. –В 48.
21. Otamurodov S. Globallashuv va miliy-ma’naviy xavfsizlik. –Т.: O‘zbekiston, 2013-yil.
22. Ma’naviyat va huquq dialektikasi. –Т.: TDPU, 2013-yil.
23. S.Ismoilov. “Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari” fanidan o‘quv-uslubiy majmua. –Guliston: 2015. –88 bet.
24. Konstitusiya va barkamol avlod tarbiyasi. –Т: “TURON-IQBOL”, 2013-yil.
25. Mamatqulov D.M. Mafkura tushunchasi, unda g‘oya va kategoriyalarning tutgan o‘rni. “Zamonaviy ta’lim” журнали. 2015, №11.
26. Eshboev T., Matbuotda maqolalar / Tinchlik va farovonlik garovi. “Xalq so‘zi”. №114.
27. Sobirova M.A., Zamonov Z.T., Niyozmatov A.B., Xo‘jayev M.O., Milliy g‘oya, ma’naviyatning pedagogik asoslari. O‘quv qo’llanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 206 b.

## **2-mavzu: MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIYAT TURKUMIGA KIRUVCHI FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH**

### **Reja:**

1. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv, kompetensiya tushunchasi.
2. Kommunikativlik va mafkuraviy kompetentlik.
3. Milliy va ma’naviyat turkumiga kiruvchi fanlar o‘qituvchisining kommunikativligi va mafkuraviy kompetentligi.

**Tayanch tushunchalar:** Milliy g‘oya, dars, dars jarayonlari, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, kompetensiyalarga asoslangan ta’lim, o‘qituvchining umummadaniy sifatlari, o‘qituvchining shaxsiy sifatlari pedagogning kasbiy kompetentligi, pedagogning g‘oyaviy kompetentligi, pedagogning mafkuraviy kompetentligi, pedagogning ma’naviy kompetentligi, imidj, o‘qituvchi imidji.

**1. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv, kompetensiya tushunchasi.** Hozirgi kunda ta’lim sohasida “kompetensiya”, “kompetensiyaviy yondashuv”, “kompetentlilik” tushunchalari faol qo’llana boshladи. Bu tushuncha Yevropada birinchi marta 1596 yilda Vikipediya lug‘atida ishlatilgan. Hozirda Vikipediya elektron lug‘atda “kompetensiya” tushunchasi “bu xodimning lavozim talablariga muvofiq ishlash qobiliyatidir”<sup>20</sup>, deya izohlangan.

Aytish joizki, lug‘atlarda ushbu so‘zlarning ma’nolari turlicha izohlanadi. Jumladan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da kompetensiya so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi:

“Kompetensiya-(lot. Sompetere- layoqatli, munosib bo‘lmoq). 1) Muayyan tashkilot yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjalarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat. 2) Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi”.<sup>18</sup>

Ruscha-o‘zbekcha tarjima lug‘atlarida esa bu so‘z quyidagicha sharhlanadi:

“Kompetensiya-1. Biror kishi yaxshi xabardor, omilkor bo‘lgan soha; 2. yur. huquq (vazifa, ish) doirasi.”;

“Kompetensiya-1. Biror kishi yaxshi xabardor bo‘lgan soha yoki masala; 2. Vakolat, huquq ixtiyor; Kompetentn/iy,-aya, oye,-ten, -tna-yetarli ma’lumotga ega bo‘lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, bilimdon, xabardor, omilkor; 2) asosli, e’tiborli, mo’tabar; 3) kompetensiaga, ya’ni huquqqa ega

<sup>20</sup> [www.wikipedia.org/wiki/Компетенция](http://www.wikipedia.org/wiki/Компетенция).

<sup>18</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 4-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллый энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. -267-бет.

bo‘lgan; vakolatli; **Kompetentnost**-chuqur bilimga egalik; chuqur bilimga asoslanganlik, asoslilik; xabardorlik, omilkorlik.”<sup>19</sup>

Berilgan izohlar ta’lim sohasida kompetensiya so‘zini layoqat, kompetentlikni esa layoqatlilik deb, **ta’limga kompetensiyaviy yondashuvni** egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim yo‘nalishi, deb tushunish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

**Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim** – egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim bo‘lib, talabalarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qiladi.

Kompetensiyalar 2 asosiy turga: tayanch va xususiy kompetensiyalarga bo‘linadi. **Tayanch kompetensiyalar** insonning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirisha olish, jamiyatda o‘z o‘rnini egallay olish, duch keladigan muammolarning yechimini hal eta olish, eng muhimi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘la olish ko‘nikma-malakalarini tarkib toptirishga qaratiladi. Shundan kelib chiqqan holda, u

### **1) kommunikativ kompetensiya:**

- jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun ona tilini (yoki boshqa bir tilni) mukammal o‘zlashtirish va muloqotda samarali foydalana olish;
- o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;
- ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;
- muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish va suhbatdoshini ishontira bilish;
- turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda konstruktiv qarorlarni qabul qila olish.

### **2) axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

- mavjud axborot manbalaridan (*internet, televizor, radio, telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.*) foydalana olish;
- media vositalardan kerakli axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishslash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta’minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish;
- ma’lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;
- kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish.

### **3) shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi:**

<sup>19</sup> Русча-ўзбекча лугат /ЎзССР Фанлар академияси А.С.Пушкин номли Тил ва адабиёт институти /1-том. – Т.: Ўзбек Совет Энциклопедияси, 1983. – Б.456.

- o‘zini shaxs sifatida muntazam rivojlantirib borish, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;
- hayoti davomida o‘qib-o‘rganish, bilimi, tajribasini mustaqil ravishda oshirib borish;
- o‘z hatti-harakatini adekvat baholash, o‘zini nazorat qila bilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lish;
- o‘qib-o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

**4) ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

- jamiyatda bo‘layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;
- o‘z fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish
- fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish;
- kasbiy mavqeining o‘sishiga intilishi orqali jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga sahovatli bo‘lish.

**5) umummadaniy kompetensiyalar**

- Vataniga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish;
- badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish;
- kiyinish, yurish-turish va muomala-muloqot yuritishda madaniy meyorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish;
- umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni bilish va e’zozlash;
- o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish;
- xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini asrab-avaylash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

**6) matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

- aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;
- shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda xisob-kitob bilan ish yuritish;
- kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va foydalanish;
- inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdarligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalana olish.

Bundan tashqari, ta’limda har bir o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida talabalarda, shu fanning o‘ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli **xususiy kompetensiyalar** ham shakllantiriladi.

Jumladan, milliy g‘oya va ma’naviyat turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishda talabalardan **ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, axborot bilan**

**ishlash kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi bilan birga sotsiokulturologik, pragmatik kompetensiyalarni egallashlari ham talab etiladi.**

**1. Sotsiokulturologik (ijtimoiy-madaniy) kompetensiyada** shu xalqning milliy xususiyatlarini bilgan holda yoki o‘z milliy an’analari bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini shakllantirish hamda so‘zlovchining kommunikativ maqsaddan kelib chiqqan muayyan nutqiy vaziyatga mos ifoda usulini tanlash imkoniyatini hosil qilish, ya’ni: o‘zbek tilidagi salomlashish, murojaat shakllari, muomala odobi meyorlarini ko‘zda tutadi. Ushbu layoqat talabalarni o‘z xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlari va ularni o‘zida aks ettirgan boy adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, ularni o‘qib o‘rganish, shundan kelib chiqib, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalarni, jahon milliy madaniyatiga hissa qo‘sghan o‘zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o‘rganish orqali shakllantiriladi.

**2. Pragmatik kompetensiya** milliy g‘oya va ma’naviyat turkumiga kiruvchi fanlar bo‘yicha kundalik hayotida egallagan bilim, ko‘nikmalari asosida mustaqil ravishda muloqotga kirisha olish qobiliyatini, kommunikativ vaziyatlarda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda takroran so‘rash, uzr so‘rash orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish, o‘zaro suhbatlashish, suhbatga qo‘shilish, egallangan bilimlarning amaliy imkoniyatlaridan o‘rinli foydalana olish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi.

Qayd etilgan kompetensiyalar ta’lim oluvchilarda shaxsiy, ma’naviy, ijtimoiy, kasbiy ko‘nikma-malakalarini tarkib toptirishga va egallagan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil qo‘llashga qaratilgan layoqatlarini shakllantirishga olib keladi .

Qayd etilgan kompetensiyalar ham *umumta’limiy maqsadni*, ham *tarbiyaviy maqsadni* ko‘zda tutadi hamda ta’lim oluvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil qo‘llashga qaratilgan **metakompetensiyalar** tarkib topishiga olib keladi. Biroq ko‘zda tutilgan provard natijaga erishish uchun har bir ta’lim bosqichi bitiruvchilar uchun belgilangan kompetensiyalarning meyoriy darajasi talablarini bajarilishini ta’minalash kerak bo‘ladi.

**Kommunikativlik va mafkuraviy kompetentlik.** Hozirga kunda shu narsa ravshanki, jahon miqyosida globallashuv jarayonlarining chuqurlashib borishi har bir davlat, millat va etnik guruh vakillariga, jumladan, yoshlar ongiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Bunda axborot oqimlarining tezlashuvi, ularni olish manbalarining turli-tumanligi har xil turdagи g‘oyalar, mafkuraviy va madaniy oqimlarning keng tarqalishiga sharoit yaratib bermoqda. Buning ustiga, yuqori malakali ishchi kuchini takror hosil qilishning eng asosiy va istiqbolli segmenti bo‘lgan oliy o‘quv yurtlari talabalarining turli xil axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatlariga egaligi ularni bunday oqimlarning salbiy ta’sirlaridan himoya qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Shu sababdan ham har bir oliy ta’lim muassasasi o‘z bitiruvchilarining kasbiy mahorati bilan birga ularning g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentliligini

shakllantirishga intilishi lozim bo‘lib, bunday dolzarb muammoni ijobiy darajada hal qilish OTM ning ta’lim muassasasi sifatidagi nufuzi ortishiga olib keladi.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, oliv ta’lim muassasalarini bitirib chiqayotgan bo‘lajak mutaxassislarini davlat va jamiyat hayotida hukmron bo‘lgan g‘oyalar hamda mafkuralarni ularning ongiga quruqqina singdirib qo‘ya qolish bilan yetuk mutaxassislarini tayyorlanishi mushkuldir. Aynan mana shuning uchun ham yetuk kasbiy malakaga, mahoratga va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan bo‘lg‘usi mutaxassis shakllanishi uchun uning g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentliginini yuzaga keltirish hamda bunday kompetentlilikni talaba ilk o‘qish davrini boshlaganidan to uning tugatgunigacha bo‘lgan davrda amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Endilikda mehnat bozori va ijtimoiy-iqtisodiy turmushdagi innovatsion o‘zgarishlar shaxsning ijtimoiy-kommunikativ kompetentligi shakllantirilganligi darajasiga asosiy urg‘u berib, bunday kompetentlilik tarkibida mutaxassislarining g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentliliği muhim o‘rin egallaydi.

Shaxsning g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentliliği – bu integral tavsifni o‘zida aks ettirib, uning atrofdagilar bilan g‘oyaviy va mafkuraviy masalalarda muloqotni ongli va to‘g‘ri tashkil eta olish, turli xil g‘oyaviy-mafkuraviy axborotlardan maqsadga muvofiq ravishda foydalana bilish ko‘nikmalarini egallaganligini o‘zida aks ettiradi.

Ilmiy hamjamiyatda hech kim shaxslarning g‘oyaviy va mafkuraviy tarbiyasi ustida ish olib borish zarur ekanligini inkor etmaydi, lekin bu boradagi ishlarni tashkil etish yoki bunday ishlarni yaxshilash ustida maxsus tarzda rejali asosda olib borilgan ishlarni ham derli uchramaydi. Shuning uchun ham shaxsning, ayniqsa bo‘lajak mutaxassislar sanaluvchi talaba-yoshlarning g‘oyaviy-mafkuraviy tayyorgarligi borasida shart-sharoitlarni yaratish zarurdir.

Talabalarda g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ko‘rib chiqilayotgan obektning tashqi xususiyatlarini o‘z ichiga oluvchi va ta’lim subektining ichki dunyosi bilan o‘zaro aloqadorliklariga yo‘naltirilgan majmuaviy masalalardan iboratdir.

Talabalarning g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentliligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini belgilashda quyidagilarni hisobga olish zarur bo‘ladi:

- jamiyatning kasbiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, g‘oyaviy va mafkuraviy masalalarni professional tarzda hal qila bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan ishchi-xodimlarga bo‘lgan ehtiyoji;

- bo‘lajak mutaxassislar sifatida talabalarni g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyalashning o‘ziga xosliklari;

- shaxsning g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentliligini shakllantirish jarayonida olib boriladigan turli faoliyat yo‘nalishlarining o‘ziga xos xususiyatlari.

Pedagog-olimlarning ishlarida kompetentlikning pedagogik nuqtai nazaridan keng ma’noda sinchiqlab o‘rganib borish imkonini beradigan turli

jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingen va o'rganib chiilgan. S.YE.Shishkov tomonidan kompetentlikning quyidagi ta'riflari keltirilgan:

- o'qish-o'rganish tufayli egallangan bilimlar, tajriba, qadriyatlar va moyilliklarga asoslangan umumiylayotganlar;
- bilim va vaziyatlar o'rtasidagi olaqani o'rnata bilish qobiliyati, ularni hal etishning muammoga mos keladigan yo'lini topish.

Ta'lim va tarbiyaning mukammal bo'lishi uchun ta'lim sifati va samaradorligini oshirish muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda shubhasiz pedagogik mahorat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda kasbiy pedagogik kompetentlilik pedagogik mahoratning asosi ekanligini unutmaslik kerak.

Sohaning yetakchi olimlari qayd etayotganlaridek, kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarining egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir.

O'z o'rnida kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faoliyati ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholashni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi.

Talabalarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentliligini rivojlantirishning yuqorida qayd etib o'tilgan pedagogik-psixologik xususiyatlari yaxlit tizim shaklida namoyon bo'ladi. Shunga bog'liq holda bu xususiyatlarni alohida, bir-biridan ajralgan ko'rinishda olib qarash kerak emas va mana shunday qilib ular bir-birini to'ldiruvchi tavsifga ega bo'ladi.

**3.Milliy va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlar o'qituvchisining kommunikativligi va mafkuraviy kompetentligi.** Har tomonlama yetuk, barkamol avlod tarbiyasi eng avvalo ta'lim tizimi xodimlaridan yuksak kasbiy kompetentlikni talab etadi. Xo'sh, "ta'lim tizimi xodimlarining yuksak kasbiy kompetentligi" deganda nimalar nazarda tutiladi?

Qayd etilganidek, hozirgi kunda ta'lim sohasida "kompetensiya", "kompetensiyaviy yondashuv", "kompetentlilik" tushunchalari faol qo'llanila boshlandi.

Pedagogning kasbiy kompetentligi pedagogik funksiyalarni muayyan tarixiy davrda qabul qilingan meyorlar, standartlar va talablarga muvofiq bajarishga tayyorlik va qodirlikni belgilovchi kasbiy-shaxsiy xususiyatlarni ifoda etadi.

Kasbiy kompetentlik o'z faoliyat sohasida erkin mo'ljal olishni ko'zda tutadi. Kompetentlik uch muhim omil bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishni nazarda tutadi:

- boshqa odamlar bilan munosabatlar madaniyatini;
- o‘z faoliyat sohasi haqida axborot olish ko‘nikmasini;
- o‘quv axborotini boshqalarga berish ko‘nikmasini.

Shunday qilib, kasbiy-pedagogik kompetentlik quyidagi asosiy komponentlar bilan tavsiflanadi:

- shaxsiy-insoniyljal;
- pedagogik jarayonni tizimli idrok etish;
- o‘z faoliyati sohasida mo‘ljal ola bilish;
- pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirganlik.

Hozirgi murakkab davr, shiddatli jarayonlar ta’lim tizimi xodimlaridan yuksak kasbiy kompetentlik bilan bir qatorda mafkuraviy kompetentlikka ham ega bo‘lishni talab etadi. Chunki barchamizga ayon bo‘lgan bir haqiqat borki, u ham bo‘lsa, ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim tizimi xodimlarining g‘oyaviy bilimdonligi va mafkuraviy kompetentligini shakllantirmasdan turib yosh avlodni ma’naviy va g‘oyaviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalab bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘z paytida qayd etganidek: “Tarbiyachi – ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘stirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak”<sup>21</sup>.

Demak, “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishida dars berayotgan, umuman, ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor o‘qituvchilarning mafkuraviy kompetentliliqi deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- o‘zining mustaqil fikriga, g‘oyasiga ega bo‘lish;
- jamiyatda bo‘layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarning mohiyatini anglab yetish bilan bir qatorda ularga daxldorlikni his etish va shu jarayonlarda faol ishtirop etish;
- Vataniga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish;
  - o‘z fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish, fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish;
- jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga sahovatli bo‘lish;
  - o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish;
  - xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini asrab-avaylash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash;
  - fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurasha olish fazilatiga ega bo‘lish

---

<sup>21</sup>Каримов И.А. Буюк келажагимизнинг хукукий кафолати. – Т.: Шарқ нашриёт-матбаа концерни Бош таҳририяти, 1993, 27-28-бет.

Pedagogning mafkuraviy kompetentligi zamirida uning kasbiy ma'naviyatga ega bo'lish qobiliyati yotadi. Kasbiy ma'naviyat – insonning ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha bo'lib, u kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Insonning kasbga bo'lgan intilishi, qiziqishi, uni tashkil etish yo'lidagi fidoyiligi – kasbiy ma'naviyatdir.

Kasbiy ma'naviyat – ma'rifat va madaniyat bilan bog'liq. Kasbiy ma'naviyat talaba-yoshlarimizda tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o'qish, o'rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. Kasbiy ma'naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Kasbiy ma'naviyatli odam yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini izlab topadi, muomala qilish madaniyatini egallaydi, har bir masalaga insof vaadolat nuqtai nazaridan yondashadi. Vijdon nima, yolg'on va rost nima, or – nomus nima, halol va harom nima – bularning hammasini bir-biridan ajrata oladi, hayotda yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadi, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradi.

Bu yo'nalişda ta'lim tizimi xodimlariga bir qator talablar qo'yilmoqdaki, ularni amalga oshirish uchun tizimning har bir xodimidan alohida mas'uliyat talab etiladi.

Shulardan kelib chiqqan holda oliy ta'lim tizimida milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitishda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim:

1. O'sib kelayotgan yosh avlodda vatanparvarlik tuyg'usini tarkib toptirish, ularda millat ruhi, g'ururi hamda Vatanga sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish.

2. Ularning qalbida milliy urf-odatlar, an'analarga hurmat hissini shakllantirish.

3. Har bir yoshning ma'rifatli va madaniyatli shaxs etib tarbiyalashga individual yondashish.

4. Buyuk Sharq mutafakkirlarining jahon svilizatsiyasi va madaniyatiga qo'shgan hissasi hamda ta'lim-tarbiyada erishgan yutuqlari bilan talaba yoshlarni muntazam tanishtirib borish orqali, ularda ajdodlarga munosib voris bo'lishga intilish tuyg'usini tarbiyalash.

6. Islom dini ta'limoti va undagi ma'naviy-ma'rifiy tushunchalarni talabalarning yosh xususiyati va intelluktal salohiyatiga qarab, dastur va darsliklarga kiritish.

7. Har bir talabaning mustaqil fikrlashiga va ijodiy izlanishiga yo'l ochib berish.

8. Talabalarda intizomlilik hamda qat'iyatilik ruhini barqarorlashtirish.

9. G'oyalarning yosh avlod hayotida tutgan o'rnini to'g'ri baholay olishlariga yo'naltirish.

10. G'oyalarning ichki turi mavjudligi borasida, vayronkor g'oyalarning xususiyati, shakl-shamoyili, kirib kelish yo'llari, ta'sir etish usullari va vositalari haqida muntazam ravishda o'quvchilarga ma'lumotlar berib borish.

11.Talaba yoshlarda vayronkor g‘oyalarga qarshi kurasha olish ko‘nikmalarini shakllantirib borish va hk.

Bugungi kun, bugungi davr voqeliklarita’lim tizimi xodimlaridan milliy mafkura sohasida nazariy-metodologik bilimga hamda amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi zarurligini taqozo etadi. Chunki, ta’lim sifatini yaxshilash bevosita o‘qituvchilarga bog‘liq.

### **Nazorat savollari**

1. Kompetensiya nima va ushbu tushuncha ilk marta qachon, qaysi lug‘atda ishlatilgan?
2. Ta’limga kompetensiyaviy yondashuv tushunchasining mohiyatini izohlang...
3. Milliy g‘oya va ma’naviyat turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishda talabalardan qanday kompetensiyalarni egallashlari talab etiladi?
4. Ma’lumki, kompetentlik uch muhim omil bilan bog‘liq bo‘lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Ular qaysilar?
5. “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishida dars berayotgan professor o‘qituvchilarning mafkuraviy kompetentliligi deganda nimalar nazarda tutiladi?
6. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitishda qaysi masalalarga alohida e’tibor qaratish lozim?

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH BO‘YICHA SAVOLLAR:** **(savolga mos javobni aniqlang)**

<b>T/p</b>	<b>Savollar</b>	<b>Javoblar</b>
<b>1</b>	Shaxsning biror-bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilishi...	Kompetensiya
<b>2</b>	Kasbiy faoliyatda subektlar bilan muloqotga kirisha olish...	Ijtimoiy kompetentlik
<b>3</b>	O‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish...	Kommunikativ kompetensiya
<b>4</b>	Ma’lumotlar bazasini yarata olish, asosiyalarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish...	Axborot bilan ishlash kompetensiyasi
<b>5</b>	Hayoti davomida o‘qib-o‘rganish, bilimi, tajribasini mustaqil ravishda oshirib borish...	Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi
<b>6</b>	Kasbiy mavqeining o‘sishiga intilishi orqali jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga sahovatli bo‘lish...	Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

## MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI

**1. Egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim yo'nalishi...**

- A) Ta'lim va tarbiya uyg'unligi
- B) Darsga tarbiyaviy yondashuv
- \*S) Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv
- D) Ma'rifat

**2.Pedagogik funksiyalarini muayyan tarixiy davrda qabul qilingan meyorlar, standartlar va talablarga muvofiq bajarishga tayyorlik va qodirlikni belgilovchi kasbiy-shaxsiy xususiyatlarni ifoda etuvchi tushuncha...**

- A) Pedagogning mafkuraviy kompetentligi
- B) Pedagogning g'oyaviy kompetentligi
- \*S) Pedagogning kasbiy kompetentligi
- D) Pedagogning ma'naviy kompetentligi

**3.O'zining mustaqil fikriga, g'oyasiga ega bo'lish, jamiyatda bo'layotgan voqeja, hodisa va jarayonlarning mohiyatini anglab yetish bilan bir qatorda ularga daxldorlikni his etish, shu jarayonlarda faol ishtirok etish kabi bir qator qazilatlarga ega bo'lish**

- A) Pedagogning kasbiy kompetentligi
- B) Pedagogning g'oyaviy kompetentligi
- \*S) Pedagogning mafkuraviy kompetentligi
- D) Pedagogning ma'naviy kompetentligi

**4. Inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan quollantirishga yo'naltirilgan jarayon...**

- A) Ma'naviy tarbiya
- B) Axloqiy tarbiya
- \*S) Mafkuraviy tarbiya
- D) Estetik tarbiya

**5. "Innovatsiya" tushunchasi ilk marta qachon paydo bo'ldi?**

- \*A) XIX asrda
- V) XX asrda
- S) XVII asrda
- D) XVIII asrda

**6. Shu xalqning milliy xususiyatlarini bilgan holda yoki o'z milliy an'analari bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini shakllantirish hamda so'zlovchining kommunikativ maqsaddan kelib**

**chiqqan muayyan nutqiy vaziyatga mos ifoda usulini tanlash imkoniyatini hosil qilish, bu ...**

- A) Kommunikativ kompetensiya
- V) Umummadaniy kompetensiya
- S) Pragmatik kompetensiya
- \*D) Sotsiokulturologik kompetensiya

**7. Qaysi kompetensiya “o uzr so‘rash orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish” qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi?**

- A) Kommunikativ kompetensiya
- V) Umummadaniy kompetensiya
- \*S) Pragmatik kompetensiya
- D) Sotsiokulturologik kompetensiya

**8. Badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish, bu ...**

- A) Kommunikativ kompetensiya
- \*V) Umummadaniy kompetensiya
- S) Pragmatik kompetensiya
- D) Sotsiokulturologik kompetensiya

**9. Kompetensiyalar necha asosiy turga bo‘linadi?**

- \*A) ikki
- V) uch
- S) to‘rt
- D) besh

**10. Pedagogning mafkuraviy kompetentligi zamirida...**

- A) uning kommunikativ kompetensiyaviyligi yotadi
- \*V) uning kasbiy ma’naviyatga ega bo‘lish qobiliyati yotadi.
- S) pragmatik kompetensiyalarini egallaganlik darajasi mujassam
- D) umummadaniy kompetensiyalarini egallaganlik darajasi mujassam

## **ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidgi nutqi. 2020 yil, 23 sentabr.// <https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/23/bmt/>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so‘zi, 2020 yil 25 yanvar.
4. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori// Toshkent, Xalq so‘zi. 2019 yil. № 78.

5. Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 8 apreldagi “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №5465 –son Farmoyishi//Xalq so‘zi, 2019 yil, 9 aprel.

6. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiysi” loyihasi //

<https://regulation.gov.uz/uz/document/10558>.

8. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyyati, 1993.

9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

10. Ruscha-o‘zbekcha lug‘at /O‘zSSR Fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomli Til va adabiyot instituti /1-tom. . – T.: O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi, 1983.

11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4–жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашириёти, 2008. -267-бет.

12. Xoliqov I., Sobirova M ., Masharipova G. “Ma’naviyat asoslari” fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish. – T.:TDPU, 2013.

13. Urazova M.B., Eshpulatov SH.N. Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU, 2014. 6,5 b.t.

14. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g‘oya turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: RTM, 2017.

15. Murodxujayev X.A. Innovatsion rivojlanish – bu kelajak poydevori. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi sayti.

URL: <https://stat.uz/uz/press-sluzhba/novosti-gks/3581-innovatsion-rivozhanish-bu-kelazhak-poydevori>.

16. Leijten, J. Innovation policy and internationalrelations: directions for EU diplomacy. Eur J Futures Res(2019) 7: 4. [https://doi.org/10.1186/s40309-019-0156-1 page 3.](https://doi.org/10.1186/s40309-019-0156-1)

17. Terabayt.uz Internet saytidan ma’lumotlar.

18. [www.wikipedia.org/wiki/Kompetensiya](http://www.wikipedia.org/wiki/Kompetensiya).

### **3-mavzu: MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIYAT ASOSLARI FANLARINI O‘QITISHNING TURLI SHAKL, METOD, VOSITALARI, TA’LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

#### **Reja:**

1. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalari hamda xususiy metodikalar.

2. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda turli shakl, metod va vositalardan foydalanish.

3. Yangicha yondashuv va innovatsiyalarni joriy qilish orqali ta’lim jarayonini takomillashtirish.

**Tayanch tushunchalar:** O‘qitish shakllari, an’anaviy va noan’anaviy ta’lim modellari, metod, ta’lim metodlari, interfaol ta’lim metodlari, an’anaviy dars, noan’anaviy dars, metodik usullar, “klaster”, “aqliy hujum”, “tanqidiy fikrlash”, “ajurli arra”, “menyular”, “debatlar”, “sinkveyn”, “insert”, “zig-zag”, “qarorlar shajarasi”, o‘rganish metodlari, bilimlarni egallah, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim vositalari, o‘qu adabiyotlari,

**1. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalari hamda xususiy metodikalar.** Jamiyatni axborotlashtirishdagi eng muhim yo‘nalishlardan biri ta’lim tizimini axborotlashtirishdir. Bu esa jamiyatni axborotlashtirish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshishining asosiy shartidir. Ta’limni axborotlashtirish ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo’llash, uning faol metod va vositalaridan foydalanish, ta’lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini jadallashtirish, uning sifat va samaradorligini oshirish, yoshlarni axborotlashgan jamiyatning faol ishtirokchisi etib tarbiyalash masalalarini o‘z ichiga qamrab oladi.

**O‘rganish metodlari** bilim, malaka va ko‘nikmalarni ijodiy egallahga hamda metodik va g‘oyaviy - siyosiy e’tiqodlarni ishlab chiqishga qaratilgan talabalarning ilmiy bilish faoliyati usuli sifatida belgilanadi.

O‘qitish metodi “o‘qitishning maqsadi – mazmuni, metodi, shakli, usullari” tizimida muhim o‘rin egallaydi. Metod deganda, ta’limda maqsadga erishish, masalalarni hal qilish yo‘llari, usullari tushuniladi. O‘qitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi. **Usul** metodning unsuri bo‘lib, uning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo’llanadi va alohida qadam hisoblanadi.

**O‘qitish metodi** – murakkab, ko‘p qirrali, ko‘p sifatlarga ea bo‘lgan ta’limdir. O‘qitish metodida o‘qitishning obektiv qonuniyatları, maqsadları, mazmuni, tamoyillari, shakllari o‘z aksini topadi. Metodlar boshqa didaktik kategoriyalarga dialektik bog‘liq va biri boshqalarini taqozo qiladi, ya’ni o‘qitishning maqsadi, mazmuni, shakli hosilasi sifatida metodlar didaktik kategoriyalarga aks ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qitish metodlarining ko‘p o‘lchovliligi ularning ko‘plab tasnifini keltirib chiqaradi.

O‘qitish metodlari tasnifi – muayyan belgilar asosida tartibga solingan tizimdir. Eng asoslangan o‘qitish metodlari tavsiflariga quyidagilar kiradi:

1.An’anaviy metod.

Hozirgi davrda ulardan beshtasi inobatga olinadi: amaliy, ko‘rgazmali, ifodali, kitob bilan ishslash va video metodlar.

2. Maqsadiga ko‘ra metodlar tasnifi

\*bilimlarni egallah;

\* malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish;

\*bilimlarni qo‘llash;

\*ijodiy faoliyat;

\*mustahkamlash metodlari;

\*bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish metodlari.

3. Idrok etish – bilish faoliyati xarakteriga ko‘ra metodlar tasnifi:

\* tushuntirish – illyustrativ ( axborot – retseptiv). Ularning xarakterli xususiyatlari; bilimlar “tayyor holda” tavsiya etiladi; bu bilimlarni idrok qilish tashkil etiladi; bilimlar idrok (retsepsiya) qilinadi va tushunib olinadi, xotiraga joylashtiriladi;

\*reproduktiv metod: bilimlar tayyor holda tavsiya etiladi, bilim nafaqat bayon qilinadi, balki tushuntiriladi; bilimlar ongli o‘zlashtiriladi; ularning tushunilishi va eslab qolinishiga erishiladi hamda bilimlarning mustahkamligi tez – tez takrorlash yo‘li bilan ta’milanadi.

\*muammoli bayon qilish metodi;

\*qisman ijodiy (yevristik) metod. Bilim tayyor holda tavsiya etilmaydi, balki u mustaqil ravishda egallanadi; yangi bilimlarni qidirish, izlash tashkil etiladi; bilish vazifalari bo‘yicha mustaqil fikr yuritiladi, muammoli vazifalar yaratiladi va hal qilinadi;

\* tadqiqiy metod. Bunda muammo belgilab olinadi, muammoning tadqiqoti jarayonida bilim egallanadi.

4. Didaktik maqsadi bo‘yicha (T.I.Shukina, I.T. Ogorodnikov) qo‘yidagilar farqlanadi:

\* ilk bilimlarni o‘zlashtirish metodlari;

\* egallangan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish metodlari.

5. Olinishi zarur bo‘lgan natijani oldindan taxmin qilish (maqsadni amalga oshirishga erishish);

6. Ta’lim jarayonining yaxlitligini ta’minalash;

7. Muntazam tahlil qilib borish;

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitish metodikasida o‘qitish va o‘rganish metodlari quyidagi guruhlardan iborat keng tarqalgan tasniflarga borib taqaladi.

1.Bilimlarni berish, idrok etish va o‘zlashtirish hamda e’tiqodni shakllantirishni ta’minlovchi metodlar. Metodlarning bu guruhiha ma’ruza, talabalarning mustaqil ishlari, mustaqil tahsil olish bo‘yicha ishlar, maslahatlar, ko‘rsatma berish, ommaviy axborot, programmalashtirilgan materiallarni idrok etish va boshqalar kiradi.

2. Bilimlarni tadbiq etish va mustahkamlash, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish hamda e’tiqodni chuqurlashtirish metodlari. Bu guruhiha seminar, amaliy va laborotoriya mashg‘ulotlari, nazorat ishlarini bajarish, o‘quv va pedagogik amaliyot kiradi.

3. Bilimlar, e’tiqodlarni shakllantirish va talabalarning kasbiy tayyorgarligini aniqlash metodlari. Bu o‘quv jarayonining reyting baholari, suhbat o‘tkazish, kurs va diplom ishlari loyihalari hamda davlat attestatsiyasi natijalarini baholashdir.

Didaktikaga oid adabiyotlarda o‘qitish metodlarining quyidagi bog‘liqliklari qayd qilinadi:

-birinchidan, o‘quv mashg‘ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog‘liq;

-ikkinchidan, bayon qilinadigan materialning xarakteriga bog‘liq;

-uchinchidan, ta’lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog‘liq;

-to‘rtinchidan, o‘quv jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog‘liq;

-beshinchidan, oliy o‘quv yurti yoki kafedraning sharoitlariga bog‘liq;

-oltinchidan, o‘quv jarayonining moddiy – texnik ta’moti bilan bog‘liq;

-yettinchidan, o‘qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o‘quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o‘qituvchining hozirgi zamon metodlari bo‘yicha bilimlariga bog‘liq.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasidagi oliy ta’limni isloh qilishning dolzarb vazifasi talabalarning o‘quv – bilish faoliyatini jonlantirish, o‘quv jarayoniga yangi texnologiyalarni tadbiq etishga xizmat qiladigan o‘qitishning shakl va metodlarini takomillashtirishdan iborat.

O‘qituvchining pedagogik faoliyati tavsifida olimlar, odatda quyidagi komponentlarni farqlaydilar:

- tashkilotchilik
- ilmiy bilish;
- kommunikativlik.

(ingl. - sinov birinchi bor.

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari ta’limining **eng muhim xususiyatlardan biri** o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishdir. O‘quvchi-talabalarning jonli bilish faoliyati uchun quyidagilar xosdir: bilimga va o‘quv maqsadlariga bo‘lgan chuqur, har tomonlama qiziqish; aqliy, jismoniy va intellektual kuchlarni faol namoyon qilish; diqqat, xotira, iroda va boshqa ruhiy sifatlarni to‘plash. Bilish faolligi jarayonida quyidagi 4 shakl ajratiladi:

•reproduktiv faollik. Bunda tayyor bilimlarni egallashga tayyorgarlik, qizg‘in qayta ishlash faoliyati amal qiladi;

•applikativ faollik – unga qizg‘in tanlov-yaratish faoliyatiga tayyorlik xarakterlidir;

•izohlashdagi faollik – ma’no-mazmunni qizg‘in izohlash, tushuntirish va ochib berishga tayyorlik;

•produktiv (samarali) faollik – unga yangilikni qizg‘in ijod qilishga tayyorlik xarakterlidir.

Hech kimga sir emaski, axborot – kommunikatsion texnologiyalar hayotimizning barcha jahbalariga kirib kelmoqda. Texnologiyalarga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil qilishda **yana bir vosita** elektron darsliklar muhim o‘rin tutadi. Ma’lumki, elektron darslik deganda, ilgarilari oddiy matn fayli tushunilar edi. Hozirgi kunda elektron darslik deganda, oddiy elektron nusxa emas, balki rangli rasmlar, turli xil testlar, jadvallar, lavhalar, ovoz, video –

ko‘rgazmalarnig zamonaviy tartibi, texnikasi tushuniladi. Shuning uchun ham elektron darsliklar masofaviy o‘qitish tizimining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

**2. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda turli shakl, metod va vositalardan foydalanish.** Talaba – yoshlarga milliy g‘oya tushunchalari uning bosh va asosiy g‘oyalari tushunchalarini singdirish borasida interfaol uslublarni qo‘llashning bir qancha turlari mavjud. Bunday uslublardan foydalanish o‘qituvchidan o‘z ustida ijodiy ishslash, yangiliklardan doimiy xabardor bo‘lish bilan birga talaba – yoshlar bilan yanada yaqinroq muloqotda bo‘lish va talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Shunday usullardan biri “klaster” usulidir. Bu usulning asosiy vazifasi talabalardan o‘rganilayotgan pedagogik jarayonni, yangi mavzuni qismlarga ajratish orqali o‘zlashtirishga yo‘naltiradi. Mavzu boyicha fikr –mulohazalarni erkin bayon etish malakalarini oshirishga yordam beradi. Bu usulda biror – bir mavzu yoki matn tanlanib talaba - yoshlarning diqqatini aynan shu mavzuga qaratish yuzasidan markazga yoziladi. Talabalar mavzuga oid barcha fikrlarini markazining atrofiga joylashtiradi. Firlar bayon etilgandan keyin har bir fikr yoki so‘zlarni toifalarga ajratib chiqadilar: Milliy istiqlol g‘oyasi: bosh g‘oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish; asosiy g‘oyalari – vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo hamjihatlik, diniy bag‘rikenglik.

Amaliy mashg‘ulot yoki seminar darsi davomida talabalarga topshiriq berish mumkin: milliy g‘oyaning asosiy g‘oyalariga doir fikrlaringizni aytib bering. Shunga doir xalq maqollarini keltiring va ma’nosini izohlang.

Mavzu bo‘yicha klaster usulidan foydalanish oxir – oqibatda yangi bilimlarni o‘zlashtirish fikrlarning turli – tumanligini yaxlitlash asosida umumiy natija qo‘lga kiritiladi.

Klaster usulidan foydalanish uchun guruh talabalarini kichik ijodiy guruhlarga ajratib amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har bir guruhda mavzuga oid darslik, o‘quv qo‘llanmalari, ma’ruza matnlari, mavzuga oid kartochka va manbalar bo‘lishi mumkin.

Klaster usulidan foydalanishda quyidagilarga e’tibor beriladi.

- 1) Kichik guruhlar soniga qarab chizma qog‘ozlari doska taxtasiga osib qoyiladi va milliy g‘oya tushunchasi o‘qituvchi tomonidan yoziladi.
- 2) Mavzuga oid fikrlar qog‘ozga yoziladi.
- 3) Asosiy tushuncha va fikrlar o‘rtasidagi bog‘liqlik chizmada ko‘rsatiladi.
- 4) Talabalarning firlari umumlashtiriladi va yakuniy xulosa chiqariladi.
- 5) Dars jarayonida o‘qituvchi talabalarning faoliyatini nazorat qilib boradi, ularning mavzuga oid tushunchalarini baholaydi.

Biz klaster usuli xususida to‘xtaldik.

Dars jarayonida interfaol usullarning “aqliy hujum”, “tanqidiy fikrlash”, “ajurli arra”, “menyular”, “debatlar”, “sinkveyn”, “insert”, “zig-zag”, “qarorlar shajarasi” kabi turlaridan va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali samarali natijalarga erishiladi.

Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi.

Bu borada o'qituvchi darslarda foydalanishi mumkin bo'lgan ayrim pedagogik vositalar: ta'kidlovchi savollar bunda o'quvchining bergan savoliga qarab, uning fikrlash darajasini aniqlash mumkin. O'qituvchi alternativ, o'quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali auditoriyada ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o'xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Savollar berish bilan birgalikda o'quvchilarda, fikrlashga majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi. Hozirgi paytda ta'lim sohasida keng qo'llanib kelinayotgan interfaol metod va usullarni sanab o'tamiz bular: aqliy hujum, klasterlar, mustaqil xat, Venn diagrammasi, harakatli ma'ruza, muammoli ta'lim, muammoli vaziyatlar, "bilaman, bilishni istayman, bilib oldim" (BBB), insert, bahs-munozara, sinkveyn, qadriyatlar tizimi, debat, hamkorlikda izlanish, argumentlangan esse va boshqalar.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishda turli vositalardan unumli foydalanish tavsiya etiladi.

O'qitish vositalari bu moddiy olam, tevarak-atrof va tabiiy obektlar, shuningdek, inson tomonidan o'quv – tarbiyaviy jarayonda axborot olish, pedagog va o'qituvchilar faoliyatida o'z oldiga qo'ygan va o'qitish, tarbiyalash va rivojlanish uchun qo'llaniladigan qurol sifatida yaratilgan sun'iy obektlar hisoblanadi.

O'qitish vositalari, shu bilan birga, ularning mazmun, uslub va tashkiliy shakllari loyixalashtirilgan o'quv – tarbiyaviy jarayonning tarkibiy bo'limlaridan biridir. Mazkur holat har bir o'quv – tarbiya muassasasining eng muhim tarkibiy xususiyatidir. Milliy g'oya ta'limi jarayonida qo'llaniladigan turli – xil moddiy o'qitish vositalari hozirgi paytda joriy qilingan tizimlarning harakatlanishi, qayta qurilishi va bir-biri bilan bog'liqligini nazarda tutgan holda boshqa tarkibiy qismlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, yangi axborot texnologiya vositalarining yetarli darajada keng qo'llanilishi malum jarayonni loyihalashtiradi, tadqiqot olib borishda an'anaviy dars bilan chegaralanib qolmasdan, ta'lim oluvchilarning turli mustaqil faoliyatini (yakka tartibda yoki guruh bo'lib) nazarda tutgan uslublarni o'qitish mazmuni va maqsadi u yoki bu o'zgartirishlarni inobatga olib kiritish samarali natijalar beradi. Aynan yangi vositalar va texnikaviy yutuqlarning paydo bo'lishi o'quv dasturlariga ta'lim.

O'qitish vositalari orasida oxirgi paytda eng ko'p qo'llanilayotgan vositalar – bu plakatlardir. Plakatlar - quyidagi talablarga javob berishi shart.

- plakatning mazmuni o'rganilayotgan mavzuga oid bo'lishi;
- plakatda ifoda etilgan chizma yetarli darajada katta va uzoqdan ham ko'ra olish imkonini berishi kerak;

- plakatdagagi obektalr tabiiy holatlarida ko‘rsatishi shart;
- plakatda tasvirlangan chizmalarining qismlari mashtab mutanosibli asosida berilishi kerak;
- eng e’tiborga loyiq qismlar alohida (boshqa) rang bilan ajratib ko‘rsatilishi lozim.

Ekran va ekran – tovushlik o‘qitish vositalari. Hozirgi zamonda juda keng tarqalgan o‘qitish vositalaridandir. Bu o‘qitish vositalariga qo‘yilgan talablar eng avvalo ularning mavzuga oid, ikkinchidan, sifatli bo‘lishidir.

Diopozitiv (slayd) – bu harakatlanmaydigan o‘qitish ekran vositasi. Diopozitiv aks etgan chizma va rasmlar odatda plakatdagidan yaxshi qabul qilinadi.

Diopozitiv – bu juda qulay o‘qitish vositasi, chunki o‘qituvchi yordamida materialning qismini, yoki bir kadrni alohida ko‘rsatish mumkin. Qar bir kadr to‘liq bir informatsiyaga ega. Diofilm ham harakatlanmaydigan ekran vositasidir. Bu qo‘llanmalarning uslubiy g‘oyasi mualliflarining kadrlar ketma-ketligini taminlanishiga e’tibor berishlaridir. Kadrlarning ketma-ketligi o‘zgarsa informatsiyaning qabul qilinishida mazmun buzilishi ro‘y beradi. Diafilmlarni qo‘llashdagi qiyinchilik – ulardagi axborotning ko‘pligi va ularning qabul qilib olish uchun vaqtning yetmasligidir.

Bu qiyinchilik darsda diofilmlarning ayrim fragmmmentlarini (bo‘laklarini) ko‘rsatish orqali yengillashtiriladi.

Transporantlar – bu ham harakatlanmaydigan ekran qo‘llanmasi. Transporantlarning grafproyektor yordamida ko‘rsatilishi va xonani qorong‘ilatish shart emasligi bu o‘qitish vositasining muhim jihatidir. Transporantlar auditoriya doskasi ham o‘rnini bosadigan vositadir. O‘qituvchi ta’lim oluvchilarga yuzlangan holda, o‘tilayotgan mavzu yoki chizmalarini ekranga proyeksiya qilish orqali tushuntirishi mumkin. Bu orada o‘qituvchi chizmalar mazmuniga kerakli o‘zgartirish yoki to‘ldirishlar kiritish mumkin. Bundan tashqari transporantlarda informatsiyani taqdim etishda bir kadrning o‘rniga ikkinchisiga qo‘yish juda qulaydir. Transparantlar odatda 6-8 kadr dan iborat seriyalardan iborat bo‘lib, u o‘qituvchi tomonidan ham yasalishi mumkin.

O‘quv kinofilmlari yaqindagina eng samarali o‘qitish vositasi deb e’tirof etilgandi. Uning ko‘rgazmalikligi quyidagi juda boy didaktik imkoniyatlaridan kelib chiqadi; katta hajmli informatsiyaning ixchamlantirilishi, fan va texnika tarixiga sayohat qilish, jarayonni tezlanish yoki sekinlashtirish, nihoyat, uni to‘xtatish, lirivintikatsiya yoki modellashtirish, zavoddagi moslama va apparatlarining ichki tuzilishini kuzatish. Yangi texnologiyasini boshqarish bilan tanishtirish, fan arboblari faoliyati haqida ma’lumot berish ilmiy – tekshirish laboratoriyasiga «kirish», turli vazifalarni qo‘yish, ularni ijobiylashtirish hal etish, hamda qiyoslash o‘quv filmlari yordamida amalga oshar edi.

So‘nggi yillarda o‘quv filmlari ishlab chiqarilmay qo‘ydi. Ularni o‘rnini o‘quv video yozuvi, informatsiyani aks ettiruvchi ekran – tovushli vositalari kino, radio, televiziniya, videofilm va diopozitivlarni.

Video yozuvini qancha lozim bo‘lsa, shuncha marta takrorlanish mumkin, vaqt ko‘rsatkichi asosida kerakli informatsiyani yozish mumkin. Videokamera yordamida yozib olish juda katta imkoniyatni ochib beradi. Kelajakda o‘qituvchilarni tayyorlash va ular malakasini oshirish maqsadiga xizmat qiluvchi video yozuvi tizimlari chiqiladi.

O‘quv materialini mustaqil o‘rganishda o‘quv yozuvlari katta ahamiyatga ega.

O‘quv asboblari, moslamalari, laboratoriya asoslari tizimning o‘ta ahamiyatli bo‘lgan qismini tashkil qiladi. Eng, avvalo, u yoki bu asbob nima uchun xizmat qilishini aniqlaylik.

**3. Yangicha yondashuv va innovatsiyalarini joriy qilish orqali ta’lim jarayonini takomillashtirish.** Bugungi kunda “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishidagi fanlar o‘qituvchilarining dars jarayonlarida va ma’naviy-ma’rifiy ishlarda yangicha yondashuv va innovatsiyalar, yangiliklarga intilish talab etiladi.

Aslida innovatsiya insoniyat yaralgandan buyon mavjud. “Bizning ajodolarimiz ham jamiyat hayotini o‘zgartirgan yoki oldinga siljitan, o‘zlar yashagan davrga xos yoki bazaviy innovatsiyalar bilan shug‘ullangan. Masalan, eramizdan avvalgi 1200 yillarda temir quyish texnologiyasining yaratilishi insoniyat tarixida juda katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan”<sup>22</sup>. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan rennesans davrida ajodolarimiz tomonidan yaratilgan kashfiyotlar hamda ilmiy farazlar O‘zbekiston kelgusida dunyo tamadduniga navbatdagi salmoqli hissasini qo‘sishini kafolatlaydi. Shuning uchun ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash orqali ushbu jabhada yuzaga kelgan bo‘shliqni to‘ldirish vazifasi bugungi kunning dolzarb masalasi.

Ma’lumki, so‘nggi 50 yil ichida axborot texnologiyalari sohasida ulkan innovatsion kashfiyotlar yaratildi. Texnologik kashfiyotlar axborotni uzatish va qayta ishlash xarajatlarini keskin pasaytirdi. Shu bilan birga, axborotning tezkorligi va ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada ko‘tarildi. Ushbu tendensiya juda tez sur’atlarda rivojlandi. Bundan tashqari, ushbu sohadagi yutuqlar globallashuv jarayonini rivojlantirib, odamlarni muayyan tarmoqlar ichida birlashishiga, ya’ni tarmoq jamiyatlari, tarmoqlashgan ma’lumotlar bazalarini yuzaga keltirdi<sup>23</sup>. Shu nuqtai nazardan ham bugungi kunda dars jarayonlarida va auditoriyadan tashqarida talaba yoshlarning innovatsion salohiyatini oshirish, buning uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangiliklarga intilish, shuningdek, barcha sohalarda raqobatni kuchaytirish davrida innovatsiyalarini rivojlantirishning keng yo‘llarini ochish jamiyat

<sup>22</sup> Муродхужаев Х.А. Инновацион ривожланиш – бу келажак пойдевори. Ўзбекистон Республикаси давлат статистикаси қўмитаси сайти. URL: <https://stat.uz/uz/press-sluzhba/novosti-gks/3581-innovatsion-rivozhlanish-bu-kelazhak-poydevori>.

<sup>23</sup> Leijten, J. Innovation policy and internationalrelations: directions for EU diplomacy. Eur J Futures Res (2019) 7: 4. <https://doi.org/10.1186/s40309-019-0156-1> page 3

taraqqiyotining muhim omilidir. Insoniyatning butun tarixiy yo‘lidagi taraqqiyoti jamiyatning barcha a’zolari, ayniqsa, yoshlarning ta’lim va tashabbuskorligi bilan belgilanadi. Kelgusi yillarda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiysi jamiyatni innovatsion rivojlanish turiga, innovatsion inson kapitalini shakllantirishga o‘tishni nazarda tutadi. Inson kapitalining sifatli va miqdoriy xususiyatlariga bog‘liq asosiy elementi – yoshlar. Yoshlarni yaqin kelajakda jamiyat suyanishi mumkin bo‘lgan, ijtimoiy yo‘nalishlarni ishlab chiqadigan ijtimoiy-demografik guruh deb qarashimiz mumkin. Zamonaviy tadqiqotchilar yosh avlodni innovatsiya sohasi uchun muhim bo‘lgan dinamizm (faoliyat), tadbirkorlik, tashabbuskorlik kabi fazilatlarga egaligini ta’kidlab, yosh avlodning innovatsion salohiyatini davlat taraqqiyoti yo‘lida rivojlantirish va “joriy etish” zarurligini aytib o‘tmoqdalar. Bugungi kunda innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tar ekanmiz, eng avvalo, investitsiyalarni jamiyatni yetakchi kuchi sifatida namoyon bo‘layotgan yoshlarga joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: “Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo‘lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo‘lmaydi. Bu sohadagi o‘zgarishlarni xalqimizga keng targ‘ib etmasak, odamlarda ko‘nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fantexnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo‘lmaymiz. Shuning uchun ushbu faoliyatni zamon talablari darajasida rivojlantirish yangi vazirlik, qolaversa, ushbu markazning asosiy vazifasi bo‘lishi kerak”, deb ta’kidlashi ham bejiz emas.

Prezidentimiz tomonidan barcha hududlarda ilmiy salohiyatni tiklash va hududlarni kompleks rivojlantirishda intellektual salohiyatdan samarali foydalanish, yoshlarni innovatsion fikrlashga, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga faol jalb etish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab qo‘ymoqda.

Shunday ekan, avvalo, “innovatsiya” tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tsak. Innovatsiya bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o‘sish samaradorligini ta’minalash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziysi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi.

“Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” so‘zidan olingan bo‘lib, “yangilanish” (yoki “o‘zgarish”), “in” qo‘srimchasi esa lotinchadan “yo‘nalishida” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “Innovatio” ko‘rinishida tarjima qilsak – “o‘zgarishlar yo‘nalishida” deb izohlanadi.

“Innovation” tushunchasi ilk marta XIX asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo‘ldi. “Innovatsiya” tushunchasi o‘zining yangi hayotini “innovation kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o‘zgarishlar natijasida XX asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900 yillarda iqtisodda ushbu terminni ilmiy muomalaga kiritgan dastlabki olimlardan biri edi<sup>24</sup>.

---

<sup>24</sup> Terabayt.uz Интернет сайтидан маълумотлар.

Innovatsiyaga har qanday turdag'i yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yanglish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi.

Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi:

- ilm-fan – bu ma'lum mablag'larni bilimlar va g'oyalarga aylantirish;
- innovatsiyalar – bu bilimlar va g'oyalarni mablag'larga aylantirishdir;
- ixtiro – bu yangi konsepsiyanı yaratish demak;
- innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, innovatsiyalar mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, intellektual salohiyatni takomillashtirish, yangi sanoat hamda moliyaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish sohasi faoliyatini kengaytirish, mahsulot sifatini oshirish, uning eksportbopligini ta'minlashga doir vazifalarni hal etishda muhim o'rinni tutar ekan.

Ilg'or xorijiy tajriba, jahon ilm-fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal innovatsion rivojlantirish hamda ushbu jarayonlarga yoshlarni keng jalb qilish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi hamda 2022-2026 yillar uchun mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning **taraqqiyot strategiyasida** ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyatga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institatlari huzurida ilmiy-eksperimental ixtisoslashtirilgan laboratoriylar, yuqori texnologiyalar markazlari va texnoparklar tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi.

### **Nazorat savollari**

1. Interfaol ta'lim metodlari deganda nimani tushunasiz?
2. An'anaviy ta'lim modelining afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
3. Noan'anaviy ta'lim modelining afzalliklari va kamchiliklari Nimalardan iborat?
4. O'rganish metodlari haqida tushuncha bering...
- 5.O'qitish metodlari deganda nimani tushunasiz?
- 6.Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari ta'limida qo'llaniladigan qanday o'qitish metodlarini bilasiz?

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH BO'YICHA SAVOLLAR:** **(savolga mos javobni aniqlang)**

T/R	SAVOLLAR	JAVOBLAR
-----	----------	----------

<b>1</b>	Muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jarayoni ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta’lim modeli...	An’anaviy dars
<b>2</b>	Motivasiyaning yuqori darajada bo‘lishi, o‘tilgan materialning yaxshi eslab qolinishini ta’minlovchi ta’lim modeli...	Noan’anaviy dars
<b>3</b>	Ta’lim jarayonida qo‘llanilib, uning samarasini ta’minlovchi usullar majmui...	Ta’lim metodlari
<b>4</b>	Barcha ta’lim oluvchilar anglash jarayoniga faol jalg qilinib, ularga o‘zlarining bilim va ko‘nikmalarini qayta tekshirish, tushunish va sezish imkoniyati berilishi...	Interfaol ta’lim
<b>5</b>	Bilim, malaka va ko‘nikmalarni ijodiy egallahsga hamda metodik va g‘oyaviy - siyosiy e’tiqodlarni ishlab chiqishga qaratilgan talabalarining ilmiy bilish faoliyati usuli...	O‘qitish metodlari
<b>6</b>	O‘qitishning mazmun, uslub va tashkiliy shakllari loyixalashtirilgan o‘quv – tarbiyaviy jarayonning tarkibiy bo‘limlaridan biri...	O‘qitish vositalari

### MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI

**1. Mavzu bo‘yicha bu usuldan foydalanish oxir – oqibatda yangi bilimlarni o‘zlashtirish fikrlarning turli – tumanligini yaxlitlash asosida umumiyl natija qo‘lga kiritiladi. Gap qaysi interfaol ta’lim usuli xususida boryapti?**

**\*A) Klaster usuli**

- V) Zig zag usuli
- S) Idrok xaritasi usuli
- D) Insert usuli

**2. Quyida berilganlardan qaysi biri o‘qitishning maqsadiga ko‘ra metodlar tasnifiga xos ?**

- A) ilk bilimlarni o‘zlashtirish
- \*V) malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish
- S) kitob bilan ishslash
- D) tushuntirish

**3. Quyida berilganlardan qaysi biri idrok etish – bilish faoliyati xarakteriga ko‘ra metodlar tasnifiga xos?**

- A) ilk bilimlarni o‘zlashtirish
- V) malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish

S) kitob bilan ishslash

\*D) tushuntirish

**4. Quyida berilganlardan qaysi biri didaktik maqsadiga ko‘ra metodlar tasnifiga xos?**

\*A) ilk bilimlarni o‘zlashtirish

V) malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish

S) kitob bilan ishslash

D) tushuntirish

**5. Test sinovlari ilk marta qachon qo‘llanilgan?**

A) 1860 yil

V) 1874 yil

\*S) 1864 yil

D) 1865 yil

**6. Bunda muammo belgilab olinadi, muammoning tadqiqoti jarayonida bilim egallanadi. Bu ...**

A) qisman ijodiy (yevristik) metod

\*V) tadqiqiy metod

S) muammoli bayon qilish metodi

D) reproduktiv metod

**7. Bunda bilim nafaqat bayon qilinadi, balki tushuntiriladi. Bu ..**

A) qisman ijodiy (yevristik) metod

V) tadqiqiy metod

S) muammoli bayon qilish metodi

\*D) reproduktiv metod

**8. Bunda bilish vazifalari bo‘yicha mustaqil fikr yuritiladi, muammoli vazifalar yaratiladi va hal qilinadi. Bu ..**

\*A) qisman ijodiy (yevristik) metod

V) tadqiqiy metod

S) muammoli bayon qilish metodi

D) reproduktiv metod

**9. Bunda bilimlar idrok (retsepsiya) qilinadi va tushunib olinadi. Bu ..**

A) qisman ijodiy (yevristik) metod

\*V) illyustrativ ( axborot – retseptiv) metodi

S) muammoli bayon qilish metodi

D) reproduktiv metod

**10. Bunda tayyor bilimlarni egallahashga tayyorgarlik, qizg'in qayta ishlash faoliyati amal qiladi. Bu...**

- A) produktiv (samarali) faollik
- \*V) reproduktiv faollik
- S) applikativ faollik
- D) izohlashdagi faollik

### **ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidgi nutqi. 2020 yil, 23 sentabr.// <https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/23/bmt/>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so'zi, 2020 yil 25 yanvar.
4. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.// Toshkent, Xalq so'zi. 2019 yil. 4 may. № 78.
5. Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 8 apreldagi “O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi №5465–son Farmoyishi//Xalq so'zi, 2019 yil, 9 aprel.
6. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini loyihasi // <https://regulation.gov.uz/uz/document/10558>.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
8. Otamurodov S. Milliy g'oya - milliy tiklanish manbai. – “Tarix, mustaqillik, milliy g'oya”. -T.: Akademiya, 2000.
9. Qoraboyeva Z.T. Pedagogik texnologiyalar. Ma'ruzalar matni. – T.: Fan, 2006.
10. Zamonaviy dars. / Mas'ul muharrir SH. Shomansurov – T.: A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti, 2007.
11. Ma'naviyat assosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
12. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: T.: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekistan Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.
13. Xoliqov I., Sobirova M., Masharipova G. “Ma'naviyat asoslari” fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish. – T.:TDPU, 2013.
14. Urazova M.B., Eshpulatov SH.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2014. 6,5 b.t.

15. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g‘oya turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: RTM, 2017.

16. Larner I.Y. Didakticheskiye osnovi metodov obucheniya. – Moskva, Pedagogika, 1981,s.35.

17. Муродхужаев Х.А. Инновацион ривожланиш – бу келажак пойдевори. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистикаси қўмитаси сайти. URL: <https://stat.uz/uz/press-sluzhba/novosti-gks/3581-innovatsion-rivozhlanish-bu-kelazhak-poydevori>.

18. Leijten, J. Innovation policy and internationalrelations: directions for EU diplomacy. Eur J Futures Res (2019)

19. <https://doi.org/10.1186/s40309-019-0156-1> page 3

#### **4-mavzu: MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIYAT ASOSLARI FANLARINI O‘QITISHDA RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDAGI ILG‘OR TAJRIBALAR**

##### **Reja:**

1. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda xorij tajribasidan foydalanishning o‘ziga xosliklari.
2. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda g‘oya targ‘ibotining institutsional tizimi, uning ijobiy jihatlaridan ta’lim jarayonida foydalanish.
3. Rivojlangan mamlakatlarda g‘oyaviy fanlarni o‘qitish metodikasidagi ilg‘or tajribalar.

**Tayanch tushunchalar:** o‘qitish, xorijiy tajriba, o‘qitishda xorij tajribasi, o‘qitishda xorij tajribasidan foydalanish, rivojlangan xorijiy mamlakatlari, g‘oya targ‘iboti, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda g‘oya targ‘iboti, **institutsional tizim**, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda g‘oya targ‘ibotining institutsional tizimi, g‘oyaviy fanlarni o‘qitish metodikasi, rivojlangan mamlakatlarda g‘oyaviy fanlarni o‘qitish metodikasidagi ilg‘or tajribalar

**1. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda xorij tajribasidan foydalanishning o‘ziga xosliklari.** Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda xorij tajribasidan foydalanish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Quyida ayrim mamlakatlari ta’lim tajribasiga to‘xtalib o‘tamiz.

Masalan, Yaponiya – juda tez rivojlanayotgan davlat bo‘lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehgatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog‘liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va halqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo‘llash siyosati eng muhim o‘rin tutadi. Hozirgi

davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi.

Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g'arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini anglatdi.

Yaponiya hukumati OO'Yulari bitiruvchilarini o'qituvchi lavozimiga tayinlashda qattiq tanlov siyosatini olib boradi. Boshqa davlatlardan farqli o'laroq, davlat maktabi o'qituvchisi bo'lish uchun yapon fuqarosi o'qituvchi diplomini olishi kerak va o'qituvchilikka tayinlash imtihonidan o'tishi kerak.

Globalashuv davrida oliy ta'lim jamiyat hayotida o'ta muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan Yaponiyada oliy ta'lim tizimi juda qadrlidir.

Yaponiyada oliy ta'lim 12 yillik boshlang'ich va o'rtta ta'limdan keyin boshlanadi. Yaponiya oliy ta'lim muassasalariga universitetlar, kichik mutaxassis diplomini beruvchi 2 yillik kollej, amaliy va ijodiy ta'lim beruvchi texnologik kollejlар va kasbiy va amaliy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kollejlari kiradi.

Yaponiyada universitetlar quyidagi 3 ta kategoriyalarga bo'linadi:

1. Dastavval Yaponiya hukumati tomonidan, hozirgi kunda milliy universitet korporatsiyalari tomonidan joriy qilingan milliy universitetlar;
2. Jamoat universitet korporatsiyalari, mahalliy jamoat yuridik shaxslari, ta'lim korporatsiyalariga tegishli xususiy universitetlar tomonidan joriy qilingan jamoat universitetlari;
3. Xususiy universitetlar - umumiy universitetlar sonining 80% ni tashkil qiladi.

Har bir xususiy universitet o'zining noyob ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqotlarini taklif etadi. Bu universitetlar Yaponiya ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega.

Germaniya Federativ Respublikasi 16 ta mustaqil Federativ yerlar (viloyatlar)dan iborat bo'lib, har biri shakliga ko'ra turlicha bo'lgan ta'lim tizimiga ega. Ta'lim muassasalari asosan davlat tasarrufida bo'lib, ular uchun ta'lim dasturiga tegishli bo'lgan davlat ko'rsatmalari mavjud.

Germaniya oliy o'quv yurtlari o'zining ko'p asrlik an'analari va buyuk ma'rifatparvarlari bilan faxrlanadi. Universitet ta'limining reformatori Vilgelm fon Gumboldt joriy qilgan "ilm-fan va ta'lim birligi" tamoyili hanuz amalda bo'lib, bu o'z navbatida ilmiy izlanishlar bilan o'qituvchilar ham, talabalar ham shug'ullanishi lozimligini ko'rsatadi. Bugungi kunda mazkur ideal qarash birmuncha o'zgargan bo'lib, talabalar foydali kasb va amaliy ko'nikmalar egallash tarafdiridirlar. Shu bois ham Germaniyada "oliy maxsus maktablar" (Fachhochschulen) juda ommalashgan, unda o'qish muddati kam, o'quv dasturi universitetlarga qaraganda amaliyotga yaqinroq.

GFR ta'lim tizimi umumevropa ta'lim tizimiga integratsiyalashgan: o'quv muassasalarining barcha turlari Yevropa Ittifoqi (YEI) dasturini amalga

oshirishga mo‘ljallangan, YEI davlatlari ta’lim standartlari unifikatsiya (bir xillashtirish) qilingan, diplomlar bu davlatlarda kuchga ega.

Germaniya uzoq davrlardan beri fan va madaniyat markazi sifatida mashhurdir. Shiller, Gyote, Shneger, Gumboldt, Kant, Gegel va boshqalar kabi buyuk shoirlar, yozuvchilar, filosoflar va jamoat arboblari hammaga tanish. Germaniyada o‘rta asrlarda tashkil topgan 1-universitet mavjud. Eng qadimiy universitet bu Geydelberg universiteti bo‘lib, 1386 yil tashkil topgan. 1388 yil tashkil topgan Kyoln universiteti qadimiy universitetlardan sanaladi. Bu o‘quv muassasalari qadimiy an’analari va klassik ta’limi bilan mashhurdir.

Hozirgi kunda universitetlar va boshqa oliy o‘quv yurtlari soni sezilarli darajada ortdi, ta’lim tizimi ham o‘zgardi. Avvalgiday gumanitar ta’lim an’analari muhim o‘rinni egallaydi, lekin texnik ta’lim, nazariya bilan amaliyot birligi, fanlararo ta’lim ham birinchi o‘ringa chiqmoqda. Oliy o‘quv yurtlari fan va texnikaning oxirgi yutuqlariyo‘nalishlarni aks ettiruvchi dasturlarni kiritmoqdalar. Shu maqsadda o‘quv rejalar qayta ko‘rib chiqilmoqda.

Germaniyada 300dan ortiq oliy maktablar bo‘lib, ular 16ta Federal yerlarda joylashgan. Shulardan Geydelberg universiteti eng qadimiy bo‘lib, 1385 yil tashkil topgan. Turli mutaxassisliklar bo‘yicha 400dan oshiq o‘quv dasturlari juda keng tanlash imkonini beradi, bunda istagan mutaxassislikni egallah va fanlararo tadqiqotlar o‘tkazish mumkin.

Germaniya OO‘Yularida “akademik erkinlik” hukmron, ya’ni qat’iy o‘quv reja yo‘q, majburiy ma’ruzalar kam, talabalarning tanlov imkoniyati ko‘p. Shu bois ham o‘z yurtida qat’iy tartibga o‘rgangan chet ellik talabalar o‘quv yilining boshida birmuncha qiynaladilar. Bu haqda AQShning Viskonsin shtatidan kelgan Djon Vulf “Mustaqil ishlashga o‘zingni tayyorla. Bu yerda professorlarni AQShdagiga nisbatan kamroq ko‘rasan. Ustingdan nazorat ham yo‘q. Men bu yerda bilimni o‘qituvchi uchun emas, o‘zim uchun egallah lozimligini o‘rgandim”-deydi.

Germaniya Federativ Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi asosiy qonuniga” ko‘ra har bir fuqaro o‘z shaxsini erkin rivojlantirish, o‘z iqtidori, moyilligi va qobiliyatiga qarab mifik, o‘qish joyi va kasb tanlash huquqiga ega. Ta’lim sohasidagi bunday siyosatning maqsadi har bir shaxsning qiziqishi va talablarga javob beradigan malakali tayyorlarlikni olish imkonini berishida imkon qadar ko‘proq yordam berishdan iboratdir.

Germaniyaing har bir fuqarosi butun hayoti davomida umumiyligi, oliy va kasbiy ta’lim olish imkoniyatiga ega. Chunki Germaniya yuqori rivojlangan sanoat davlatlaridan biri bo‘lib, yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj katta. Germaniya xukumati turli sohalarda sifatli mutaxassis kadrlarni tayyorlashga manfaatdor. Shu bois nemis ta’lim tizimining rivojlanishiga katta miqdorda mablag‘ ajratiladi.

Janubiy Koreya Respublikasi ko‘plab tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga tortmoqda, sababi bu davlat postindustrial sivilizatsiya yutuqlarini egallagan Osiyo-Tinch okeani regionining noyob davlatlaridan biridir. Koreyaliklar bajarilishi shart bo‘lgan asosiy vazifa - o‘z an’anaviy madaniyatini saqlash,

siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o‘z madaniy-siyosiy identivlik, Sharqning an’anaviy qadriyatlarini va oriyentirlari bilan bog‘lashga intilish deb hisoblaydilar. Bu davlatning ta’lim tizimi YUNISEF ekspertlari xulosasiga ko‘ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida “eng samaralisi”deb tan olingan.

Ko‘pchilikning yagona fikricha, Janubiy Koreyaning iqtisodiyoti va texnikadagi yutuqlari “inson resursiga investitsiyani to‘g‘ri tikanligida” deb ta’kidlashadi. Konfusiy davridan saqlanib qolgan ziyoli odamga jamoat xizmati xozirgi kungacha bor. Janubiy Koreyada 1980 yillardan beri ilmiy kasblar eng nufuzli hisoblanadi.

Janubiy Koreya ta’lim tizimi yana bitta butunjahon tamoyilini amalga oshiradi: bu ta’lim va fan integratsiyasidir. Dunyo amaliyotida o‘quv muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarini o‘z ichiga oluvchi akademik konglomeratlar samarali faoliyat olib borishmoqda. Bunday birlashuv ilm va ta’lim integratsiyasining aniq asosi bo‘lib xizmat qiladi va mamlakatda yagona ilmiy-texnik va ta’lim siyosatini olib borish imkoniyatini beradi. Oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlarining qo‘silishi bugungi kunda integratsiyaning eng samarali shakli hisoblanadi.

Ko‘p rivojlanayotgan davlatlarda ta’lim bugungi kunda jamiyatning faqat sarf-harajatlar sohasi emas, balki asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylandi. Ya’ni, ta’lim raqobatbardosh, jiddiy moliyaviy mablag‘larni olib keluvchi soha bo‘lishi kerakligi isbotlandi. Ta’limning deyarli 1- bosqichidayoq davlat va iqtisodiyotning rivojlanishiga qaratilgan bo‘lishi kerak. Faqat bilim olish uchungina emas, balki olingan bilimlarni amaliyotda samarali qo‘llash uchun o‘qish zarur.

Janubiy Koreyada oliy ma’lumotga ega bo‘lish har bir koreys fuqarosining keyingi mavqeい muvaffaqiyati uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bu martabali ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishga bo‘lgan ehtiyoj ham katta. Janubiy Koreyada e’tibor ko‘proq matematika, koreys tili va ingliz tillariga, aniq fanlarga va jamiyat bilan bog‘liq fanlarga qaratiladi.

Janubiy Koreyada quyidagi ta’lim muassasalari turlari mavjud:

- Kollej va universitetlar (xususiy va milliy, davlat tasarrufida);
- Industrial universitetlar;
- Pedagogika institutlari;
- Sirtqi universitetlar;
- Ochiq universitetlar.

Janubiy Koreya ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida bo‘lganidek, oliy ta’lim sohasida ham chuqur islohotlar olib borilgan. Mamlakatda ta’limni isloh qilish va rivojlantirishga oid qabul qilingan qonunlar va meyoriy hujjatlarni oliy ta’limni raqobatga tayyorlash, universitet ta’limini rivojlantirishda tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, bitiruv maktab ta’limi va amaliy mutaxassisliklarni kuchaytirish, universitetlarning mahalliy sanoat bilan aloqadorligini yaxshilash, sanoat talablariga javob beradigan kasbiy ta’limni rivojlantirish, maktab bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ijtimoiy kam ta’minlangan oilalar va ishchilar uchun kasbiy ta’limni kuchaytirish, oliy ta’lim

uchun o'smirlar imkoniyatlarini yaxshilash, axborot asrida ta'lim boshqaruvi va uni moliyalashtirish xalqaro ta'lim almashinuvini mustahkamlash kabi dolzARB masalalarga katta e'tibor qaratildi.

Koreyada oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish qattiq nazorat ostida bo'lib, har bir da'vogarning ma'lum bir kollej yoki universitetga muvofiqligi talabaning ta'limni o'zlashtirish qaydlari va standartlashtirilgan milliy test natijalari orqali belgilanadi.

Mamlakatda yagona sirtqi oliy o'quv yurti - Seuldagi sirtqi universitet o'ziga hos ahamiyatga ega. "Ochiq universitetlar" ning vazifasi ham shunga o'xhash bo'lib, ularga ishlab chiqarishda ishlayotganlargina kirishi mumkin, ularda kirish imtihonlari yo'q. Janubiy Koreyada kollejlarning asosiy vazifasi malakali ishchilar yoki bo'g'in idora xizmatchilarini tayyorlashdir. Talaba kollejni tugatgach, nazariy jihatdan birdaniga universitetning ikkinchi yoki uchinchi kursiga kirish uchun xarakat qilishi mumkin. Shu bilan birga maxsus o'tish imtihonini topshirib, boshqa mutaxassislik bo'yicha ham kirishi mumkin.

**Bakalavriat.** O'qish muddati 4 yil. Talabalar 140-150 kredit soat atrofida tahsil oladilar. Tibbiyat sohasida o'qish 6 yil davom etadi va 180 kredit soat o'qishadi. O'qish tugagach, bakalavr darajasini olganligi haqidagi diplom beriladi. Tipik yirik koreys universitetlari tarkibida 10 tadan 20 tagacha fakultetlar bor. Fakultetlar amerikacha termin bilan "kollixlar", ya'ni koreyscha "texak" deb ataladi. Koreyada o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy qilishga alohida e'tibor beriladi.

Natijada Janubiy Koreya dunyoda o'z mакtab va ta'lim muassasalarini kompyuter va internet bilan to'liq ta'minlagan ikkinchi davlatga aylandi.

**Magistratura.** O'qish muddati 2-3 yil. O'qish yakunida talabalar dissertatsiya yoqlaydilar. Tibbiyat sohasidagi talabalar Tibbiyat mакtabining barcha talablarini bajarib, milliy imtihon topshiradilar. O'qish yakunida magistrlik darajasi beriladi.

**Doktorantura.** O'qish muddati 3-4 yil. O'qish yakunida doktorlik dissertatsiyasi himoya qilinadi, og'zaki yoki sohaga mos imtihon topshiriladi.

Kanadaliklarning eng muhim yutuqlaridan biri - bu ularning ta'lim tizimidir. Ilg'or universitet va kollejlardagi ta'lim sifati juda yuqori va Kanada diplomlari butun dunyoda tan olinadi. Xalqaro reytingda Kanada ta'limi AQShdan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Kanadada bugungi kunda 90 ga yaqin oliy o'quv yurtlari bo'lib, ularning ko'pchiligi universitetlardir. Ularning asosiy qismi davlat muassasalaridir. Diniy yo'nalishdagi ayrim xususiy o'quv yurtlari ham mavjud. Bu ikkita davlat tiliga ega bo'lgan davlatda hukumat doimo o'z fuqarolarining ta'lim darajasini yuksaltirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Universitetlarning ayrimlarida ta'lim ingliz, ayrimlarida fransuz tilida, ayrimida esa (Ottava universitetida) ikki tilda mashg'ulotlar olib boriladi.

Bachelors Degree - oliy ta'limning boshlang'ich bosqichi bo'lib hisoblanadi. Bu darajani olish uchun barcha provinsiyalarda o'qish muddati 3-4 yil. Shu 4 yil ichida talaba 20 ta fanni o'rganishi va topshirishi lozim. Ularning

yarmi bo‘lajak mutaxassislik sohasi bo‘yicha bo‘lsa, yarmi xohishga ko‘ra universitetda o‘qitiladigan fanlardan tanlanadi.

Universitetlar bakalavr darajasini beruvchi Undergraduate Programs hamda magistr va doktor darajasini beruvchi Graduate Programs dasturlari asosida tahsil beradi.

Magistr darajasini olish uchun 1 yildan 3 yilgacha o‘qish, tadqiqot asosida diplom ishi yozish kerak bo‘ladi.

Belgiya oliy ta’limi o‘zining ko‘hna an’analariga ega. O‘qitish jarayoni va zamonaviy ilm-fanni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish o‘rtasidagi bog‘liqlik Belgiya ta’lim tizimi uchun an’anaviy hisoblanadi. Belgiyada o‘qishni tanlash jarayonida e’tiborni, asosan, ishlab chiqarish (masalan, texnologiyalar) va biznes (xalqaro biznes, iqtisodiyot, boshqaruv, huquq, moliya va boshqa)lar bilan bog‘liq bo‘lgan dasturlarga qaratish kerak bo‘ladi. Bunda, albatta, ta’lim olib boriladigan tilni bilish to‘g‘risida dalillar bo‘lishi kerak. Belgiyadagi ta’lim xalqaro biznesga yo‘naltirilganligi oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari uchun katta imkoniyat beradi.

1970 yil 7 iyuldagagi qonunga muvofiq oliy o‘quv yurtlar universitet tipidagi o‘quv yurtlar va Oliy maktablarga bo‘linadi. Aslini olganda 7 ta Belgiya universiteti faoliyat yuritadi: Lej davlat universiteti, Monseenodagi universitet, Gent davlat universiteti, Bryussel’ Erkin universitet (fransuz va alohida flamand tilida), Lyuven katolik universiteti (fransuz va alohida flamand tilida). Ular qatorida bir nechta xorijiy universitet bo‘limlari (Bryussel’ va Antverpenda), hamda universitetga tenglashtirilgan qator Belgiya oliy o‘quv yurtlari (odatda ular universitet fakul’teti, markaz, birlashma yoki jamg‘arma nomlariga ega) faoliyat yuritadi.

Oliy o‘quv yurtlarning bir qismi - yuqorida nomlari qayd etilgan hamjamiyatlar hukumatlari byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat, yoki «rasmiy» o‘quv yurtlari hisoblanadi. Boshqalari shaxsiy mablag‘lar hisobidan - xususiy, shaxs yoki tashkilotlar tomonidan ochilgan va “mustaqil”, “erkin” nomlariga ega bo‘lishgan. Ularning aksariyati Belgiyada, an’anaga ko‘ra, ta’limning barcha bosqichlarini, shu jumladan oliy ta’limni, tashkil etish va moliyalashtirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan Rim katolik cherkovi rahbarligida ochilgan. Ba’zi mustaqil o‘quv yurtlar, xususan, katolik universitetlar hamjamiyatlar hukumatlari ko‘magidan foydalanishadi.

Bryusseldagi Erkin universitet - Niderland tilida o‘qitiladigan universitet hisoblanadi. Ushbu universitetlar nomlaridagi “erkin” so‘zi ularning mustaqil o‘quv yurti ekanini bildiradi.

Ular erkin ilmiy tadqiqotlar prinsipiga bo‘ysinadi va shiorlari ham bir xil: “Qorong‘ulikni ilm bilan yengish”. Bryussel’ Erkin universiteti yuqorida qayd etilganidek, 1834 yili tashkil topilgan va ta’lim faqatgina fransuz tilida, 1934 yildan boshlab golland tilida ham olib boriladi. 1970 yili esa Niderland tilida o‘qitiladigan fakul’tetlar Erkin universitetlariga ajratiladi. Shunday bo‘lsada har ikkala universitet o‘zaro hamkorlik dasturini amalga oshiradi. Fakul’tetlari:

- huquq va kriminologiya;
- iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy fanlar;
- psixologiya va pedagogika;
- tabiiy fanlar;
- tibbiyat va dorishunoslik;
- filosofiya va filologiya;
- texnik (muhandislik) fanlar;
- jismoniy tarbiya;
- o‘qituvchilarni tayyorlash fanlararo guruh.

Shuningdek, universitetga tenglashgan o‘quv yurtlar tarkibiga Qirolning harbiy maktabi ham kiradi. Universitet diplomi mavjudligi amaldagi qonunchilikka muvofiq ma’lum davlat mansab, lavozimlarini egallash va jamoat ahamiyatiga ega (advokat, vrach va boshqa) mutaxassisliklar bo‘yicha faoliyat yuritish uchun ruxsat olish uchun kerakdir. Alovida holatlarda Belgiya universitetlari chet elliklarga Belgiyada ishlash huquqiga ega bo‘lmagan diplom berishadi. Universitetda ta’lim olish eng kam muddati 4 yildir, lekin ba’zi mutaxassisliklar bo‘yicha undan ko‘p yil tahsil olishi mumkin.

Universitetdagi o‘qishlar ko‘p pog‘onalidir: universitetda ta’lim olishning har bir davri yoki sikli universitet ilmiy darajasini olish uchun quyidagi darajalarini olishi bilan tugatiladi:

“Kandidat” darajasi - 2 yoki 3 yillik tayanch ta’lim olganidan keyin beriladi. Bu 1-sikl hisoblanadi (keyin esa ta’limning 2-sikli, ya’ni ixtisos (soha) bo‘yicha tayyorlash boshlanadi;

“Litsensiat” - bakalavr darajasiga mos keladi, mutaxassisligi bo‘yicha 2 yoki 3 yillik qo‘srimcha ta’lim olishi va ilmiy ish yozganidan keyin beriladi. Ba’zi fanlar bo‘yicha ko‘p muddatli o‘qishdan keyingina ushbu darajaga erishish mumkin.

“Doktor” - magistr darajasiga to‘g‘ri keladi, mazkur darajaga “litsensiat” darajasini olgandan keyingina kamida yana 1 yil tahsil olib, dissertatsiyani yozib, albatta uni yoqlash talab etiladi.

“Oliy ta’lim agreje”si - ushbu iyerarxiya (ketma-ketlik)ning oliy darajasi hisoblanadi va u doktorlik darajasini olib, 2 yil muddat o‘tishidan keyingina berilishi mumkin.

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Uning ta’lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan «Ta’lim haqidagi qonun»i 1989 yil 10 iyulda qabul qilingan bo‘lib, uning o‘zgartirilishiga ta’lim strategiyasida ro‘y bergen o‘zgarishlar, mamlakatning ichki tashqi siyosatidagi islohotlar natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg‘or texnologiyalarning mamlakat ta’lim tizimlariga kirib kelishi, o‘quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo‘ldi.

Fransiyada ta’limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta’minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari

sharoitida o‘quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o‘rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu yerda davlat maktablari, xususiy maktablar, oraliq maktablar mavjud.

Fransiyada talabalar pedagogika, politexnika instituti, oliy ma’muriy maktablarga kirish uchungina imtihon topshiradilar. Bundan tashqari shu kasbga moyilligi ham alohida sinab ko‘riladi. Boshqa oliygochlarga va universitetlarga esa bakalavr diplomi bo‘lgan yoshlardan imtihonsiz qabul qilinaveradi.

Fransiyada oliy ma’lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mingdan ortiq. Ular odatda sanoat maishiy xizmat ko‘rsatish informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashgan. O‘qish muddati 2 yil bo‘lib sakkiz haftalik ishlab chiqarish amaliyotini ham ko‘zda tutadi.

### Sirtqi ta’lim

Sirtqi ta’lim xususiy yoki davlat ta’lim shoxobchalarida amalga oshirilishi mumkin. Mamlakatda milliy sirtqi ta’lim markazi faoliyat ko‘rsatmoqda, u 500 turdagi o‘rta, oliy professional ma’lumot berishni tavsiya eta oladi. Odatda ta’limning bu turi oilaviy sharoit, iqtisodiy sharoitlar tufayli maktabda o‘qishni davom ettirish imkoniyati bo‘lmagan kishilar uchun mo‘ljallangan. Sirtqi ta’lim katta yoshlilar uchun uzluksiz ta’limning muhim shoxobchasi bo‘lib qolgan. Ular o‘z ixtiyorlari bilan, o‘z mablag‘lariga yoki korxonalar mablag‘i hisobiga o‘qiydilar. Fransiyada sirtqi ta’lim 1 mln kishini qamrab olishi mumkin.

Amerika Qo‘shma shtatlarida ta’lim tizimining tuzilishi quyidagicha:

- bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;
- 1- 8 - auditoriyalargacha bo‘lgan boshlang‘ich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha o‘qiydilar);
- 9-12 - auditoriyalardan iborat o‘rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo‘lgan bolalar ta’lim oladilar).

U quyi va yuqori bosqichdan iborat. Amerika Qo‘shma Shtatlarida navbatdagi ta’lim bosqichi oliy ta’lim bo‘lib, u 2 yoki 4 yil o‘qitiladigan kollejlar hamda dorilfununlardir.

AQShda majburiy ta’lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o‘quv yurtlari davlat, jamoa tasarrufida, xususiy va diniy muassasalar ixtiyorida bo‘lishi mumkin.

Amerikada 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar tarbiyasi bilan onalar shug‘ullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. 5 yoshdan esa “Kinder garde” deb ataluvchi tayyorlov muassasalarida ta’lim boshlanadi. Boshlang‘ich maktab 6 yoshdan to 13- 15 yoshgacha bo‘lgan bolalarni qamrab oladi. Bu boshlang‘ich maktablarda umumi savodxonlik va kasbga yo‘naltirish vazifalari hal etiladi. Auditoriyadan-auditoriyaga ko‘chish o‘quvchining o‘zlashtirganlik darajasiga bog‘liq. Boshlang‘ich ta’lim turli shtatlarda turlicha belgilangan (4, 5, 6, 8 yil). Maktablarda turli xil to‘garaklar, uchrashuvlar, shoular va sayohatlar uyushtiriladi, ammo ularning hammasiga haq to‘lash lozim. O‘rta maktablar quyi va yuqori bosqichlardan iborat. 9 - auditoriyani

bitirgan talabalar tanlov asosida o'rta maktabga qabul qilinadi. O'rta maktablarda to'rt yo'nalishda kasb-hunar asoslari berib boriladi.

1 - kasb-hunar ta'limi, 2 - biznes ta'limi, 3 - savdo va sanoat ta'limi hamda 4-qurilish ta'limi. Oliy ta'lim 4 asosiy bosqichda amalga oshiriladi.

1-kichik mutaxassis - 2 yillik kollejlarda amalga oshiriladi. 2- bakalavr 4 yillik kollejlarda , 4 yillik kollej yoki dorifununni tugatgan 3-bosqichni davom ettirishi mumkin. Bu 1-2 yillik magistr maktabi. 4 – bosqich esa doktorantura. Oliy ta'limda ikki yo'nalish mavjud: 1-ta'limni individuallashtirish; 2-talabaning mustaqil ishslashini amalga oshirish.

O'qituvchi yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Asosiy maqsad talaba intellektini mashq qildirish va mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir. 3 Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, AQSH o'rta maktablarida o'z o'quvchilariga uch yo'nalishda: akademik, kasb-hunar, umumiy yo'nalishlarda bilim beradi. Ayni paytda o'quvchilarga to'rt yo'nalishda: qishloq xo'jaligi, biznes ta'limi, savdo va sanoat qurilishi bo'yicha hunar, kasb-kor asoslari o'rgatiladi.

AQShda har bir o'quvchiga fanlar bo'yicha olgan bilimlari jamlangan attestatlar beriladi. Kollejlarda o'qish istagida hujjat topshirgan o'qituvchilar yuqori o'rta maktabning so'nggi ikki yili bilimlari hajmida kirish test sinovlaridan o'tkaziladi. O'g'il- qizlarning tanlagan kasbiga layoqati va qobiliyati ham aniqlanadi.

Maktablarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar elektron yozuv apparatlari (kalligrafiya va yozuv qoidalarini takomillashtirishga yordam beradigan moslamalar) ta'lim televideniyesi, qo'lda ko'tarib yuradigan elektron til laboratoriyasi, slaydlar, videoapparaturalar, kompyuter va hokazolardan iborat.

XXI asr arafasida AQSH yangi qabul qilingan «2000-yilda Amerika ta'lim strategiyasi» dasturi e'lon qilingan edi.

Turli yo'nalishdagi asosiy maqsadlar belgilangan mazkur dasturda 2000-yilda barcha amerikalik kichkintoylarning maktabga tayyor holda kelishlari, aholining 90 foizi oliy ma'lumotli bo'lishi, o'quvchilarning ingliz tili, matematika, tabiiy fanlar, tarix, geografiya fanlari bo'yicha jahonga o'z iqtidorlarini namoyish eta olishlari, talabalarning tabiiy va matematika fani yutuqlarini o'zlashtirishda jahonda eng oldingi o'rnlarga chiqishlari, har bir voyaga yetmagan amerikalikning iqtisodiyot sohasida jahonning barcha yoshlari bilan bellasha oladigan bo'lishlari, maktablarda giyohvandlik va zo'ravonlikka barham berish, o'qish uchun barcha shartsharoitlarni yaratish ko'zda tutilgandi. AQSH ta'lim istiqbollarini belgilab beruvchi mazkur dastur asosida o'tgan yillar davomida juda ko'p ishlar amalga oshirildi.

Oliy o'quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha AQSH jahon mamlakatlari orasida yetakchi o'rnlardan birini egallaydi. Bu mamlakatda ilmiy izlanishlar uchun ajratilgan mablag'ning 48 foizini davlat tomonidan, 50 foizini firma, konsern, sindikatlardan undiriladi, qolganlarini oliy o'quv yurtlarining manbalari tashkil qiladi.

**2. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda g‘oya targ‘ibotining institutsional tizimi, uning ijobiy jihatlaridan ta’lim jarayonida foydalanish.** Rivojlangan xorijiy mamalakatlar ta’lim tizimida g‘oyaviy targ‘ibotga maksimal darajada katta ahamiyat qaratiladi.

Jumladan, **AQShda** o‘qituvchilik kasbi eng ommaviy va nufuzli kasblardan hisoblanadi: AQShda 3,4 ta boshlang‘ich va o‘rta maktab o‘qituvchilari bor.

AQShda 1400 dan ortiq OO‘YU o‘qituvchi tayyorlash dasturlariga ega. Davlat universitetlarini moliyalashtirish ta’lim uchun to‘lovlar va subsidiyalar orqali amalga oshiriladi.

**Yaponiyada** o‘qituvchi faqat o‘qitish emas, balki bolalarning tartibi uchun ham, vaqtini o‘tkazishi va boshqa ko‘plab masalalarga ham mas’uldir. Bular “o‘qitish” tushunchasiga emas, ko‘proq ota-onaning vazifalari sirasiga kiradi.

Shu bois ham Yaponiya hukumati OO‘Yulari bitiruvchilarini o‘qituvchi lavozimiga tayinlashda qattiq tanlov siyosatini olib boradi. Boshqa davlatlardan farqli o‘laroq, davlat maktabi o‘qituvchisi bo‘lish uchun yapon fuqarosi o‘qituvchi diplomini olishi kerak va o‘qituvchilikka tayinlash imtihonidan o‘tishi kerak. Yaponiya o‘qituvchilar oyligi mahalliy xokimiyat organi xodimlari oyligidan ko‘p bo‘lgan davlatlardan biridir.

**Xitoyda** oliy ta’lim tizimi o‘z ichiga universitet, kollej va oliy kasbiy maktablarni oladi, hamda o‘zining nufuziga ko‘ra bir necha ierarxik kategoriyalarga bo‘linadi. Maktab bitiruv imtihonlarida olingan ballarga ko‘ra bitiruvchilar oliy o‘quv yurtlarining yuqori yoki quyi toifalariga nomzod bo‘la oladilar. Xitoy universitetlariga kirish qat’iy raqobat sharoitida o‘tadi: ba’zi universitetlarda bitta o‘ringa 200-300 kishi to‘g‘ri keladi.

«Xitoy Xalq Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonuni»da ko‘rsatilishicha «Davlat Kengashi va mahalliy xalq hokimiyatlari o‘z hududlaridagi boshqaruв tamoyillari asosida ta’lim tizimini boshqaradilar. O‘rta va to‘liq bo‘limgan o‘rta ta’lim muassassalari Davlat Kengashi tasarrufidagi mahalliy xalq hokimiyatlari tomonidan, oliy ta’lim Davlat Kengashi, avtonom hudud, shahar xalq hokimiyatlari tomonidan boshqariladi. Mazkur qonunning 15-bandida aytishicha “Davlat Kengashidagi ta’limning ma’muriy organlari mamlakatdagi ta’lim sohasini boshqaradilar, umumiy reja asosida ish ko‘radilar va uning faoliyatini muvofiqlashtiradilar”.

Xitoyda ming yillar davomida shakllanib, bugungi kunga kelib o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan go‘zal an’analardan biri ustozni ulug‘lashdir. Deyarli barcha Sharq xalqlarida bo‘lgani kabi bilim beruvchi har qanday odam ustoz sifatida qadrlanadi. Buyuk Konfusiy ta’limoti asoslari mujassamlashgan bugungi Xitoy ta’lim tizimida o‘qituvchiga bo‘lgan e’tibor alohida o‘rin tutadi.

**Germaniya** Oliy ta’lim tizimi 250 dan ortiq universitetlarni o‘z ichiga oladi. Bu oliy o‘quv yurtlari va ixtisoslashtirilgan (kasb-hunar) oliy maktablarida asoslanadi. Ular bilan birga pedagogik, kasb-hunar kollejlari bor. Germaniyada universitetlar davlat ixtiyorida hisoblanadi. So‘nggi yillarda bir necha xususiy universitetlar ochildi.

Mutaxassislar tayyorlashda universitetlarning roli katta ahamiyatga ega.

**Buyuk Britaniyada** o‘qituvchilarni tayyorlash Bolonya ta’lim tizimiga ko‘ra amalga oshiriladi, ya’ni bunda OO‘YU bozor talablaridan kelib chiqqan holda kadr tayyorlaydi, bunda davlat nazorati maxsus agentliklar tomonidan olib boriladi.

Bugungi kunda Angliyada o‘qituvchilarni tayyorlashda “O‘qituvchilarning kasbiy standartlari va ularni tayyorlashga qo‘yiladigan talablar” (Professional Standards for Qualified Teacher Status and Requirements for Initial Teacher Training) ga qat’iy rioya qilinadi.

Buyuk Britaniyada o‘qituvchilarni tayyorlash uzoq muddatli va ko‘p bosqichli jarayon hisoblanadi. Ta’limning dastlabki bosqichidanoq bo‘lg‘usi o‘qituvchida faollik, tashabbuskorlik kabi fazilatlar tarbiyalanadi, oldiga qo‘yilgan muammoning mohiyatini tushunish, uni o‘z bilimi va malakalariga tayangan holda hal qilish o‘rgatiladi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta’limning, mamlakat ichki siyosatiga faol ta’sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e’tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta’minalashga ajratilayotgan mablag‘ miqdori yildan-yilga oshib bormokda.

Yaponlarda, masalan, “maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli”gina bo‘lib qolmay, “u insonlarni yaxshilaydi”, degan fikr ishonch va e’tiqodga aylangan.

Ta’lim to‘g‘risidagi g‘amxurlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat-e’tiborida bo‘lgan. Shuning uchun ham AQShning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya sobiq Bosh vaziri M. Techcherni, Fransiya sobiq Prezidenti F.Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb, bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni “Jamiyatni hapakatlantiruvchi kuch” deb hisoblagan.

Niderlandiya maktablarida o‘rta ta’lim:

- umumiy o‘rta ta’lim;
- umumiy ilmiy o‘rta ta’lim;
- hunar-texnika ta’limi va hokazolardan tashkil tongan.

O‘z navbatida umumiy o‘rta ta’lim o‘qish muddati 4 yil bo‘lgan o‘rta va o‘quv muddati 5 yil hisoblangan oliy bosqichga bo‘linadi.

Hozir Niderlandiyada mamlakat umumiy aholisining 40 foizini 25 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Mamlakat yoshlar siyosatining assosiy yo‘nalishi ularni ma’lumotli, kasb-korli qilishga, yoshlarni mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotida faolroq ishtirok etishini ta’minalash, ularning ko‘ngilli dam olishlarini yaxshiroq tashkil etishni ta’minalashga qaratilgan.

Shu o‘rinda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida g‘oya va qadriyatlarning qanday o‘rnii bor, aytaylik, bugun qanda Amerikaliklarga qanday g‘oya va qadriyatlar singdirilmoqda? – degan savol tug‘ilishi tabiiy. Avvalo aytish joizki, fuqaro va yoshlar tarbiyasi quyidagi g‘oyaviy ustunlarga tayanadi. AQSH fuqarolari Konstitusiyani, Amerika davlatchiligining asoslari va

demokratik tamoyillarni muqaddas deb biladilar va bu tuyg‘uni yoshlar ongiga singdirish haqida tinimsiz qayg‘uradilar. Yoshlarda erkin yashashga ishtiyoq, mustaqillikni qadrlash tuyg‘usi shakllantiriladi. AQShning fan va texnologiyalar sohasida boshqa davlatlardan o‘zib ketganligining sababi shundaki, avvalo Amerikada erkin va ijodiy fikr qadrlanadi hamda o‘zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan bag‘rikenglik qaror toptirilgan. Lekin amerikalik fuqaroni tarbiyalashning eng asosiy jihatni boshqa bir g‘oyada yashirin. U ham bo‘lsa, har bir insonni noyob iste’dod egasi deb bilish, har bir shaxsga hazrati inson sifatida murojaat etishdir. Insonga bunday munosabat, so‘zsiz, uning salohiyatini yuzaga chiqarish imkonini beradi. Aynan shu g‘oya ta’sirida amerikaliklar orasida o‘zini “o‘rtamiyona odam” deb biladigan yoxud “men bir oddiy odam” deb gapiradigan kishilar nihoyatda kam uchraydi.

Amerika fuqarolariadolatni ham o‘ziga xos tarzda tushunadilar: shaxs nimagaki erishsa, qanday maqomni egallasa, bunga faqat o‘z aqli va iste’dodi bilangina yetishadi. Har bir amerikalik bolaligidanoq kimgadir va nimagadir orqa qilishga emas, balki o‘z kuchiga tayanishga o‘rgatiladi. Har bir amerikalikda kelajakka ishonch uyg‘otiladi. Xuddi ana shu “Amerika orzusi”kishilarni yangi maqsadlar sari rag‘bathantiradi, yangi g‘oyalarni amalga oshirishga shavq uyg‘otadi. Umuman, demokratiya qoidalari va erkinlik Amerika mafkurasining poydevorini tashkil etadi. Bunday tarbiya natijasida faqat o‘z kuchiga ishonish, ruhiy ozodlik va mustaqil fikrlash kabi xislatlar amerikaliklarning qon-qoniga singib ketgan. Albatta, “AQSH da bu borada muammo yo‘q ekan” degan xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Oxirgi paytlarda erkinlikka hadeb urg‘u beraverish oqibatida amerikaliklar erkinlikni jamiyat oldidagi majburiyatlardan ham ozodlik sifatida idrok eta boshladilar. Shu bois hozirgi kunda AQShning ziyyolilari tomonidan yangi mafkura –liberal –natsionalizm mafkurasini yaratish zarurligi haqidagi fikr o‘rtaga tashlanmoqda. Bu mafkura milliy va irqiy jihatdan bo‘linib ketgan ko‘p sonli ijtimoiy guruahlarni “AQSH - millatlar hamjamiyatidir g‘oyasi atrofida birlashtirishni nazarda tutadi. E’tibor beradigan bo‘lsak, yangi mafkurada milliy omilning ustuvorligi o‘rnatalmoqda. Demak, gap AQShda asta-sekinlik bilan yagona milliy vujudni shakllantirish, xalqning birdamligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi mafkurani yaratish haqida borayotir.

**Yaponiyada milliy mafkura tarbiysi.** Sharqning eng ilg‘or mamlakatlaridan biri Yaponiyada fuqaroni, yoshlarni tarbiyalashning eng samarali va ta’sirchan usulidan foydalaniladi. Bunday tarbiyaning asosiy maskani sifatida maktab tanlangan. Chunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Kunchiqar mamlakatda fuqaro tarbiysi “axloqiy tarbiya” tizimi doirasida amalga oshiriladi. Rasmiy hujjatlarda “axloqiy tarbiya” tizimi quyidagicha nomlanadi:

- 1) “xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim”
- 2) “davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat”;

3) “fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash”<sup>25</sup>.

Aslida, bu tizim millatni tarbiyalash tizimi vazifasini o‘taydi. Undan qudratli g‘oyaviy ta’sir vositasi sifatida ham foydalaniladi. Ko‘pchilik olimlarning fikricha, aynan «axloqiy tarbiya» tizimi Yaponiya mamlakati iqtisodiy ravnaqining g‘oyaviy asosini tashkil etadi. Chunki bu tizim ishlab chiqarishda ma’naviy salohiyatdan unumli foydalanishga yo‘naltirilgan. Shu boisdan ham ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588-1679)- “Davlatning qandayligi haqida xulosa chiqarish uchun avvalo odamlarning axloqi, qiziqishlari va fe'l-atvorini o‘rganish joizdir”degan edi. Ikkinchi jahon urushidan xaroba bo‘lib chiqqan Yaponiya mamlakatining 30- 40 yilda ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘ringa chiqib olgani ko‘pchilikning hayratini uyg‘otadi. “Kichik bir orolning bunday qisqa vaqtda hunarmandchilik ustaxonalaridan avtomatlashgan sanoatgacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tganligini qanday tushuntirish mumkin?”.

Mazkur savolga yaponlar quyidagicha javob beradilar: “Salohiyat insonlarda yashirin”. Yaponiya menejmentining oltin qoidasiga ko‘ra, insondan qimmatroq boylik yo‘q. Yapon kishisida quyidagi qadriyat va sifatlar qaror toptiriladi: Mehnatsevarlik, intizomlilik va jamoaviylik yapon milliy xarakteriga xos xususiyatlar sanaladi. Biroq, davlat bu bilan qanoatlanmay, o‘z fuqarolarida ushbu sifatlarni mustahkamlash va kuchaytirish vazifasini maorifga yuklaydi. Natijada, maktablarda guruhiy birdamlikni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda kollektivning yutug‘i ham, mag‘lubiyati ham guruhning har bir a’zosiga bog‘liq ekanligi haqidagi g‘oya singdiriladi, o‘z rolini aniq bilish va shunga yarasha mas’uliyatni his qilish talab etiladi. Bunday tarbiya ko‘rgan fuqaro jamoa muammolarini o‘zining shaxsiy muammolari sifatida qabul qiladi. Olimlarning fikricha, aynan shunday guruhiy birdamlik (yaponchada —aydagarasyugi) tufayli mamlakat misli ko‘rilmagan iqtisodiy yutuqlarga erishdi.

Mehnat yapon kishisi uchun axloqiy qadriyat sanaladi. Uning qadriyat darajasiga ko‘tarilishida —axloqiy tarbiyal tizimining roli beqiyos. Gap shundaki, yapon kishisiga maktabdayoq quyidagi g‘oyalar singdiriladi:

1. “Faqat tirishqoqlik va mehnat bilan muvaffaqiyatga erishish mumkin”.
- 2.“O‘z ustingda tinimsiz ishla - shunda birovdan kam bo‘lmaysan”.

Bu kabi g‘oyalar ta’sirida ulg‘aygan yapon kishisi o‘zining barcha harakatlarini quyidagi mantiqqa bo‘ysundiradi: “Bor imkoniyatlaringni ishga sol!”.

Shunday qilib, davlat o‘z fuqarolarida tirishqoqlik va hafsala, qunt va g‘ayratni maqsadli ravishda qaror toptiradi. Intizomdan jamiyat manfaatlarida foydalanish borasida esa yaponlar boshqalarga o‘rnak bo‘la oladi. “Axloqiy tarbiya” natijasida Yaponiyada fuqarolar mehnat intizomining buzilishini shunchaki salbiy illat deb hisoblamay, balki uni Vatanga hiyonat deb qabul qildilar. Yaponiyada fuqaro tarbiyasi zamon ehtiyojlari va jamiyat

<sup>25</sup> Эргашев И. ва бошк. Миллий истиклол ғояси: Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслик. -Т.: Академия, 2005, - 302 б.

manfaatlariga moslashtirib boriladi. Aynan shu tufayli yapon fuqarolari jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi qudratli kuch deb biladilar. Ko‘rinib turibdiki, millat kelajagini o‘yaydigan hech bir davlat fuqaro tarbiyasi masalasini e’tiborsiz qoldira olmaydi.

**3. Rivojlangan mamlakatlarda g‘oyaviy fanlarni o‘qitish metodikasidagi ilg‘or tajribalar.** Rivojlangan mamlakatlarda g‘oyaviy fanlarni o‘qitish metodikasida aralash ta’limning o‘ziga xos o‘rni bor.

Deklan Bern “blended learning” (aralash ta’lim) haqida shunday deydi – “ushbu ta’lim boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan”. Bunday yondashuv axborotni taqdim etishda turli uslubiyotlardan foydalanishni, ta’limni tashkil etishda va ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari, yakka tarzda va guruhlarda an’anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv talabani charchatmaydi va o‘qishga bo‘lgan motivlarini kuchaytiradi. Asosiy masala - tanlangan uslubiyotlarning o‘zaro mutanosibligini ta’minlash va kam harajat asosida yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi.

Bugungi kunda blended learning kunduzgi an’anaviy ta’lim va masofaviy ta’limning unsurlari kombinatsiyasi hisoblanib, bunda an’anaviy metodika va yangi texnologiyalarni uyg‘unlashtirishga imkon yaratiladi. Bu tizimda o‘qituvchi ta’lim markazida qoladi va internet imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. Blended learning masofaviy ta’lim (Distance learning), auditoriya xonada ta’lim (Fake-to-Fake learning) va internet orqali ta’lim (Online learning)dan iborat.

### **Vebinar metodi**

Bugun masofaviy ta’limning yana bir turi “|webinar” (1998 yilda bu termin muloqatga kiritildi) texnologiya vujudga keldi. Vebinar texnologiya o‘qitish web-texnologiya asosida interaktiv holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiya nafaqat tinglovchilarga axborotni yetkazadi, balki ular bilan muloqotga kirishish (og‘zaki, yozma) imkonini yaratadi, ya’ni seminar ko‘rinishida fikrlarni almashish, o‘z fikrini bayon etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda internet tarmog‘i asosida tashkil etiluvchi ta’lim ham subekt-subekt paradigmasiga o‘tmoqda.

Vebinar usulida dars seminar yoki konferensiya Internet orqali bir vaqtida hozir bo‘lgan tinglovchilar bilan audio video (va avvalgi postlarda sanab o‘tilgan ko‘plab interaktiv imkoniyatlar) bilan jonli olib borilib ushbu dars keyingi foydalanishlar uchun yozib olinishi mumkin bo‘lsa-da, butun o‘quv yoki kurs jarayonidagi darslar yagona platforma doirasida o‘zaro uzviy bog‘lanmaydi, ya’ni alohida-alohida bir martalik darslar bo‘ladi deyish mumkin.

### **Evristik o‘qitish metodi**

Evristik o‘qitish metodini qo‘llashda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo‘lgan masalani aniqlab oladi.O‘quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o‘zlashtirib oladilar va uning yechimi bo‘yicha boshqa vaziyatlar

bilan taqqoslaydi. O'rnatilgan masalani yechish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi tajribasini egallaydilar.

Evristik metod o'qituvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Buning natijasida o'quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori auditoriya o'quvchilarining o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma'lum holatlarda qo'llaniladi. Ushbu metodlardan boshlang'ich auditoriyalarda foydalanish amaliyotchi-o'qituvchilarning fikrlariga ko'ra birmuncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzlusiz ta'lim tizimiga shaxsga yo'naltirilgan ta'limni faol joriy etishga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ushbu yo'nalishdagi loyihalarni tayyorlash o'ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shunga qaramasdan bu tasnif maktab amaliyotida birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan. Shuningdek, buyuk didakt I.Y.Lerner asarlari asosida ilmiy tadqiqot ham amalga oshirilgan.

XX-asr (1902-1903) boshida Emil Dyurkgeym(1973 [1925]) o'zining qator ma'ruzalarida yoshlarning ijtimoiylashuvida maktab fanlarining markazlashuvini ijtimoiy normalar, qadriyatlar va qoidalar borligini o'rgatuvchi va ular asosida ijtimoiy hamkorlikni shakllantiruvchi dastlabki ijtimoiy institut deb qaragan. Bu meyorlar va qadriyatlarni o'zlashtirayotgan yoshlar ko'proq kattalarga xos samarali bandlik va fuqaroligi bilan bog'liq an'anaviy xattiharakatlar modulini namoyon qilmoqda. O'z navbatida maktab va oilalarning bu normalar va qadriyatlarni bolalarga singdirishdagi xato va kamchiliklari ular orasidagi huquqbuzarlik, jinoyatchilik va boshqa salbiy natijalarning kelib chiqishiga olib keladi va yuqorida ta'kidlangan ijtimoiy institutlarning umumiyligini maqsadlariga zid holatni yuzaga keltiradi. Maktab tarbiyasi o'qitishni xavfsiz va professional tashkillashtirishda katta rol o'yndaydi. Dyurkgeymning ta'kidlashicha, maktab tarbiyasi "auditoriyada faqatgina tinchlikni ta'minlaydigan oddiygiyna qurilma emas", balki undan ham muhimroq, "ma'naviy tarbiya instrumentidir va u ko'chirib olinishi murakkabdir".

Xususan, sotsiologlar o'quvchilarning shakllanishida maktab intizomi muhiti rolining kengayishidan manfaatdor bo'lganlar. Intizom uzoq yillar mobaynida muvaffaqiyatli maktablarning markaziy xususiyati sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, so'nggi o'n yilliklar ichida tadqiqotchilar bu muhim mavzu haqida qiyosiy tadqiqotlarga nisbatan kam e'tibor bergen. Maktab intizomi yuzasidan qiyosiy tadqiqotlar ayniqsa hozirgi kunda juda muhimdir, chunki biz maktablarning bir-biridan intizom borasidagi tizimli yondashuv farqlarini bilishimiz kerak. Bunday bilim siyosatchilarga samarali ta'lim siyosatini shakllantirish uchun mustahkam empirik asos beradi. Bu kitob maktab intizomi yuzasidan tizimli qiyosiy milliy tadqiqotlarni o'z ichiga olgan bo'lib, mavzu yuzasidan akademik bilimlar, ijtimoiy fikr va ta'lim siyosatining shakllanishiga hissa qo'shadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta’lim qanday jarayon sifatida e’tirof qilingan?
2. Yaponlarda, maktabga qanday ta’rif beriladi?
3. Taniqli siyosatchilardan kimlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb aytishadi?
4. Amerikada fuqaro va yoshlar tarbiyasi qanday g‘oyaviy ustunlarga tayanadi?
5. Hozirgi kunda AQShning ziyolilari tomonidan qanday yangi yaratish zarurligi haqidagi fikr o‘rtaga tashlanmoqda?
6. Yaponiyada fuqaroni, yoshlarni tarbiyalashning qanday eng samarali va ta’sirchan usulidan foydalaniladi?

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH BO‘YICHA SAVOLLAR:** (savolga mos javobni aniqlang)

<b>t/r</b>	<b>Savollar</b>	<b>Javoblar</b>
1	Bu mamlakat aholisi orasida o‘zini “o‘rtamiyona odam” deb adigan yoxud “men bir oddiy odam” deb gapiradigan kishilar nihoyatda kam uchraydi. Gap qaysi yurt vakillari haqida bormoqda?	Amerikaliklar haqida
2	Intizomdan jamiyat manfaatlarida foydalanish borasida esa bu yurt fuqarolari boshqalarga o‘rnak bo‘la oladi. Gap qaysi yurt vakillari haqida bormoqda?	Yaponiyaliklar haqida
3.	Bu mamlakat aholisida ming yillar davomida shakllanib, bugungi kunga kelib o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan go‘zal an’analardan biri ustozni ulug‘lashdir. Gap qaysi yurt vakillari haqida bormoqda?	Xitoyliklar haqida
4.	O‘qitish jarayoni va zamonaviy ilm-fanni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish o‘rtasidagi bog‘liqlik bu mamlakat ta’lim tizimi uchun an’anaviy hisoblanadi...	Belgiya
5.	Mehnat bu mamlakat aholisi uchun axloqiy qadriyat sanaladi.	Yaponiya
6.	Bu davlatning fan va texnologiyalar sohasida boshqa davlatlardan o‘zib ketganligining sababi shundaki, avvalo bu mamlakatda erkin va ijodiy fikr qadrlanadi hamda o‘zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan bag‘rikenglik qaror toptirilgan.	Amerika Qo‘shma shtatlari

## MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI

**1. Amerikada fuqaro va yoshlar tarbiyasi qanday g‘oyaviy ustunlarga tayanadi?**

A) AQSH fuqarolari Konstitusiyani, Amerika davlatchilik erkinlik va ginning asoslari vo‘zgalardan ustun bo‘lish tamoyillarni muqaddas deb biladilar

B) AQSH fuqarolari siyosiy tuzumni, Amerika yakka bir insonga sig‘inish va tobelikni muqaddas deb biladilar

\*S)AQSH fuqarolari Konstitusiyani, Amerika davlatchiligining asoslari va demokratik tamoyillarni muqaddas deb biladilar

D) Tinimsiz mehnat, davlat va jamiyatda faollikni ustun va muqaddas deb biladilar

**2. Yaponiyada axloqiy tarbiya tizimi qanday nomlanadi?**

A) bilim olishga yo‘naltirilgan ta’lim; xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim; axloqiy tarbiyaga yo‘naltirilgan ta’lim

B) xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim; mafkuraviy tarbiyaga yo‘naltirilgan ta’lim

S) fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash; qonuniylikni ustun qo‘yuvchi fikrlar bilan tarbiyalash tizimi

\*D) xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim; xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim; fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash

**3. Ko‘pchilik olimlarni fikricha Yaponiya mamlakati iqtisodiy ravnaqining g‘oyaviy asosini qanday tizim tashkil qiladi?**

A) “Ta’lim tarbiya” tizimi

\*B) “Axloqiy tarbiya” tizimi

S) “Mafkuraviy tarbiya” tizimi

D) “Ma’naviy tarbiya” tizimi

**4. Bu mamlakat uzoq davrlardan beri fan va madaniyat markazi sifatida mashhurdir...**

A) Yaponiya

B) Angliya

\*S) Germaniya

D) Janubiy Koreya

**5. Ko‘pchilikning yagona fikricha, bu mamlakataning iqtisodiyoti va texnikadagi yutuqlari “inson resursiga investitsiyani to‘g‘ri tikanligida” deb ta’kidlanadi ...**

A) Yaponiya

B) Angliya

S) Germaniya

\*D) Janubiy Koreya

**6. Bu mamlakatdagi ta’lim xalqaro biznesga yo‘naltirilganligi oly o‘quv yurtlari bitiruvchilari uchun katta imkoniyat beradi...**

- \*A) Belgiya
- B) Angliya
- S) Germaniya
- D) Fransiya

**7. Bu mamlakatda davlat maktablari, xususiy maktablar, oraliq maktablar mavjud...**

- A) Belgiya
- B) Angliya
- S) Germaniya
- \*D) Fransiya

**8. Bu mamlakatda majburiy ta’lim 16 yoshgacha amal qiladi...**

- A) Belgiya
- \*B) AQSh
- S) Germaniya
- D) Fransiya

**9. Bu mamlakatning asosiy qonunlaridan birida ko‘rsatilishicha, Davlat Kengashi va mahalliy xalq hokimiyatlari o‘z hududlaridagi boshqaruv tamoyillari asosida ta’lim tizimini boshqaradilar...**

- A) Yaponiya
- B) Singapur
- \*S) Xitoy
- D) Janubiy Koreya

**10. Bu mamlakatda o‘qituvchilarni tayyorlashda “O‘qituvchilarning kasbiy standartlari va ularni tayyorlashga qo‘yiladigan talablar”ga qat’iy rioya qilinadi...**

- A) Belgiya
- \*B) Angliya
- S) AQSH
- D) Fransiya

## **ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidgi nutqi. 2020 yil, 23 sentabr.//  
<https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/23/bmt/>.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so‘zi, 2020 yil 25 yanvar.

4. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori// Toshkent, Xalq so‘zi. 2019 yil. 4 may. № 78.

5. Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 8 apreldagi “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №5465 –son Farmoyishi//Xalq so‘zi, 2019 yil, 9 aprel.

6. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiysi” loyihasi // <https://regulation.gov.uz/uz/document/10558>.

8. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahriri, 1993.

9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

10. Ruscha-o‘zbekcha lug‘at /O‘zSSR Fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomli Til va adabiyot instituti /1-tom. . – T.: O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi, 1983.

11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4–жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. -267-бет.

12. Xoliqov I., Sobirova M., Masharipova G. “Ma’naviyat asoslari” fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish. – T.:TDPU, 2013.

13. Urazova M.B., Eshpulatov SH.N. Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU, 2014. 6,5 b.t.

14. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g‘oya turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: RTM, 2017.

15. Эргашев И. ва бошқ. Миллий истиқлол ғояси: Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслик. -Т.: Академия, 2005, - 302 б.

## **5-mavzu: INKLYUZIV TA’LIM KONSEPSIYASI, MODELLARI VA STRATEGIYALARI**

### **Reja:**

1. Inklyuziv ta’limning mohiyati.

2. Yangilanayotgan O‘zbekistonda inklyuziv ta’limga yangicha munosabat.

3. Inklyuziv ta’lim konsepsiysi, modellari va strategiyalari: oliy ta’lim tashkilotlarida turfa xil ta’lim oluvchilarni qo’llab-quvvatlashni shakli, metodi va vositalari.

**Tayanch tushunchalar:** inklyuziv ta’lim, alohida ehtiyojli bolalar, imkoniyati cheklangan bolalar, nogironligi bor shaxslar, maxsus ta’lim, uydagi ta’lim, resurs o‘qituvchi, integratsion ta’lim, inklyuzivlik, inklyuziv ta’lim

tizimi, inklyuziv ta’lim konsepsiysi, inklyuziv ta’lim modeli, inklyuziya strategiyasi.

**1.Inklyuziv ta’limning mohiyati.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida, eng avvalo, kelajak avlodning barkamol bo‘lib ulg‘ayishi, hech kimdan kam bo‘lmay dunyo arenalarini zabit etishga qodir farzandlar bo‘lib yetishishi kabi dolzarb masalalarni hal etish turadi. Ayniqsa, yetim va ota-onas qaramog‘isiz qolgan, nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan. Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta’minalash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta’limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta’limning uzviylik va uzlusizligini ta’minalash borasida talaygina ishlar amalga oshirib borilmoqda.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiyligini ta’lim loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish ko‘zda tutilmoqda. Natijada inklyuziv ta’limni tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini, o‘ziga xos imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish, u bilan bog‘liq muammolarni aniqlash, samaradorlik jihatlarini asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Chunki inklyuziv ta’lim usuli barcha bolalarning ruhiy jismoniy holatidan qat’iy nazar ta’lim jarayonida to‘laqonli ishtirok etishini ta’minalashga qulay imkoniyat yaratadi.

Inklyuziv ta’lim – barcha ta’lim oluvchilar uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqlilagini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minalashdir.

Inklyuziv ta’limni oiladan maktabgacha ta’lim muassasalarida, umumta’lim mакtablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv muassasalarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiyligini munosabat o‘zgarayotgani ma’lum bo‘ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta’lim jarayonidagi barcha tadbirdarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko‘rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo‘ymaydi. Ular olgan ko‘nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo‘lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga reja asosida joriy etilayotgan inklyuziv ta’lim strategiyasi o‘qishning uzlusiz va muttasilligini ta’milaydi. Oila – bolalar bog‘chasi – maktab – kasb-hunar kolleji – ish bilan ta’minalash – ushbu tizim

kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta'lim muassasalari va oliv o'quv yurtlariga bemalol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi.

Inklyuzivlik-inglizcha so'z bo'lib, inclusif- qo'shish, birlashtirish ma'nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi.

Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarining imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir<sup>26</sup>.

Shuningdek, inkluziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtaсидаги то'siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'limning maqsadi – alohida ehtiyojli bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, umumta'lim muassasalarida to'laqonli ta'lim olishlarini ta'minlash, ta'lim muassasalarida har bir bola uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish.Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'limning turli shakllari tashkil etilgan:maxsus ta'lim, uydagi ta'lim, inklyuziv, integratsion ta'lim va muruvvat uylari.

Maxsus ta'lim – bolalarning muammolari bo'yicha maxsus tashkil etilgan makkab-internatlari, maktablar; uydagi ta'lim – ta'lim muassasalarida o'qish imkoniyatiga ega bo'lman bolalar uchun oilada tashkil etiluvchi ta'lim; inklyuziv,integratsion ta'lim – umumta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi uyg'un ta'lim; muruvvat uylari - rivojlanishida og'ir nuqsonlarga ega bolalar uchun internat tipida maxsus tashkil etiluvchi ta'lim hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslari ikki xil bo'ladi:xorijiy va milliy.

Xorijiy asoslар “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”(1948), “Bolalar huquqlari to'g'risida”gi konvensiya(1989), “Nogironlar huquqlari to'g'risida”gi deklaratsiya(1975), “Ta'lim nima uchun?” umumjahon deklaratsiyasi(1990), Salamanka bayonoti(1994), Dakar deklaratsiyasi(2000) ga tayanadi.

Milliy asoslarni esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi(1992,2023), “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida”gi qonun (1991), “Ta'lim to'g'risida”gi qonun(1997, 2020), “Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida”gi qonun (2008), “Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5270-farmon (2017-yil), “Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi to'g'risida”gi PF-5712- farmon(2019-yil) va hk. lar tashkil etadi.

---

<sup>26</sup> Педагогик атамалар луғати. – Т.: “Фан”, 2008. –Б.47.

**2.Yangilanayotgan O‘zbekistonda inklyuziv ta’limga yangicha munosabat.** Yangilanayotgan O‘zbekistonda nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tibbiy ijtimoiy yordam ko‘rsatish, hayot sifatini yaxshilash tizimini takomillashtirish, ularga ta’lim olish va ishga joylashishda har tomonlama ko‘maklashish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilib, xalqimizga xos bo‘lgan mehr-shafqat hamda ezgulik tuyg‘ularini hisobga olgan holda nogironlarning muhim ehtiyoj va talablariga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017 yil 1 dekabrdagi PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 29 apreldagi PF5712-son “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida”, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son “Alohidat a’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-son “Alohidat a’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish bo‘yicha qator normativhuquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Mazkur hujjatlarda jamiyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgan maxsus yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularga ta’lim-tarbiya berish, ularning sog‘lom bolalar qatoridan o‘rin olib o‘z qobiliyati, imkoniyatlarini ko‘rsata olishiga, ma’naviy kamol topishiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son qarorida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta’minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta’lim-tarbiya (shu jumladan, inklyuziv ta’lim-tarbiya) olishiga xizmat qiladigan moslashuv muhitini yaratish bo‘yicha alohida vazifalar qayd etib o‘tilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash

bo‘yicha: alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, umumta’lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo‘yicha mutaxassislar) bilan ta’minlash;

jamoatchilik o‘rtasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

o‘quvchilarining jismoniy va aqliy talab-ehtiyojidan va ta’lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini optimallashtirish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta’minlash;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi vazifalar belgilangan.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan yordamga muhtoj bolalar davlatimizning teng huquqli a’zolari. Ularni uzlusiz ta’lim tizimidagi barcha muassasalarda hamma qatori ta’lim olishi va tarbiyalanishini ta’minlash bizning asosiy vazifalarimizdan biridir.

Insonlarning nogironlarga nisbatan munosabatini o‘zgartirish, atrofdagilarni ularning jamiyatda to‘liq va teng huquqli ishtiroki haqida xabardor qilish nogironlarning dolzarb muammolarini hal etishda o‘ta muhim ahamiyatga ega. “Nogiron” tushunchasini muomaladan chiqarish va uning, eng avvalo, inson ekanligini hisobga olgan holda umume’tirof etilgan “nogironligi bo‘lgan shaxs” atamasini kiritish va BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilishga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar tashkil etilishi ham quvonarlidir. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari kafolatlari” haqidagi Qonuni har bir bola o‘z oilasida tarbiyalanish huquqini kafolatlaydi, bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatini belgilaydi, davlat organlarini bola huquqlarini ta’minlash bo‘yicha kafolatlarini belgilaydi.

O‘zbekistonda oilaviy sharoitidan qat’iy nazar, barcha bolalar davlat umumta’lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Faqat xohlovchilar o‘z yonidan pul to‘lab xususiy maktablarda o‘qishi mumkin. Lekin imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog‘lom bolalar bilan teng sharoitda o‘qiyotgani haqida maqtanib bo‘lmaydi. Bu borada muammolar ko‘p. 2020 yil

13 oktyabrda qabul qilingan “Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’limtarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarorida bu boradagi asosiy muammolar ko‘rsatilgan:

- ✓ alovida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ayrim ta’lim muassasalarida ular uchun to‘siqsiz muhit va imkoniyatlар yaratilmagan;
- ✓ alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitishga mo‘ljallangan uskuna va jihozlar bilan to‘liq ta’minlanmagan;
- ✓ alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta’lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo‘lga qo‘yilmagani natijasida ota-onalar alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan farzandlarini umumta’lim muassasalarida o‘qitishi mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emas;
- ✓ alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga jalb qilish bilan bog‘liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan yetarli e’tibor qaratilmayapti;
- ✓ pedagogika yo‘nalishidagi OTMlar o‘quv dasturlariga inklyuziv ta’lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan;
- ✓ pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta’lim dasturlari kiritilmagani, shuningdek, bo‘lajak pedagoglarning alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar jalb qilingan ta’lim muassasalarida amaliyot o‘tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

**3. Inklyuziv ta’lim konsepsiysi, modellari va strategiyalari: oliy ta’lim tashkilotlarida turfa xil ta’lim oluvchilarini qo‘llab-quvvatlashni shakli, metodi va vositalari.** Inklyuziv ta’lim jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o‘quvchilarini sog‘lom o‘quvchilar bilan birgalikda o‘qitishni anglatadi. Inklyuziv ta’lim bir qator muhim tamoyillarga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Jumladan,

- inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog‘liq emasligi prinsipi;
- har bir shaxsning his qilish va o‘ylash layoqatiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning muloqot qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning bir-biriga kerakliligi prinsipi;
- shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining aniq hamkorlik asosida amalga oshirilishi prinsipi;
- har bir o‘quvchining o‘z tengdoshlarining qo‘llab-quvvatlovi va do‘stona munosabatlariga ehtiyojmandligi prinsipi;
- turli-tumanlik o‘quvchi hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishni ta’minlashi zarurligi prinsipi kabilar.

Inklyuziv ta’limning maqsadi - alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun muktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini

yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta’lim berishni ta’minlashdan iborat<sup>27</sup>.

Inklyuziv ta’limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;
- ✓ jamoatchilik hamda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar muammolariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish;
- ✓ ta’lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;
- ✓ barcha o‘quvchilar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq maktabgacha, umumiy o‘rta, kasb-hunar va oliy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;
- ✓ o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko‘nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ✓ alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta’lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya metod va vositalarini qo‘llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologikpedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

Aslida inklyuziv ta’lim – bu har hil ehtiyojli bolalarning umumiy, o‘rta va oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olishlari uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratish, ular uchun ta’lim muassasalarida qo‘srimcha moslamalarni yaratilishini talab etuvchi ta’lim tizimidir.

Odatda inklyuziv ta’lim modeli quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Har bir shaxs tengdoshlarining qo‘llab-quvvatlashiga muhtojdir;
- Shaxsning qadr-qimmati uning iste’dodi va yutuqlari bilan bog‘liq emasdir;
- Har bir insonda fikrlash va his qilish qobiliyati mavjud;
- Inson eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga egadir;
- Inson insonga muhtojdir;
- Insonning to‘liq va munosib ta’lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi.

Bugungi kunda aksariyat mamlakatlar inklyuziv modelni ta’lim jarayonida joriy etishi quyidagi muammolarga duch kelmoqda:

- Aksariyat ta’lim muassasalari sog‘lom, nogironligi bo‘lmagan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan va jihozlangan;
- Nogironligi mavjud shaxslarning jamiyatga qo‘shilolmaslik muammosi;

<sup>27</sup> Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom. – T.: “Vazirlar Mahkamasining 638-sod qarori ilovasi”, 2021 .

- Nogiron shaxslarning boshqa insonlarga qaramligi;
- Nogiron shaxslarning moddiy mablag‘ bilan ta’minlanmaganligi;
- O‘quv mashg‘ulotlari olib boriladigan auditoriyalarda o‘quvchilar sonining ko‘pligi;
- Ba’zi holatlarda nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan salbiy munosabat;
- Nogironligi bo‘lgan shaxslarni o‘qitishda professor-o‘qituvchilar bilan bog‘liq muammolar (aksariyat o‘qituvchilar bunday toifadagi talabalarni o‘qitishga moslashmagan).

Shiddat bilan rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida nogironligi bor shaxslarda oliy ma’lumotli bo‘lish hayotni tashkil qilishning eng samarali usullaridan biridir. Oliy ma’lumotli bo‘lish bunday toifadagi shaxslarga;

- hayotni tanlash erkinligi, ma’naviy va moddiy mustaqillikni beradi;
- dunyoqarashi va hayotiy maqsadlarini shakllantiradi;
- insonning o‘zgaruvchan ijtimoiy vaziyatga moslashish qobiliyatini rivojantiradi;
- hayotga teran nigoh bilan qarash va dunyoqarashini uyg‘unlashtiradi, bu ayniqsa nogiron yoshlar uchun juda muhimdir.

Dunyo aholisining yetti foizdan o‘n foizigacha nogironlar tashkil qilayotgan hozirga sharoitda nogironlarni oliy ma’lumot olish imkoniyatini ro‘yobga chiqarish juda dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Shu sababli, nogironlar uchun oliy ta’lim tizimini ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlariiga, ushbu toifadagi talabalar ehtiyojlari va hayotiy maqsadlariga moslashtirish orqali oliy ma’lumot olish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Nogironligi bor talabalar bilan ishlashni oliy ta’lim muassasalari sharoitida tashkil etish va amalga oshirish davlat ijtimoiy siyosatidagi zamonaviy tendensiyalarni aks ettiruvchi g‘oyalarga, kasb-hunar ta’limni rivojlanishida, xususan talabalar kontingentining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda oliy o‘quv yurtlarida nogironligi bo‘lgan talabalar uchun o‘qitishni tashkil etishga qo‘yladigan talablarni asoslovchi tamoyillar, nazariyalar va yondashuvlarni ishlab chiqishni davrning o‘zi talab qilmoqda.

Jahon miqiyosida nogironligi bor shaxslarga yaratilgan imkoniyatlar borasidagi islohotlar O‘zbekistonda ham faol olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev rahbarligida nogironlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va ta’lim jarayonida munosib bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan: “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”da mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni rivojlantirish borasida quyidagilar nazarda tutilgan:

- ✓ aholining ijtimoiy zaif guruqlarini, xususan, nogironligi bo‘lgan odamlarni oliy ma’lumot bilan qamrab olishni kengaytirish;
- ✓ nogironlar uchun ta’lim xizmatlari turlarini ko‘paytirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, inklyuziv ta’limni rivojlantirish va tegishli adaptiv texnologiyalarni joriy etish;

✓ nogiron o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, hamma joyda inklyuziv ta’lim g‘oyasini ilgari surish uchun keng imkoniyatlar yaratish;

✓ nogiron talabalar uchun oliy o‘quv yurtlari va talabalar turar joylarida qo‘srimcha sharoitlar yaratish, zarur adabiyotlar va o‘quv qo‘llanmalar bilan ta’minalash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Ushbu konsepsiya 2030 yilga qadar umumta’lim maktab va kasb-hunar texnikumlari bitiruvchilarining oliy ma’lumot bilan qamrab olinishini 50 foizgacha ta’minalashni nazarda tutadi, bu 2020 yilga nisbatan ikki baravar ko‘p bo‘lib oliy o‘quv yurtlarida nogironligi mavjud talabalar sonining ko‘payishi va oliy ta’lim olish imkoniyatlarining kengayishidan dalolat beradi.

Bugungi kunda nogironlarni oliy ma’lumot bilan qamrab olish muammosi, ularning o‘qishi uchun tegishli sharoitlarning mavjud emasligida namoyon bo‘lmoqda. Jismoniy yoki aqliy nogironligi mavjud aksariyat yoshlari ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida o‘qishga majbur bo‘lmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarni umumiyligi ta’lim maktablarida o‘qitish uchun shart-sharoitlar mavjud emasligi sababli ular uyda o‘qiydi va bu, o‘z navbatida, oliy o‘quv yurtlarining kirish imtihonlari talablariga javob bermaydi. O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida inklyuziv ta’limni rivojlantirish shakllanish bosqichida bo‘lib, ushbu tizimda bir qator kamchiliklar ham yo‘q emas. O‘zbekistonning aksariyat oliy o‘quv yurtlarida binolar va inshootlar nogiron bolalarni o‘qitish uchun moslashtirilmagan, bu ularning tengdoshlari qatori umumiyligi sinflarda ta’lim olishiga jiddiy to‘siqdir. Ushbu kamchiliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: aksariyat o‘quv binolarida liftlar mavjud emas yoki kapital ta’mortalab holatda; oliy ta’lim muassasalarida jadvalga muvofiq talabalar binoning turli qavatlarida joylashgan auditoriyalarda o‘qiydilar, baland zinapoyalar, panduslarning yo‘qligi nogironlar aravachasidagi talabalar uchun binoga kirish va bino ichida harakatlanishiga to‘siq bo‘lmoqdadir; Shu munosabat bilan, nogiron yoshlarning O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olishlari uchun tegishli shart-sharoitlarni shakllantirish ushbu tizimning ustuvor vazifasi bo‘lib, shoshilinch choralar ko‘rishni talab etmoqda. Nogironligi mavjud talabalarni oliy o‘quv yurtlarida tahsil olish jarayonida ham bir qator muammolar ko‘zga tashlanmoqda. Jumladan:

- aksariyat oliy o‘quv yurtlarida professor-o‘qituvchilar tarkibi inklyuziv ta’lim shakli bo‘yicha tayyorgarligi yetarli darajada emas;

- oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limga moslashtirilgan maxsus o‘quv dasturlarining yetishmasligi, zaruriy adabiyotlar bilan ta’minalmagani.

Bizning fikrimizcha O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni samarali tatbiq etish va rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish maqsadiga muvofiq bo‘ladi:

-nogironligi mavjud yoshlarning ta’limning barcha bo‘g‘inlarida (maktabgacha ta’lim-maktab-universitet) ta’lim olishining huquqiy asoslarini takomillashtirish orqali mamlakatning ta’lim siyosati maqsad va vazifalariga moslashtirish;

-ta'limning barcha bosqichlarida (maktabgacha ta'lim-maktabuniversitet) inklyuziv ta'lim modelini ishlab chiqish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmini ishlab chiqish;

-nogironligi mavjud shaxslarning ehtiyojaridan kelib chiqib ularning sifatli ta'lim olishlari uchun davlat tomonidan kafolatlangan tashkiliy-boshqaruva mexanizmlarini ishlab chiqish;

- respublika, viloyat, oliy ta'lim muassasasi va undagi alohida yo'nalishar kesimida nogiron talabalar soni, ta'lim olishi, yashashi va dam olish sharoitlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish va statistikasini olib borish ishlarini takomillashtirish;

- bevosa inklyuziv ta'lim modeli bilan shug'ullanadigan pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;

- respublikadagi mavjud oliy ta'lim muassasalari bino va inshoatlari infratuzilmasini bevosa imkoniyati cheklangan talaba yoshlarga moslashtirilgan holda takomillashtirish;

- oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talaba yoshlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda maxsus o'quv dasturlari asosida o'quvuslubiy majmualar va talabalar bilimini nazorat qilish tizimini ishlab chiqish;

- inklyuziv ta'lim jarayonida nogiron talabalarning professoro'qituvchilari va ota-onalariga yordam berish maqsadida oliy o'quv yurtlarida murabbiy-tyutorlar faoliyatini tashkil etish.

Oliy ta'lim muassasalari uchun tavsiya etilgan chora-tadbirlar:

- Yuqori turuvchi rahbariyat qo'llab-quvvatlovi bilan inklyuziv ta'lim yoki tenglik, xilma-xillik va inklyuziya (TXI) bo'yicha oliy ta'lim muassasasining alohida strategiya va siyosatini ishlab chiqish;

- Ishlab chiqiluvchi siyosatni tegishli mahalliy qonun hujjalari bilan uyg'unlashtirish;

- Ishlab chiqiluvchi strategiyani mahalliy qonun hujjalariiga asoslangan holda hamda ilg'or milliy va xalqaro amaliyotdan foydalangan holda yaratish;

- Strategiyani ishlab chiqish davomida uning maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida strategiyani ta'lim muassasasi ichida keng muhokamadan o'tkazish;

- Yuqori turuvchi rahbariyat tarkibida strategiyani qo'llab-quvvatlovchi vakillar mavjudligini ta'minlash;

- Oliy ta'lim muassasasi darajasida strategiyani ishlab chiqish, amalga oshirish va ko'rib chiqish, uni rivojlantirish va strategiya bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni nazorat qilish hamda hisobot berishga mas'ul qo'mita tuzish;

- Ishlab chiqilgan strategiya va siyosatga bog'lagan holda harakatlar rejasini yaratish va undagi chora-tadbirlarning bajarilish monitoringini yo'lga qo'yish;

- Muayyan masalalarni hal qilish uchun loyiha guruhlaridan foydalanish;

- Inklyuziya/TXI bo'yicha ishlarni jadallashtirish uchun milliy va xalqaro miqyosda sohada amalga oshirilayotgan tashabbuslarda ishtirok etish;

- E’tibor va harakatlarni talab qiluvchi ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash va hal qilish uchun ma’lumotlar bazasini yaratish va ulardan samarali foydalanish.

Inklyuziya strategiyasi – bu oliy ta’lim muassasalariga (OTM) tenglik, xilma-xillik va inklyuziya (TXI) tamoyillarini o‘zlarining har bir harakati markaziga qo‘yishga imkon beruvchi, talabalar va xodimlarga, ularning xususiyatlari va hozirgi vaziyatidan qat’i nazar, o‘zlarini xavfsiz va qo‘llab-quvvatlangan his qilishlari uchun imkon beruvchi mexanizm sanaladi. Bunday strategiyalar ishlab chiqilganda va amaliyatga joriy etilganda, kamsitishga o‘rin yo‘q bo‘lgan, farqlar hurmat qilinadigan va hamma bilan teng va adolatli muomala yo‘lga qo‘yilgan muhit yaratiladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Inklyuziv ta’lim deganda nimani tushunasiz?
2. Inklyuziv ta’limning o‘ziga xos jihatlari nimada?
3. Inklyuziv ta’lim modeli qanday tamoyillarga asoslanadi?
4. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”da mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni rivojlantirish borasida qanday chora-tadbirlar nazarda tutilgan?
5. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni samarali tatbiq etish va rivojlantirish uchun sizningcha nimalarga e’tibor qaratish zarur?
6. Inklyuziya strategiyasining mohiyatini izohlang...

#### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH BO‘YICHA SAVOLLAR:** **(savolga mos javobni aniqlang)**

T/r	Savollar	Javoblar
1	Alovida ehtiyojga ega bo‘lgan o‘quvchilarni umumta’lim maktablarida sog‘lom bolalar bilan qo‘sib birgalikda o‘qitish jarayoni –	2021 yil 12 oktyabrda qabul qilingan
2	O‘quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o‘zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta’lim jarayoni –	Inklyuziya strategiyasi
3.	“Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’limtarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori	Inklyuzivlik
4.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son qarori	2020 yil 13 oktyabrda qabul qilingan
5.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid	Inklyuziv ta’lim

	normativ huquqiy hujatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 638-son qarori	
6.	Oliy ta’lim muassasalariga talabalar va xodimlarga, ularning xususiyatlari va hozirgi vaziyatidan qat’i nazar, o‘zlarini xavfsiz va qo‘llab-quvvatlangan his qilishlari uchun imkon beruvchi mexanizm –	2018 yil 5 sentyabrda qabul qilingan

## **MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI**

**1. Bolalarning muammolari bo‘yicha maxsus tashkil etilgan maktab-internatlari, bu ...**

- A) Uydagi ta’lim
- B) Inklyuziv ta’lim
- \*S) Maxsus ta’lim
- D) Inklyuziv,integratsion ta’lim

**2. Ta’lim muassasalarida o‘qish imkoniyatiga ega bo‘Imagan bolalar uchun oilada tashkil etiluvchi ta’lim ...**

- \*A) Uydagi ta’lim
- B) Inklyuziv ta’lim
- S) Maxsus ta’lim
- D) Inklyuziv,integratsion ta’lim

**3. Jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o‘quvchilarni sog‘lom o‘quvchilar bilan birgalikda o‘qitish...**

- A) Uydagi ta’lim
- \*B) Inklyuziv ta’lim
- S) Maxsus ta’lim
- D) Inklyuziv,integratsion ta’lim

**4. Umumta’lim muassasalarida tashkil etiluvchi uyg‘un ta’lim ...**

- A) Uydagi ta’lim
- B) Inklyuziv ta’lim
- S) Maxsus ta’lim
- \*D) Inklyuziv,integratsion ta’lim

**5. Inklyuziv ta’limning huquqiy-me’yoriy asoslari necha xil bo‘ladi?**

- A) uch xil
- B) to‘rt xil
- S) besh xil
- \*D) ikki xil

**6. “Ta’lim nima uchun?” umumjahon deklaratsiyasi qachon qabul qilingan?...**

- \*A) 1990 yil
- B) 1994 yil
- S) 2000 yil
- D) 1989 yil

**7. Dakar deklaratsiyasi qachon qabul qilingan?**

- A) 1990 yil
- B) 1994 yil
- \*S) 2000 yil
- D) 1989 yil

**8. Salamanka bayonoti qachon qabul qilingan?**

- A) 1990 yil
- B) 2000 yil
- S) 1989 yil
- \*D) 1994 yil

**9. Inkluziv ta’lim, bu ...**

- A) zamon talabi
- B) ta’limning xos xususiyati
- \*S) davlat siyosati
- D) jamiyat talabi

**10. Quyidagilardanqaysi biri inklyuziv tamoyili hisoblanadi?**

- A) Ijodiy faollik uchun teng sharoit yaratish prinsipi
- \*B) Har bir shaxsning bir-biriga kerakliligi prinsipi
- S) Barchaga teng imkoniyat yaratish prinsipi
- D) Yangi sharoit hosil qilish prinsipi

**ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish choratadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3931-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi “Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 638-sonli qarori.
4. Umumi o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom. – T.: “Vazirlar Mahkamasining 638-son qarori ilovasi”, 2021.

5. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so‘zi, 2020 yil 25 yanvar.
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
9. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Ta’limda tolerantlikka erishish kelajak o‘qituvchisini inklyuziv ta’limga tayyorlashga erishish sharti sifatida. Zamonaviy mактабда va jamiyat aloqadorli, 1(1), 61-65.
10. Кондратьева С.И. “Механизм управления инновационным проектом по внедрению инклюзивной модели образования в ВУЗе” диссертация на соискание учёной степени кандидата экономических наук. М.: Московский государственный университет экономики, статистики и информатики – 2010 год.
11. Педагогик атамалар луғати. – Т.: “Фан”, 2008. –Б.47.

## IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR

### **1-AMALIY MASHG‘ULOT: MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIYAT ASOSLARI TURKUMIDAGI FANLARNI O‘QITISHGA QO‘YILAYOTGAN ZAMONAVIY TALABLAR**

**Amaliy mashg‘ulotda ko‘riladigan masalalar mazmuni:** Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishning o‘ziga xosliklari. Bugungi kunda dunyoda kechayotgan mafkuraviy jarayonlar, ayovsiz raqobat muhitida milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitishga qo‘yilayotgan talablar. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarning zamonaviy yo‘nalishlariga oid nazariy qarashlar, yetakchi konsepsiylar.

**1-ilova**

#### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH BO‘YICHA SAVOLLAR: (savolga mos javobni aniqlang)**

T/R	Savollar	Javoblar
1	Bu mutafakkirning fikricha, “xalqlarning milliy xususiyatlari-psixologiyasining shakllanishi tarixiy va tabiiy jarayondir”	Abu Rayhon Beruniy
2	Bu mutafakkirning fikricha, alohida olingan inson yoki insonlar xulq-atvori, milliy xususiyati va shunga mos ruhiyatining shakllanish jarayonini tabiiy ruh, tabiiy quvvatlar bilan bog‘liq.	Abu Ali ibn Sino
3.	Bu mutafakkirning fikricha, odamlar o‘rtasidagi ruhiy bog‘lanish ularning xulq-atvori, tabiat, fe’li va tilining umumiyligiga tayanadi.	Abu Nasr Forobiy
4.	Bu mutafakkirning fikricha, har bir millatning taraqqiy va taoliysi (yuksaklik, ko‘tarilish), davlat va hukumatlarning uzun yashamog‘i adolatga bog‘liq.	Abdulla Avloniy
5.	Ma’naviy rivojlanish oqsagan joyda...	Ijtimoiy yangilanish, ijtimoiy taraqqiyot yuz bermaydi.
6.	qayerdaki mafkuraviy bo‘shliq vujudga kelsa, o‘sha yerda...	Begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin.

**2-ilova**

#### **Munozara uchun savollar:**

1. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarning o‘ziga xos xususiyatlari nimada?

2. Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitetni hosil qilish qanday ahamiyatga ega?

3. Qaysi mamlakat o'z ma'rifati, aqli, tarixi bilan XX asrda ustuvor bo'lib turibdi?

4. A.Avloniy o'zining qaysi asarida ma'naviyatni rivojlantirish masalalari, xususan, insonparvarlik, adolat, komillikka erishish g'oyalarini ilgari suradi?

